

TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADR LARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI

O'QUV USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMUY - METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH
yo'nalishi**

**«SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI»
MODULI BO'YICHA**

**O' Q U V – U S L U B I Y
M A J M U A**

Toshkent 2022

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: TDIU "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrasi i.f.n,
dotsenti Bazarov Q.T., TDIU "Soliqlar va sug'urta ishi"
kafedrasi dotsenti, PhD Sh.B.Babayev

Taqrizchi: TDIU "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrasi i.f.d.,
professori Alimardanov M.I

Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining
2022 yil 31 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| I. Ishchi dastur | 4 |
| II. Modulni o'qitishda foydalilaniladigan interfaol ta'lif metodlari..... | 16 |
| III. Nazariy materiallar..... | 22 |
| IV. Amaliy mashg'ulot materiallar | 61 |
| V. Keyslar banki..... | 101 |
| VI. Mustaqil ta'lif mavzulari | 119 |
| VII. Glossariy | 121 |
| VIII. Adabiyotlar ro'yxati | 126 |

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasining 2019 yil 31 dekabrdagi qabul qilingan Soliq Kodeksi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to’g’risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5544-sonli Farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 797-son, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4022-son hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019 – 2030 yillar davrida O’zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4477-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo’lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg’or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o’zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko’nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo’yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo’yladigan umumiyligi malaka talablari va o’quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo’lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o’quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo’naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o’quv jarayonini tashkil etishning zamонавиу uslublari bo’yicha so’nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo’llash bo’yicha tegishli bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo’nalishining o’ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko’nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo’yladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Soliq ma’muriyatçiligi” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini innovatsion ta’lim texnologiyalariga doir bilimlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni o’zlashtirish, joriy etish, ta’lim amaliyotida qo’llash va yaratish ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Soliq ma’muriyatçiligi” modulining vazifalari:

“Soliq ma’muriyatçiligi” yo’nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini uzlucksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

-zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo’lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o’zlashtirishini ta’minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o’qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish;

- tinglovchilarda soliqqa tortish amaliyoti bo’yicha innovatsion ta’lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirishga doir proaktiv, prognostik va kreativ kompetentlikni rivojlantirish.

Modul bo’yicha tinglovchilarning bilimi, ko’nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar

Tinglovchi:

- O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Davlat byudjeti to’g’risidagi qonuni, shuningdek ta’lim sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me’yoriy hujjatlarni;

- O’zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to’g’risida”gi qonun, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillatirish kontseptsiyasi”da belgilangan soliq siyosatining asosiy yo’nalishlarining mohiyati va ahamiyatini;

- O’zbekiston Respublikasida soliq siyosati, uning yaqin istiqboldagi vazifalari va strategik yo’nalishlarini retrospektiv va perspektiv baholash;

- O’zbekistonda bevosita soliqlarni soliq tushumlaridagi salmog’i va qiyosiy tahlili, o’zgarish tendentsiyalarini ishlab chiqish.

- Respublikada soliq ma’muriyatçiliginı takomillashtirish hamda amalda qo’llash samaradorligini oshirish yo’llarini ishlab chiqish;

- Davlat soliq qo’mitasi tomonidan soliq to’lovchilarga taqdim etilgan interaktiv xizmatlardan amalda foydalanish;

- iqtisodiyot sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimida xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalarini qo’llash;

- davlat soliq xizmati organlarida foydalanilayotgan dasturiy mahsullardan foydalanish hamda ularni keng jamoatchilikka tushuntirish;

- mamlakat soliq tizimiga oid yangiliklar, dolzarb masalalarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ularni o’quv jarayoniga tatbiq etish;

- soliq to’lovchilarni segmentlash va nazorat qilishni ***bilishi kerak***.

Tinglovchi:

- ta'lif-tarbiya jarayonlari maqsadiga erishishda davlat soliq xizmati organlari faoliyatini bilishi;
- soliq ma'muriyatchiligin rivojlantirishga qaratilgan innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni;
- davlat soliq xizmati organlari qabul qilingan qarorlarning natijasini baholash va prognoz qilishni;
- soliq xizmati organlari faoliyati sifatini nazorat qila olishni;
- soliq xizmati organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- pedagogik faoliyatga innovatsiyalarni tadbiqu etishning samarali usullaridan foydalanishni;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiqu etish;
- elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalarini bilishi hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- xorijiy tildagi manbalardan pedagogik faoliyatda foydalana olish;
- O'zbekiston Respublikasi byudjet va soliq tizimlaridagi xalqaro integratsiya va uni amaliyotga tadbiqu qilish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish.
- Byudjet daromadlarini prognozlashtirish va tushumlarni nazorat qilish **ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.**

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Davlat byudjeti to'g'risidagi qonuni, shuningdek ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlaridan o'quv jarayonida samarali foydalana olish;
- mutaxassislik fanlaridan innovatsion o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- Soliq ma'muriyatchiliği va soliqqa tortish amaliyoti mutaxassislik fanlarini o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish;
- soliq sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'lim jarayonini loyihalash;
- soliqlarni hisoblash va soliq hisobotlarini tuzishda axborot texnologiyalaridan foydalana olish hamda o'quv jarayoniga tadbiqu etish;
- soliq solishning milliy va xalqaro tajribalarini qiyosiy tahlil qila olish hamda ta'lim jarayonida qo'llash;
- soliq organlarida soliqlar hisobini yuritishda maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanishga oid **malakalariga ega bo'lishi zarur.**

Tinglovchi:

- xalqaro soliqqa tortish jarayonlarini chuqur tahlil etish va olingan xulosalarini keng jamoatchilikga tushuntirib bera olishi hamda soliq sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarni o'qitish jarayoniga nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash;

- makroiqtisodiy va soliq ko'rsatkichlarni tizimli ravishda taxlil qilish va ularni keng jamoatchilikka tushuntira olish;
- soliqlarni hisoblash va soliq hisoboti ma'lumotlari asosida byudjet tushumlari istiqbolini belgilovchi optimal boshqaruv qarorlarini qabul qila olish;
- soliq solish amaliyotini tashkil qilish bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi tartib va qoidalarni amaliyotga joriy qila olish;
- soliqlarni hisoblash va undirish amaliyoti mexanizmlarini takomillashtirishda faol qatnashish ***kompetentsiyasiga ega bo'lishi zarur.***

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Soliq ma'muriyatçılığı" kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyiligi

O'quv modul mazmuni o'quv rejadagi uchinchi va beshinchi blok hamda mutaxassislik o'quv modullarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda professor-o'qituvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Hozirgi globallashuv sharoitida byudjet va soliq siyosati va undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan bo'lib, unda mamlakatimiz soliqqa tortish tizimidagi islohotlarning kontseptual asoslari yoritib berilgan. Soliqqa tortish sohasida zamonaviy pedagog kadrlar uchun ushbu yo'nalishdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish talab qilinadi va bunda O'quv modulning roli yuqoridir.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat | | | |
|---|---|--------------------------------------|-----------------------|----------------------|-----------------------|
| | | Auditoriya o'quv yuklamasi | | | |
| | | jam'i | jumladan | | |
| | | | Nazariy mashg'ulot | Amaliy mashg'ulot | Ko'chma mashg'ulot |
| 1 | Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma'muriyatichiligi tizimining ilmiy-uslubiy asoslari va ahamiyati | 6 | 2 | 4 | |
| 2 | O'zbekiston Respublikasida soliq ma'muriyatichiligi: muammolar va istiqboldagi vazifalar | 8 | 4 | 4 | |
| 3 | O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarda davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilar bilan ishlar va nazoratini tashkil qilishning xususiyatlari | 6 | 2 | 4 | |
| | Jami: | 20 | 8 | 12 | |

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma'muriyatichiligi tizimining ilmiy-uslubiy asoslari va ahamiyati

«Yoshlarni qo'lllab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da Soliq ma'muriyatichiliginin takomillashtirishning ustuvor vazifalar va ularni amalga oshirishning nazariy, amaliy asoslari. Soliq ma'muriyatichiligi tizimini vujudga kelishining iqtisodiy shart-sharoitlari.

Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq ma'muriyatichiliginin mohiyati va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Soliq ma'muriyatichiligi asosiy yo'naliishlari: mamlakatda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma'muriyatichiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar. Soliq ma'muriyatichiligi ni tashkil etishda maxsus dasturiy mahsullarni ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tarkibi va tuzilishi. Soliq ma'muriyatichiligi yanada takomillashtirish maqsadida soliq organlarini modernizatsiyalashning asosiy yo'naliishlari. Davlat soliq xizmati organlarining funktsiyalari. Soliq ma'muriyatichiligi tizimida davlat soliq xizmati organlari bilan boshqa organ va tashkilotlarning o'zaro hamkorligi.

2-mavzu. O'zbekiston Respublikasida soliq ma'muriyatichiligi: muammolar va istiqboldagi vazifalar.

Soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqartirish, xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish, soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirish, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, davlat soliq xizmati organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish.

Soliq va soliq rejimlarini bixillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, soliq yukini (kamaytirish va baravarlashtirish) optimallashtirish, soliq imtiyozlarining samaradorlik darajasini baholash asosida ularni taqdim etishning aniq mezon va mexanizmlarini belgilash, soliq va buxgalteriya hisobi o'rtasida farqni imkon qadar kamaytirish, joylardagi davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining byudjetning daromad qismini shakllantirishda rolini kuchaytirish va hissasini oshirish, xorijiy davlatlar tajribasi hisobga olingan holda, tavakkalchiliklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamenti qisqartirish, soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashishiga) ko'maklashish, Transfert narxni belgilash sohasida soliq ma'muriyatchiligining yangi uslublarini joriy etish.

3-mavzu. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarda davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilar bilan ishlar va nazoratini tashkil qilishning xususiyatlari.

Soliq ma'muriyatchiligi soliq targ'iboti va axborot-maslahat xizmati. Soliq to'lovchilar bilan ishlashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish. Soliq madaniyatini oshirish. Soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turlari. Soliq to'lovchilarni qabul qilishni tashkillashtirish. Soliq qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish masalalari.

Xorijiy mamlakatlarda soliq ma'muriyatchilagini tashkil etilishi. Xorijiy mamlakatlarda soliq munosabatlarini shakllanganligi. Soliq ma'muriyatchiligi asosiy sub'ektlari va ularning funktsiyalari. Soliq to'lovchilar bilan ish tashkil qilishning xususiyatlari. Soliq organlari nazorat faoliyatini tashkil qilishning shakllari va usullari. Soliqqa oid xuquqbuzarlik uchun javobgarlik choralar. Xorijiy mamlakatlarda soliq ma'muriyatchilagini samarali tashkil etish tajribasidan mamlakatimiz soliq ma'muriyatchilagini yanada takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish masalalari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot:

Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma'muriyatchiligi tizimining ilmiy-uslubiy asoslari va ahamiyati

«Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da Soliq ma'muriyatchilagini takomillashtirishning ustuvor vazifalar va ularni amalga oshirishning nazariy, amaliy asoslari. Soliq ma'muriyatchiligi tizimini vujudga kelishining iqtisodiy shart-sharoitlari.

Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq ma'muriyatichiliginin mohiyati va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Soliq ma'muriyatichiligi asosiy yo'naliishlari: mamlakatda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma'muriyatichiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar. Soliq ma'muriyatichiligi ni tashkil etishda maxsus dasturiy mahsullarni ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tarkibi va tuzilishi. Soliq ma'muriyatichiligi yanada takomillashtirish maqsadida soliq organlarini modernizatsiyalashning asosiy yo'naliishlari. Davlat soliq xizmati organlarining funktsiyalari. Soliq ma'muriyatichiligi tizimida davlat soliq xizmati organlari bilan boshqa organ va tashkilotlarning o'zaro hamkorligi.

2- amaliy mashg'ulot:

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'muriyatichiligi: muammolar va istiqboldagi vazifalar.

Soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqartirish, xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish, soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirish, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, davlat soliq xizmati organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish.

Soliq va soliq rejimlarini birxillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, soliq yukini (kamaytirish va baravarlashtirish) optimallashtirish, soliq imtiyozlarining samaradorlik darajasini baholash asosida ularni taqdim etishning aniq mezon va mexanizmlarini belgilash, soliq va buxgalteriya hisobi o'rtasida farqni imkon qadar kamaytirish, joylardagi davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining byudjetning daromad qismini shakllantirishda rolini kuchaytirish va hissasini oshirish, xorijiy davlatlar tajribasi hisobga olingan holda, tavakkalchiliklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamini qisqartirish, soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashishiga) ko'maklashish, Transfert narxni belgilash sohasida soliq ma'muriyatichiligining yangi uslublarini joriy etish.

3- amaliy mashg'ulot:

O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarda davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilar bilan ishlar va nazoratini tashkil qilishning xususiyatlari.

Soliq ma'muriyatichiligi soliq targ'iboti va axborot-maslahat xizmati. Soliq to'lovchilar bilan ishlashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish. Soliq madaniyatini oshirish. Soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turlari. Soliq to'lovchilarni qabul qilishni tashkillashtirish. Soliq qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish masalalari.

Xorijiy mamlakatlarda soliq ma'muriyatichiligi tashkil etilishi. Xorijiy mamlakatlarda soliq munosabatlarini shakllanganligi. Soliq ma'muriyatichiligi asosiy sub'ektlari va ularning funktsiyalari. Soliq to'lovchilar bilan ish tashkil qilishning xususiyatlari. Soliq organlari nazorat faoliyatini tashkil qilishning shakllari va usullari. Soliqqa oid xuquqbuzarlik uchun javobgarlik choralar. Xorijiy mamlakatlarda soliq ma'muriyatichiligi samarali tashkil etish tajribasidan mamlakatimiz soliq ma'muriyatichiligi yanada takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish masalalari.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniлади:

davra suhbatlari (ko'rileyotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Keng ko'lamli suhbat. Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.

Press-konferentsiya. Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim.

Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) echish. Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lgan, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo'nalishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va

kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.

7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lif to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

8. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-508-son Qonuni

9. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrdagi «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi O'RQ-589-son qonuni

10. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2014 y., 36-son

11. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. (Yangi tahriri) Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son)

12. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018 y., 1-son

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabr O'zbekiston Respublikasining «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4555-son qarori

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 mart "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli Farmoni

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 aprel "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-sonli Farmoni qabul qilindi

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 may "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5996-sonli Farmoni

26. 2020 yil —«Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Kuch-adolatda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining huquqiy gazetasi. 2020 yil 25 yanvar. № 3-4 (777)

Sh. Maxsus adabiyotlar

27. Abdraxmanova G.I., Vishnevskiy K.O., Goxberg L.M. i dr.; Tsifrovaya ekonomika: 2019: kratkiy statisticheskiy sbornik / Nats. issled. un-t «Vissaya shkola ekonomiki». – M.: NIU VShE, 2019. – 96 s

28. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

29. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2019. - 336 b

30. Gadoev E. va boshqalar. Bilvosita soliqlar: QQS, Aktsiz solig'i. O'quv qo'llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 bet.

31. Gadoev E. va boshqalar. Foyda solig'i. O'quv qo'llanma. - T.: Norma, 2011.- 408 b.

32. Gadoev E. i dr. Uproshchyonnaya sistema nalogoooblojeniya. Uchebno-prakticheskoe posobie. - T.: Norma, 2011.- 324 str.

33. Gadoev E.F. Nalog na doxodi fizicheskix lits. Uchebnoe posobie -T.: Norma, 2011. - 312 str.

34. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
35. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamlı iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 447 bet.
36. Ibraymov A.E. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
37. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoleeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
38. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
39. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
40. Obrazovanie v tsifrovyyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
41. Oliy ta'lim tizimini raqamlı avlodga moslashtirish kontseptsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
42. S.Xudoyqulov, Sh.Babaev. Soliq tushumlari hisobi va prognozi. Darslik. T.: Iqtisodiyot. 2019.-305 b.
43. Sanakulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni solikka tortish. O'quv qo'llanma. -T.: Noshir, 2012. - 236 b.
44. Sovremennie obrazovatelnie texnologii: pedagogika i psicho-logiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo TsRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
45. O'zbekiston Soliq tizimi Mustaqillik yillarda. Rasmiy nashr. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2011. – 150 b.
46. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
47. Alimardanov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik.-T.: «Cho'lpon nomidagi NMIU», 2014. -218 bet.
48. Djurayeva K. Soliq tizimida dasturiy mahsullar. 2-qism “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi – yuridik shaxslar” dasturiy majmuasi. O'quv qo'llanma. -T.: El_press, 2013. -141 b.
49. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
50. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
51. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
52. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
53. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

54. Vahobov.A.V, Jo`rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.

IV. Internet saytlar


55. www.lex.uz- O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
56. www.edu.uz- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
57. www.aci.uz- O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi.
58. www.ictcouncil.gov.uz- Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash.
59. www.bimm.uz- O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinuviga.

Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi



Bahs

Bahs – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning dalilagini, tushunchalar va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so'zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyilagini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo'shgan hissasi to'g'risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

«Aqliy hujum»


Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo'roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.


Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbولي va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o'qib-o'rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish, fikrlash inertsiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini engish.


- **To'g'ridan-to'g'ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko'proq fikrlar yig'ilishini ta'minlaydi. Butun o'quv guruhi (20 kishidan ortiq bo'limgan) bitta muammoni hal etadi.
- **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlarga bo'lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.
- Har bir guruuh ichida umumiy muammoning bir jihatni hal etiladi.

Ko'rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar





Venn diagrammasi



SWOT-tahlil jadvali

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;


Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko’ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog’liq bo’lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog’liq bo’ladi. Uni qo’llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

“Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o’qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to’siqlar joylashtiriladi.

Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta'siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo'ladi.

So'ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni engib o'tish vositalari strelka ko'rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o'ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo'lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo'laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|---|---|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash |
| 2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash |
| 4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish |

Keys.

Amaliy vaziyat. Ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtaida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rilash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'rilaysiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslahatimiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma'muriyatchiligi tizimining ilmiy-uslubiy asoslari va ahamiyati (2 soat)

Reja

1. Iqtisodiyotimizning yanada jadal rivojlanishida soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning iqtisodiy shart-sharoitlari
2. Soliq ma'muriyatchiligini tashkil qilishning nazariy asoslari
3. Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirishda Davlat soliq ma'murchiligi bosqichlari: rejalashtirish, prognozlashtirish, soliqlar orqali tartibga solish, soliq nazorati
4. Soliq siyosatida Soliq ma'muriyatchiligining asosiy yo'nalishlari

Kalit so'zlar: Soliq ma'muriyatchiligi, soliq ma'murchiligi funktsiyalari, tadbirkorlik, sanoat tarmog'i, fermer xo'jaliklari, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish, yalpi, tovar mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, foyda

1. Iqtisodiyotimizning yanada jadal rivojlanishida soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning iqtisodiy shart-sharoitlari

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining ishlab chiqarishning modernizatsiyalashuvi sharoitida soliqlar vositasida bir tomondan tartibga solish ikkinchi tomondan esa rag'batlantrish hamda ikkala jarayonni to'g'ri tashkil eta olish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarimiz faoliyatining bozor munosabatlarining iqtisodiy talablariga moslashishida, ularning bosqichma-bosqich rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishi va unda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan keyingi yillarda soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalar berish, ayrim yo'nalishlar bo'yicha soliq solish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi ushbu tizimning samarali faoliyat ko'rsatishiga bog'liq. O'z navbatida, soliq tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi esa mamlakatda soliq ma'murchiligi qanday tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi. Yuqoridaq sabablarga ko'ra, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda soliq ma'murchiligi masalalariga alohida e'tibor berilayotganligi bejiz emas.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti printsiplariga javob

beradigan soliq tizimining shakllanganligi, O'zbekiston Respublikasi yangi Soliq kodeksining qabul qilinganligi, soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodlari va mexanizmlarining joriy etilganligi, soliq organlari yaxlit tizimining yaratilganligi bozor infratu- zilmasini shakllanishi va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda muhim rol o'yamoqda. Biroq, mamlakatimiz amaliyoti va ilg'or xorij tajribasining chuqur tahlili respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilishning zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki, tahlillarning ko'rsatishicha, soliq organlarining funktsiyalari, vakolatlari va tuzilmasi zamonaviy talablarga to'liq javob beraolmayapti, ular fiskal-moliya organlari tuzilmasida, eng avvalo, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish Davlat byudjeti daromadlar qismini barqaror shakllantirishning belgilangan topshiriqlarini bajarish masalalarida hali etakchi o'rinni egallagani yo'q.

2. Soliq ma'muriyatichilagini tashkil qilishning nazariy asoslari

Mamlakat aholisi, shuningdek, xo'jalik sub'ektlari soliq ma'murchiligi to'g'risida aniq va to'liq tasavvurga ega emas. Iqtisodiy adabiyotda soliq ma'murchiligi xususida turlicha iqtisodiy qarashlar mavjud. Shuningdek, mamlakatimizda soliq ma'murchiligining tashkil etishning hozirgi holatini baholash ehtiyoji vujudga kelmoqda. Yuqorida masalalarga anqlik kiritmasdan turib, soliq ma'murchiligini samarali tashkil etish va uni takomillashtirishni amalga oshirib bo'lmaydi.

Yuqorida keltirib o'tilgan holatlarning barchasi tanlangan disser-tatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi, ushbu mavzuda mustaqil, maxsus chuqur ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Soliq ma'murchiligining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan dastlabki ishlar rossiyalik iqtisodchi olimlar Burtsev D.G., Grunina D.K., Gorskiy I.V., Dadashev A.Z., Dukanich L.V., Mironova O.A., Xanafeev F.F. va boshqalar tomonidan amalga oshirilib, ularda Rossiya Federatsiyasidagi soliq ma'murchiligiga tegishli bo'lgan holatlar o'z aksini topmoqda¹.

O'zbekistonda soliq ma'murchiligining ayrim amaliy jihatlari O.Q.Abdurahmonov, M.I.Almardonov, A.V.Vahobov, A.S.Jo'raev, J.R.Zaynalov, O.K.Iminov, T.S.Malikov, O.O.Olimjonov, B.E.Toshmurodova, Sh.A.Toshmatov, Q.A.Yah'yoev, N.R.Qo'zieva, N.H.Haydarov va boshqalarning ilmiy ishlarida² tahlil

¹ Миронова О.А., Ханафеев Ф.Ф. Налоговое администрирование. Учебное пособие. М.: изд-во Омега Л.,2005. – 408 с.; Грунина Д.К. Основы налогового администрирования. – М.: ФА при Правительстве РФ, 2003.– 148 с.; Дадашев А.З., Лобанов А.В. Налоговое администрирование в Российской Федерации. – М.: Книжный мир, 2002. – 202 с.; Бурцев Д.Г. Изменения в налоговом администрировании в условиях модернизации налоговых органов // Налоговый вестник. 2002. № 1. С.23-27.

² Вахобов А.В., Жўраев А.С. Соликлар ва соликқа тортиш / Дарслик. – Т.: Шарқ, 2009. – 448 б.; Вахобов А. ва бошк. Бюджет-солик сиёсати яхлитлиги. Ўқув кўлланма. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2005. – 480 б.; Жўраев А., Мейлиев О., Сафаров Ф. Солик назарияси. – Т.: ТМИ, 2004. -210 б.; Зайналов Ж.Р. Соликлар ва соликқа тортиш. – С.: СКИ, 2002. – 366 б.; Иминов О.К., Тўраев Ш.Ш. Соликқа тортишни таҳлил этишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: “Akademiya”, 2005. – 130 б.; Маликов Т.С. Соликлар ва соликқа тортишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: “Академия”, 2002. – 202 б.; Маликов Т.С., Жалилов П.Т. Бюджет-солик сиёсати. – Тошкент: “Академиашр”, 2011. – 472 б.; Тошмуродова Б. Солик муносабатларини оптималлаштириш. Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2005. – 265 б.; Тошмуродова Б. Соликлар воситасида иктисадиётни бошқариш механизми / Монография. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 128 б.; Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда соликлар роли / Монография. – Т.: Фан ва технология, 2008. – 204 б.; Яҳъёев Қ.А. Соликқа тортиш назарияси ва

qilingan. Biroq, ushbu masala hozirga qadar ilmiy tadqiqotchilar tomonidan mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etilmagan. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda soliq ma'murchiliginini yanan samarali tashkil etish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, uni amalga oshirish lozim.

Soliq ma'murchiligining iqtisodiy mohiyatini aniqlashda quyidagi holatlarga e'tibor berish lozim. a) soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir. b) soliq ma'murchiligi davlat soliq siyosatini amalga oshirilishini ta'minlaydi va shunga xizmat qiladi. v) soliq ma'murchiligi soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turadi; g) soliq ma'murchiligi soliq huquqining qoidalariga asoslanadi, ularni o'ziga xos tarzda to'ldiradi, uni nazariy va amaliy nuqtai-nazardan soliq mexanizmining o'ziga xos sterjeni sifatida talqin etish mumkin; d) soliq munosabatlari soliq ma'murchiligi predmetini tashkil etadi; e) soliq ma'murchiligi mohiyati, konkret holda, u tomonidan bajarilishi mumkinbo'lgan funktsiyalar orqali namoyon bo'ladi.

Soliq ma'murchiligining mohiyatini aniqlashda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning printsiplari muhim rol o'ynaydi. Ushbu printsiplarni uch guruhga bo'lish mumkin: 1) soliqqa tortish jarayonlarini ma'muriy boshqarishni o'zida aks ettiruvchi tashkiliy printsiplar (umumiylilik, tenglilik, o'zgaruvchanlik); 2) soliqlarning iqtisodiy printsiplar (samaradorlilik, tejamkorlilik, teng taqsimlanish); 3) soliq munosabatlarining qonun nuqtai nazaridan aniqligini ko'rsatuvchi printsiplar (birlik-yagonalik, barqarorlik, aniqlilik).

Fikrimizcha, soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi ta'rifi ushbu jarayonda e'tiborga qaratilishi kerak bo'lgan barchaholatlarni hisobga olishi zarur. Yuqorida keltirilgan holatlarni hisobga olib soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Soliq huquqi qoidalariga tayangan holda soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan, soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi soliq munosabatlarini boshqarish tizimiga soliq ma'murchiligi deyiladi".

Bizningcha, soliq ma'murchiligi mazmun-mohiyatini yanada to'laroq ifodalash maqsadida unga berilgan yangi ta'rifda oldingi ta'riflardan farqli o'laroq, yana ikki holatga e'tibor berilgan va ular yangi ta'rifda inobatga olingan. Bu, birinchidan, soliq ma'murchiligining soliq huquqi qoidalariga tayanishi bo'lsa, ikkinchidan, uning soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qilishidir.

Soliq ma'murchiligi ma'lum ma'noda, bevosita boshqaruvgaga daxldor bo'lганligi uchun unga boshqaruvgaga tegishli bo'lган barcha funktsiyalar xosdir.

Shuning uchun ham, soliq ma'murchiligi funktsiyalarini tarkibiga, umumiylarini, quyidagilarni kiritish mumkin: a) rejalahshtirish; b) hisobga olish;

v) nazorat; g) tartibga solish. Biroq, soliq ma'murchiligi funktsiyalarining bu tarzda ifodalanishi, fikrimizcha, mavhum bo'lib, uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini mutlaqo ifoda etmaydi. Shuning uchun soliq ma'murchiligi funktsiyalarida uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari aniq aks ettirilishi va bu

funktsiyalarning faqat soliq ma'murchiligidagi xos ekanligi aniq ko'rinishi lozim. Agar soliq ma'murchiligineng avvalo soliq munosabatlarini boshqarish tizimi ekanligi hisobga olinadigan bo'lsa, u holda uning funktsiyalarini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin: 1) soliq munosabatlarini rejalashtirish; 2) soliq munosabatlarini hisobga olish; 3) soliq munosabatlarini nazorat qilish; 4) soliq munosabatlarini tartibga solish.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatishicha soliq ma'murchiligin samarali tashkil etish va uni takomillashtirish nuqtai-nazaridan, shu joyda qator muammolar mavjud. Fikrimizcha, dastlabki muammo sifatida soliq salohiyati jumladan, xududlarning soliq salohiyati etarli darajada to'g'ri bashoratlanmayotganligi va baholan mayotganligini ko'rsatish mumkin. Bu, o'z navbatida, byudjet tizimining turli darajalarida soliq tushumlarining rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga, mintaqalarning soliq faolligi darajasi va soliq imkoniyatlarini aniqlash, taqqoslash va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini etarli darajada tavsiflash imkonini bermayapti. Ushbu holatni turli soliqlar bo'yicha soliq tushumlarining mamlakatimiz, jumladan, alohida olingan ma'muriy hududlar bo'yicha rejalashtirilishi va ushbu ko'rsatkichlarning hisobot davrida bajarilishini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar yaqqol ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda soliq ma'murchiligin samarali tashkil etish va uni takomillashtirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda masalaning shu jihatiga jiddiy e'tibor bermoq lozim. Buning uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirish lozim:

- soliqlarni byudjetga yillar bo'yicha undirilish rejalarining bajarilishida O'zbekiston Respublikasi va uning ma'muriy hududlari bo'yicha noreal, etarlicha asoslanmagan, sub'ektiv omillarning ta'sirida tuzili-shiga yo'l qo'ymaslik kerak;
- soliq tushumlari bo'yicha tuzilgan rejalarining mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish rejalarini bilan uzviy ravishda bog'liqligini ta'minlash lozim;
- mamlakat va uning ma'muriy hududlari miqyosida soliqlarni soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga o'z vaqtida to'lamaslik, moliya-byudjet- to'lov intizomiga rioga qilmaslik hollarining sodir etilayotganligiga chek qo'yish zarur;
- soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish, soliqqa tortish bazasini ongli ravishda noto'g'ri belgilash, tegishli soliq stavkalarini noto'g'ri qo'llash holatlarining oldini olishga erishmoq kerak;
- aksariyat hollarda ob'ektiv sabablar va kelgusi davrlarda vujudga kelishi mumkin bo'lган murakkab moliyaviy vaziyatni inobatga olmagan holda doimo byudjet manfaatlarining birinchi o'ringa qo'yilaverishiga chek qo'yish zarur

3. Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirishda Davlat soliq ma'murchiligi bosqichlari: rejalashtirish, prognozlashtirish, soliqlar orqali tartibga solish, soliq nazorati

Soliq ma'murchiligin qitishodiy mohiyatini aniqlashda quyidagi holatlarga e'tibor berish lozim. a) soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir. b) soliq ma'murchiligi davlat soliq siyosatini amalga oshirilishini ta'minlaydi va

shunga xizmat qiladi. v) soliq ma'murchiligi soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turadi; g) soliq ma'murchiligi soliq huquqining qoidalariga asoslanadi, ularni o'ziga xos tarzda to'ldiradi, uni nazariy va amaliy nuqtai-nazardan soliq mexanizmining o'ziga xos sterjeni sifatida talqin etish mumkin; d) soliq munosabatlari soliq ma'murchiligi predmetini tashkil etadi; e) soliq ma'murchiligi mohiyati, konkret holda, u tomonidan bajarilishi mumkinbo'lgan funktsiyalar orqali namoyon bo'ladi.

Soliq ma'murchiliginin mohiyatini aniqlashda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning printsiplari muhim rol o'ynaydi. Ushbu printsiplarni uch guruhga bo'lish mumkin: 1) soliqqa tortish jarayonlarini ma'muriy boshqarishni o'zida aks ettiruvchi tashkiliy printsiplar (umumiylilik, tenglilik, o'zgaruvchanlik); 2) soliqlarning iqtisodiyatiga ta'sirini o'zida ifodalaydigan iqtisodiy printsiplar (samaradorlilik, tejamkorlilik, teng taqsimlanish); 3) soliq munosabatlarining qonun nuqtai nazaridan aniqligini ko'rsatuvchi printsiplar (birlik-yagonalik, barqarorlik, aniqlilik).

Fikrimizcha, soliq ma'murchiliginin mazmun-mohiyatini ifodalovchi ta'rifi ushbu jarayonda e'tiborga qaratilishi kerak bo'lган barchaholatlarni hisobga olishi zarur. Yuqorida keltirilgan holatlarni hisobga olib soliq ma'murchiliginin mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Soliq huquqi qoidalariga tayangan holda soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan, soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi soliq munosabatlarini boshqarish tizimiga soliq ma'murchiligi deyiladi".

Bizningcha, soliq ma'murchiligi mazmun-mohiyatini yanada to'laroq ifodalash maqsadida unga berilgan yangi ta'rifa oldingi ta'riflardan farqli o'laroq, yana ikki holatga e'tibor berilgan va ular yangi ta'rifa inobatga olingan. Bu, birinchidan, soliq ma'murchiliginin soliq huquqi qoidalariga tayanishi bo'lsa, ikkinchidan, uning soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qilishidir.

Soliq ma'murchiligi ma'lum ma'noda, bevosita boshqaruvga daxldor bo'lganligi uchun unga boshqaruvga tegishli bo'lgan barcha funktsiyalar xosdir.

Shuning uchun ham, soliq ma'murchiligi funktsiyalarini tarkibiga, umumiylarida uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini mutlaqo ifoda etmaydi. Shuning uchun soliq ma'murchiligi funktsiyalarida uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari aniq aks ettirilishi va bu funktsiyalarning faqat soliq ma'murchiligiga xos ekanligi aniq ko'rinishda ifodalash mumkin: a) rejalashtirish; b) hisobga olish;

v) nazorat; g) tartibga solish. Biroq, soliq ma'murchiligi funktsiyalarining bu tarzda ifodalanishi, fikrimizcha, mavhum bo'lib, uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini mutlaqo ifoda etmaydi. Shuning uchun soliq ma'murchiligi funktsiyalarida uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari aniq aks ettirilishi va bu funktsiyalarning faqat soliq ma'murchiligiga xos ekanligi aniq ko'rinishda ifodalash mumkin: 1) soliq munosabatlarini rejalashtirish; 2) soliq munosabatlarini hisobga olish; 3) soliq munosabatlarini nazorat qilish; 4) soliq munosabatlarini tartibga solish.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatishicha soliq ma'murchiligin samarali tashkil etish va uni takomillashtirish nuqtai-nazaridan, shu joyda qator muammolar mavjud. Fikrimizcha, dastlabki muammo sifatida soliq

salohiyati jumladan, xududlarning soliq salohiyati etarli darajada to'g'ri bashoratlanmayotganligi va baholan mayotganligini ko'rsatish mumkin. Bu, o'z navbatida, byudjet tizimining turli darajalarida soliq tushumlarining rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga, mintaqalarning soliq faolligi darjasи va soliq imkoniyatlarini aniqlash, taqqoslash va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini etarli darajada tavsiflash imkonini bermayapti. Ushbu holatni turli soliqlar bo'yicha soliq tushumlarining mamlakatimiz, jumladan, alohida olingan ma'muriy hududlar bo'yicha rejalashtirilishi va ushbu ko'rsatkichlarning hisobot davrida bajarilishini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar yaqqol ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda soliq ma'murchiligining samarali tashkil etish va uni takomillashtirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda masalaning shu jihatiga jiddiy e'tibor bermoq lozim. Buning uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirish lozim:

- soliqlarni byudjetga yillar bo'yicha undirilish rejalarining bajarilishida O'zbekiston Respublikasi va uning ma'muriy hududlari bo'yicha noreal, etarlicha asoslanmagan, sub'ektiv omillarning ta'sirida tuzili-shiga yo'l qo'ymaslik kerak;

- soliq tushumlari bo'yicha tuzilgan rejalarining mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish rejalarini bilan uzviy ravishda bog'liqligini ta'minlash lozim;

- mamlakat va uning ma'muriy hududlari miqyosida soliqlarni soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga o'z vaqtida to'lamaslik, moliya-byudjet- to'lov intizomiga rioya qilmaslik hollarining sodir etilayotganligiga chek qo'yish zarur;

- soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish, soliqqa tortish bazasini ongli ravishda noto'g'ri belgilash, tegishli soliq stavkalarini noto'g'ri qo'llash holatlarining oldini olishga erishmoq kerak;

- aksariyat hollarda ob'ektiv sabablar va kelgusi davrlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan murakkab moliyaviy vaziyatni inobatga olmagan holda doimo byudjet manfaatlarining birinchi o'ringa qo'yilaverishiga chek qo'yish zarur

4. Soliq siyosatida Soliq ma'muriatchiligining asosiy yo'nalishlari

Mamlakatimiz iqtisodiyotining boshqa sohalari qatori soliq tizimida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq qonunchiligining tobora takomillashtirilayotgani, tizimdagи yangilik va o'zgarishlar yurtimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari 2017-2021 yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda shakllantirilganligi ta'kidlandi.

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq yukini izchillik bilan kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan.

Shu bilan birga, soliq ma'muriyatichiligi sohasida, shu jumladan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to'lovchilarining huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, xususan:

birinchidan, soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma'muriyatichiligining shaffofligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda nazorat samaradorligini, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlamayapti.

Soliq to'lovchilarining, eng avvalo, tadbirkorlik sub'ektlarining ularga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan "soliq to'lovchining shaxsiy kabineti"dan foydalanish manfaatdorligini oshirish bo'yicha faol ish tashkil etilmagan;

ikkinchidan, soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish imkonini bermayapti;

uchinchidan, soliqqa oid huquqiy munosabatlarning ahvoli va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish, soliq siyosatining o'rta muddatli va istiqbolli yo'naliшlarini ishlab chiqish, soliq solishning dolzarb muammolarini tadqiq etish, shuningdek byudjetga soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyati takomillashtirishni talab qilmoqda;

to'rtinchidan, soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, shu jumladan soliq tekshiruvi ob'ektlarining zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbazarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirmoqda;

beshinchidan, soliq nizolarini sudgacha hal etish - soliq apellyatsiyasi instituti imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmayotganligi soliq to'lovchilarining sud organlariga murojaatlari ko'payishiga olib kelmoqda;

oltinchidan, soliq solish tizimining murakkabligi va bir xil soliq solish bazasiga ega soliqlarning etarli darajada unifikatsiya qilinmaganligi, soliqkonunchiligining o'zgaruvchanligi soliq to'lovchilar tomonidan o'z soliq majburiyatlarini to'liq bajarish imkonini bermayapti;

ettinchidan, soliq organlarining Davlat byudjetiga tushumlar to'liqligini ta'minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish va soliq to'lovchilarni hisobga olish imkonini bermayapti;

sakkizinchidan, soliq to'lovchilarining soliqlarni to'lash bo'yicha o'z konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan, ayniqsa, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni takomillashtirish talab etiladi;

to'qqizinchidan, bozorlar va savdo komplekslari faoliyati ustidan samarali soliq nazorati o'rnatilmaganligi mahalliy byudjetlarni to'ldirish uchun mavjud rezervlarni

to'liq safarbar qilish, shuningdek naqd pul mablag'larining kafolatli qaytishini ta'minlamayapti;

o'ninchidan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish ko'rsatkichlarini yaxshilash, korruptsiya ko'rinishlarini profilaktika qilish, shuningdek soliqorganlarida xizmat qilishga halol va yuqori malakali kadrlarni jalg etish maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasidagi](#) soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliqma'muriyatichiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari hisoblansin:

birinchidan, soliq ma'muriyatichiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirdorlik sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

ikkinchidan, soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan ishonchli axborotni o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish;

uchinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbazarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

to'rtinchidan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob'ektlarini to'liqqamrab olishni ta'minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliqsolinadigan bazani kengaytirish;

oltinchidan, soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

ettinchidan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Soliq ma'murchiligining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Soliq tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga hamda uning samaradorligiga qanday omillar ta'sir etadi?
3. Soliq ma'muriyatchiligining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 iyuldagli PF-5116 sonli Farmoni

3. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagagi 677-son qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 avgustdagli PQ-3168 sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2017 yil 22 dekabr <http://xs.uz/>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-son qarori

7. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-454-son qonuni

8. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 30 dekabrdagi "Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-455-son qonuni

9. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi "Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-456-son qonuni

10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamlı islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: "O'zbekiston". hisobot

11. Toby Stock. Advanced in Taxation. Copyright @ 2010 y. Emerald Group Publishing limited.
12. Schanz, Deborah, Schanz, Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. © 2011
13. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogoooblojenie: Uchebnik.–7-e. izd., pererab.i dop.- Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2009. – 227 s.
14. Nalogovoe administrirovanie: uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod red. L.I. Goncharenko. - M.: KNORUS, 2009. - 448 s.
15. Panskov V.G. Nalogi i nalogoooblojenie: teoriya i praktika: uchebnik dlya vuzov / V.G. Panskov. - M.: Izdatelstvo Yurayt; ID Yurayt, 2010. - 680 s.
16. VahobovA.V., MalikovT.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.
17. Vahobov A.V, Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448- bet.

2-mavzu. O’zbekiston Respublikasida soliq ma’muriyatichiligi: muammolar va istiqboldagi vazifalar. (4 soat)

Reja

1. Soliq ma’murchiliginini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o’rni
2. O’zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo’nalishlari va ushbu yo’nalishlarda olib borilayotgan davlat siyosati

1. Soliq ma’murchiliginini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o’rni

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning harakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga boqliq bo’ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog’liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o’ynaydi. Ijtimoiy siyosat o’z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo’linadi. Iqtisodiy siyosat ham o’z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining assosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o’rinda soliq siyosatining mazmuniga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, yuqorida qayd etilganidek, **soliq siyosati** - bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo’lagi bo’lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarini amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig’indisidir.

Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtaсидagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi³.

«Soliq siyosatining vazifasi - bir tomondan, davlat byudjeti daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchidan, korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat»⁴ deb muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov alohida ta'kidlab o'tgan.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarda O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagи «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi (1991 yil 15 fevral), «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi (1993 yil 7 may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa, ayrimlarining huquqiy bazasini kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashga majburdirlar»⁵. Shuningdek respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlalar keltirilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir».⁶

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ❖ mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va majburiy to'lovlarini qonuniy joriy etish;
- ❖ amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- ❖ soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- ❖ soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

³ E.Gadoev. N. Kuzieva. N. Ashurova. "Soliq siyosati strategiyasi" o'quv qo'llanma 83b

⁴ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: «O'zbekiston», 1998. 52-b

⁵ O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi T «Adolat» 2016 yil 51-modda.

⁶ O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi T «Adolat» 2016 yil 132-modda

Yuqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, ya’ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtai-nazaridan olib qaraladigan bo’lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo’linadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qo’mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat hokimiyatining barcha bo’g’inlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta’minlanadi: Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo’lgan qonunlar qabul qilinadi, o’zgartirish va qo’shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bog’liqdir. Ijro hokimiyati bo’lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo’linmalari, Davlat Soliq qo’mitasi, Moliya Vazirligi, Adliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo’li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to’lovlarining ishslash mexanizmini ta’minlashga xizmat qiluvchi huquqiy me’yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta’minlanadi. Bunda albatta ijro hokimiyatining bir bo’g’ini hisoblangan Davlat soliq qo’mitasining soliq siyosati ijrosini ta’minlashdagi alohida o’ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to’lovlar bo’yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o’zgartirishlar kiritish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bo’g’inlari bilan birga sud hokimiyatining bo’g’inlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to’lovlarining o’z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o’rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo’llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek, uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug’ullanmaydigan sub’ektlar, aniqrog’i soliq to’lovchilar qatnashishi mumkin, ya’ni bunda soliq to’lovchilarni o’zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishslash kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko’p jihatdan davlat apparatining turli bo’g’inlari faoliyatidagi moslashuvchanlikka bog’liq. Vakolat har bir organning spetsifik rolini belgilaydi va bir vaqtning o’zida uning boshqa organlar faoliyati bilan moslashuvini ta’minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birini hal etilishi byudjetni to’ldirish, soliq to’lovchilarning iqtisodiy va yuridik hatti-harakatlariga ta’sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo’lgan barcha davlat hokimiyati organlar faoliyatining muvofiqlashtiruvvisiz mumkin emas. Ko’pgina adabiyotlarda ta’kidlanganidek, kontseptual soliq tamoyillaridan biri davlat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda birgalikdagi ishtiroki hisoblanadi⁷.

⁷ Гадоев Э, Кузиева Н, Ашуррова Н, Ўрмонов Ж. Дарслик. Юридик шахсларни солиқка тортиш. - Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ. 2013й.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash jarayonida bir qancha o'z vakolati doirasida faoliyat yuritadigan organlar birgalikda bahamjihat ishni tashkil etishlari shart. Bu organlar faoliyat turining turlichaligi, ularni tashkil etish asoslarining farqlanishi, maqsad va vazifalarining ayrichaligi soliq munosabatlarini tashkil etishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda aktiv ishtirok etishni ta'minlash maqsadida ular faoliyatini muvofiqlashtirish va bir-biriga moslushuvchanligini ta'minlash kabi qator muammolarni hal etish zarur.

Shuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo'mitasini va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq shaxs huquqlarini ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandisi va "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida" gi qonunning 4-moddasiga muvofiq hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumatning ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruving yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati mustaqillikka erishganimizdan so'ng ancha rivojlangan bo'lsada ushbu sohada olib borilish kerak bo'lgan ishlar juda ham ko'p. Buning misoli sifatida Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 18-iyulda tasdiqlangan "Soliq ma'murchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"si PF-5116-sonli farmonini keltirish mumkin, chunki ushbu farmon bilan soliq siyosatidan quyidagi kamchiliklar asosli ravishda keltirildi:

birinchidan, soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma'muriyat chiligining shaffofligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda nazorat samaradorligini, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlamayapti.

Soliq to'lovchilarning, eng avvalo, tadbirkorlik sub'ektlarining ularga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan «soliq to'lovchining shaxsiy kabineti»dan foydalanish manfaatdorligini oshirish bo'yicha faol ish tashkil etilmagan;

ikkinchidan, soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish imkonini bermayapti;

uchinchidan, soliqqa oid huquqiy munosabatlarning ahvoli va rivojlanish tendenstiyalarini tahlil qilish, soliq siyosatining o'rta muddatli va istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish, soliq solishning dolzarb muammolarini tadqiq etish, shuningdek byudjetga soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyati takomillashtirishni talab qilmoqda;

to'rtinchidan, soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, shu jumladan soliq tekshiruvi ob'ektlarining zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirmoqda;

beshinchidan, soliq nizolarini sudgacha hal etish – soliq apellyastiyasi instituti imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmayotganligi soliq to'lovchilarning sud organlariga murojaatlari ko'payishiga olib kelmoqda;

oltinchidan, soliq solish tizimining murakkabligi va bir xil soliq solish bazasiga ega soliqlarning etarli darajada unifikastiya qilinmaganligi, soliq qonunchiligining o'zgaruvchanligi soliq to'lovchilar tomonidan o'z soliq majburiyatlarini to'liq bajarish imkonini bermayapti;

ettinchidan, soliq organlarining Davlat byudjetiga tushumlar to'liqligini ta'minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish va soliq to'lovchilarni hisobga olish imkonini bermayapti;

sakkizinchidan, soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lash bo'yicha o'z konstitustiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan, ayniqsa, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni takomillashtirish talab etiladi;

to'qqizinchidan, bozorlar va savdo komplekslari faoliyati ustidan samarali soliq nazorati o'rnatilmaganligi mahalliy byudjetlarni to'ldirish uchun mavjud rezervlarni to'liq safarbar qilish, shuningdek naqd pul mablag'larining kafolatli qaytishini ta'minlamayapti;

o'ninchidan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish ko'rsatkichlarini yaxshilash, korrupstiya ko'rinishlarini profilaktika qilish, shuningdek soliq organlarida xizmat qilishga halol va yuqori malakali kadrlarni jalb etish maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Shularni inobatga olib shuni aytish mumkinki, soliq siyosatini takomillashtirish borasida hali olib borilishi kerak bo'lgan ishlar ko'p. Bunda mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021- yillar uchun mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining Harakatlar Strategiyasi dasturil ama bo'lib xizmat qiladi.

2.O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va ushbu yo'nalishlarda olib borilayotgan davlat siyosati

Yuqorida ta'kidlanganidek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma'muriyatichiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida:

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi:

birinchidan, soliq ma'muriyatichiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

ikkinchidan, soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lган ishonchli axborotni o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish;

uchinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

to'rtinchidan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olishni ta'minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

oltinchidan, soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

ettinchidan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Ushbu maqsadlarga erishish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidentining PF-5116- sonli farmoni bilan 2018-yil 1-yanvardan quyidagilarni joriy qilish belgilandi:

soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etiladi;

yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichiligi funkstiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilar – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq ta'tillari berilishi mumkin;

o'tkazilgan kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to'lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlар summalarini sud tartibida undirish joriy etiladi;

ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to'lovchi vakolatlari organlarga murojaat etgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida amalga oshiriladi;

davlat soliq xizmati organlariga kirim hujjatlarini rasmiylashtirmsandan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qiladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini 5 bank kunigacha bo'lган muddatga vaqtinchalik to'xtatib turish vakolati beriladi;

Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida soliq organlariga hisobkitoblar haqidagi ma'lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta'minlaydigan nazoratkassa mashinalarini qo'llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etiladi, respublikaning qolgan hududlarida mazkur tizim bosqichma-bosqich kiritiladi;

soliq tekshiruvi ob'ektlarini samarali tanlab olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavflarini tahlil qilish, shuningdek soliq organlari tomonidan yuqori likvidli mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish hajmining doimiy hisobi va nazoratini amalga oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan tizim joriy etiladi;

davlat soliq xizmati organlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshiradi, natijasi bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagи "Soliq ma'muriyatichiligin takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli iaroriga muvofiq, mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma'muriyatichiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to'lash jamg'armasiga soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag'lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarini bekor qilish

va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko'rib chiqildi.

Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida:

1. tadbirkorlik sub'ektlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlikni tan olib, davlat soliq xizmati organlarining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorini olgan kundan e'tiboran o'n kun muddat ichida moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy ravishda to'lasa, tadbirkorlik sub'ektlarining mansabdar shaxslari yoki xodimlari yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar mazkur huquqbuzarlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan jinoiy va ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi.

2. 2020 yil 1 yanvardan boshlab:

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tadigan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar davlat soliq xizmati organlarida ushbu soliqning to'lovchisi sifatida majburiy hisobga olinadi va bu qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olishning sharti hisoblanadi;

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tishda ushbu soliq summasi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tilgan sanadan avvalgi oxirgi 12 oyda xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tasdiqlangan qoldiqlari bo'yicha realizatsiya hajmiga mos keladigan ulushda hisobga olinadi;

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish yoki yagona soliq to'lovini to'lashni rad etish to'g'risidagi xabarnoma qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tiladigan oy boshlanishidan oldin o'n ish kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish strategiyasi qabul qilindi unga muvofiq;

Soliq tizimi iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga erishishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lishi qayd etildi.

2018 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhitni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishni davom ettirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, soliq tizimida ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq islohotlarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar ko'rsatib berildi:

birinchidan, soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish printsiplari eskirgan bo'lib, soliq to'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatishni, shuningdek ular tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini ta'minlamayapti;

ikkinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda ma'muriy xarajatlar (sarflanadigan vaqt va mablag') darajasi yuqori bo'lib qolmoqda;

uchinchidan, soliq sohasida imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlar mavjud emas;

to'rtinchidan, xufiyona iqtisodiyot darajasini qisqartirishga qaratilgan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag'batlantiruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlari mukammal emas;

beshinchidan, soliq to'lovchi bilan soliq organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi yagona standart va dasturiy mahsulotlar mavjud emas;

oltinchidan, soliq hisobi sifatini pasaytiradigan, soliq bazasining kengayishi va barqaror soliq tushumlarini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan idoralararo axborot hamkorligi sust yo'lga qo'yilgan;

ettinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida hamda soliq organlari xodimlari faoliyatini baholashda tizimli kamchiliklar mavjud.

Ushbu kamchilik va muammolar soliq tizimini jadal rivojlantirish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish hamda soliqlar va majburiy to'lovlarning talab darajasida yig'ilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi maqsad, vazifa va asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

1. Strategyaning asosiy maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida tadbirkorlik sub'ektlari va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, soliq solish jarayonlarini avtomatlashtirgan holda, davlat soliq organlarida zamonaviy yo'naltirilgan servis soliq xizmatlari ko'rsatishni tashkil qilish hisoblanadi.

2. Strategyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat byudjetiga soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash;

soliq organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish va soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ko'rsatilayotgan soliq xizmatlari sifatini yaxshilash;

barcha toifadagi soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy ravishda bajarish asosida ularning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish;

soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni qisqartirish, barcha toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga qulay sharoitlarni ta'minlaydigan transparent va barqaror soliq tizimini shakllantirish;

soliq to'lovchilar faoliyatiga aralashishni, shuningdek, davlat soliq xizmati organlarida «inson omili»ni hamda korruptsiya holatlarining salbiy ko'rinishlarini kamaytirish imkonini beradigan tavakkal-tahlil va masofaviy tahliliy ishlar tizimi asosida soliq nazorati tizimini shakllantirish.

Belgilangan vazifalarning bajarilishi biznes faolligini oshirish va soliq majburiyatini bajarish bo'yicha ma'muriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi va bu, o'z navbatida, Jahon bankining biznes yuritish reytingida respublika pozitsiyalariga ijobjiy ta'siri ko'rsatadi.

Strategyaning asosiy yo'nalishlari

SOLIQ SIYoSATINI TAKOMILLAShTIRISH VA IQTISODIYoTDA XUFIVoNA AYLANMA DARAJASINI QISQARTIRISH

1. Soliq va soliq rejimlarini bixillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish.
2. Soliq yukini (kamaytirish va baravarlashtirish) optimallashtirish.
3. Soliq imtiyozlarining samaradorlik darajasini baholash asosida ularni taqdim etishning aniq mezon va mexanizmlarini belgilash.
4. Soliq va buxgalteriya hisobi o'rtasida farqni imkon qadar kamaytirish.
5. Joylardagi davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining byudjetning daromad qismini shakllantirishda rolini kuchaytirish va hissasini oshirish.
6. Xorijiy davlatlar tajribasi hisobga olingan holda, tavakkalchiliklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamenti qisqartirish.
7. Soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashishiga) ko'maklashish.
8. Transfert narxni belgilash sohasida soliq ma'muriyatichiligining yangi uslublarini joriy etish.
9. 2021 yilga kelib jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lovchilarni 1,5 baravar, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilarni 2 baravar hamda resurs soliqlari va mol-mulk solig'i to'lovchilarni 2 baravar ko'paytirish.

XIZMAT KO'RSATISHGA YO'NALTIRILGAN SOLIQ XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

1. Soliq to'lovchilar soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishi uchun ularga kulay shart-sharoitlarni yaratib berish.
2. Birlamchi hisob hujjalarni raqamlashtirish va bixillashtirish hamda soliq hisobotlari shakllarini soddalashtirish.
3. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning eksterritorial printsipini rivojlantirish.
4. Soliq xizmatlari sifatini va soliq organlari faoliyatini jamoatchilik tomonidan mustaqil baholash (teskari aloqa) mexanizmini yaratish.
5. Soliq organlari faoliyatining shaffofligi va soliq solish sohasidagi ma'lumotlarning ochiqligi.
6. Soliq nizolarini sudgacha hal qilish tizimini rivojlantirish.
7. Korxonalarning to'lovga layoqatsizligini va ularni tugatishni hal etish tartib-taomillarini soddalashtirish (xarajatlar, vaqt va qoidalar audit).
8. Soliq maslahatchilari institutini takomillashtirish.
9. Soliq to'lovchilarga maslahat ko'rsatish xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini markazlashtirish va standartlash.

SOLIQ TAVAKKALChILIKLARINI BAHOLASH TIZIMINI JORIY QILISH VA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLAShTIRISH

1. Nazorat faoliyatini amalga oshirishda tavakkalchiliklarni tahlil qilish va boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etish.
2. Soliq nazoratining shaffofligini ta'minlash, korruptsiya omillarini kamaytirish.

3. Hududlarning soliq imkoniyatlarini baholash usullarini joriy qilish va byudjet daromadlarini prognozlashtirish.

4. Umumiy ovqatlanish va savdo sohasida, shuningdek, ko'chmas mulk bo'yicha soliq solinadigan ob'ektlarni to'liq hisobga olinishini ta'minlash.

5. Soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha etkazish.

DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATINI YANADA

TAKOMILLASHTIRISH

1. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va maslahatlar berishga yo'naltirilgan soliq organlari tashkiliy tuzilmasini yaxshilash.

2. Soliq to'lovchilarni segmentatsiyalash asosida davlat soliq xizmati organlarining eng maqbul modelini joriy etish.

3. Soliq xizmati organlarida zamonaviy biznes-tahlil (Business Intellegence) tizimini, shuningdek, strategik va protsessual boshqaruvni joriy etish.

4. Soliq xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligi ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqqan holda ularni rag'batlantirish.

5. Kadrlarni tayyorlash va tanlash tizimini takomillashtirish.

6. Soliq organlari xodimlari motivatsiyasini mustahkamlash.

7. Soliq ma'muriyatiligi jarayonini avtomatlashtirish.

Davlat soliq xizmati organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish

mexanizmlarini rivojlantirish

1. Kadrlar siyosatida korruptsiyaga qarshi komponentlarni kuchaytirish.

2. Soliq sohasida korruptsiya xavflarini nazorat qilish va ularning oldini olish tizimini joriy etish.

3. Korruptsiyaga qarshi qonunchilik talablari asosida normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish (taftish qilish).

4. Soliq organlarida shaffoflik (oshkorlik) va hisobdorlikni kengaytirish, korruptsiya ko'rinishlariga jamoatchilikda murosasizlik hissini shakllantirish.

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarda ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishi asosida:

1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sur'ati o'sishiga erishiladi.

2. O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi pozitsiyalari, shuningdek, ishbilarmonlik faolligining indeks ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

3. Soliqlarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha yalpi ichki mahsulot, daromad, qo'shilgan qiymatga nisbatan ulushi o'zgaradi.

4. Mahalliy va xorijiy investorlar o'rtasidagi soliq imtiyozlari hajmi bo'yicha tafovuti qisqarishi ta'minlanadi.

5. Soliq to'lovchilarning ma'lumotlardan foydalanishda hamda ko'rsatilayotgan servis xizmatlaridan qanoat hosil qilish darajasi oshadi.

6. Nizolarni sudga qadar hal etish ko'lami kengayadi.

7. Soliq sohasida huquqbarliklar soni kamayishiga erishiladi.

8. Soliq to'lovchilarning haqiqatdagi va taqdim etilgan ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar kamayadi.

9. Soliq tekshiruvlari soni qisqaradi.

10. Nazorat tadbirlari natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar miqdori pasayadi.

11. Soliqlarning undirilish darajasi oshadi.
12. Soliq idoralari o'rtasida hujjalarning aylanishi kamayadi, ijro intizomi oshadi, kadrlarning qo'nimsizligi bartaraf etiladi va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanadi.
13. Soliq organlari xodimlari tomonidan huquqbazarliklar sodir etish hollari bartaraf etiladi.
14. Soliq xizmatlarini standartlashtirish va tartibga solish darajasi ortadi kabi ijobiy natijalarga erishish ko'zda tutilgan.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Soliq ma'murchilagini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o'rni va ahamiyatini tushuntirib bering?
2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasida soliqlar asosida rag'batlantirish yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Soliq siyosati targ'iboti nimalarda namoyon bo'ladi?
5. O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini tushuntirib bering?

Foydalanimagan adabiyotlar

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 iyuldaggi PF-5116 sonli Farmoni

3. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagagi 677-son qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 avgustdaggi PQ-3168 sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2017 yil 22 dekabr <http://xs.uz/>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognosi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-son qarori

7. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi

munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-454-son qonuni

8. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 30 dekabrdagi “Soliq ma’muriyatichiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-son qonuni

9. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi “Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘sishcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-456-son qonuni

10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. –T.: “O‘zbekiston”. hisobot

11. Toby Stock. Advanced in Taxation. Copyright @ 2010 y. Emerald Group Publishing limited.

12. Schanz, Deborah, Schanz, Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. © 2011

13. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogoooblojenie: Uchebnik.–7-e. izd., pererab.i dop.- Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2009. – 227 s.

14. Nalogovoe administrirovanie: uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod red. L.I. Goncharenko. - M.: KNORUS, 2009. - 448 s.

15. Panskov V.G. Nalogi i nalogoooblojenie: teoriya i praktika: uchebnik dlya vuzov / V.G. Panskov. - M.: Izdatelstvo Yurayt; ID Yurayt, 2010. - 680 s.

16. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.

17. Vahobov A.V, Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448- bet.

3-mavzu. O‘zbekiston respublikasi va xorijiy mamlakatlarda davlat soliq xizmati organlarida soliq to’lovchilar bilan ishlar va nazoratini tashkil qilishning xususiyatlari (2 soat)

Reja:

1. Yaponiya davlatining tizimi va soliq siyosatining o‘ziga xos jihatlari;
2. Yaponiya soliq ma’murchiligi tarkibiy tuzilishi va soliq to’lovchilar bilan ishlash tajribasi;
3. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi va uning kontseptual asoslari;
4. Xitoy soliq tizimi shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari;

Kalit so’zlar: Xorijiy mamlakatlarda soliq ma’murchiligi, korporatsiyalardan soliq olishni tartibga solish, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish.

1. Yaponiya davlatining tizimi va soliq siyosatining o‘ziga xos jihatlari;

Yaponiya davlati soliq tizimi haqida to’xtaladigan bo’lsak, 2017-yil moliya yili Fiskal konsolidatsiyalashgan rejaning ikkinchi yilini belgilaydi. Undagi byudjetda hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish va fiskal konsolidasiyashtirishni davom ettiradi.

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida:

- Jamiyatdagi fuqarolarga yaxshi hayot tarzi yaratish maqsadidagi siyosatlar: a) bola parvarishlovchilarning va uzoq muddatli hamshiralarning oylik maoshini oshirish; b) bola parvarishi imkoniyatlarini kengaytirish ya'ni kutish ro'yxatidagi bolalar sonini kamaytirish; c) minimum pensiya olish davrini 25 yildan 10 yilga qisqartirish; d) ayollar uchun bola tug'ish davri daromadining olib turish vaqtini uzaytirish; e) ishchilar sug'urta to'lovlari kamaytirish va f) yangi davlat ta'lim grantlarini joriy qilish

- iqtisodiyotni rivojlantirishda. Xususiy va jamoat sohalari uyg'unlashuvi potentsial o'sishiga e'tibor qaratish; ilmiy tadqiqot xarajatlarini oshirish; innovastiya va yangi texnologik ishlanmalarini qo'llab quvvatlash va foydali sohalarda jamoat investistiylarini oshirish.

- ishslash sharoiti reformlari. Ish haqqini oshirish uchun moliyaviy yordamlarni ta'minlash, doimiy ta'tillarni joriy qilish va doimiy bo'limgan ishchilar uchun ish sharoitlarini oshirish

2. Fiskal konsolidatsiyalash siyosati.

- ijtimoiy himoya tizimini sog'lomlashtirish. Ijtimoiy himoya xarajatlarining o'sishini nazorat qilish (+ 500 milliard en). Adolatli soliq yuki va maqbul imtiyozlarga erishish uchun turli xil reformlar tashkil qilish. Bular orasida: 1) 70 yoshdan oshganlar uchun yuqori tibbiyot va parvarish xarajatlariga limitlarni muntazam oshirib boorish; 2) 75 yoshdan oshgan qariyalar uchun tibbiyot sug'urtasi to'lovlardagi vaqtincha discount stavkalarni hisobga olish va 3) uzoq muddatli hamshira to'lov tizimiga asoslangan yangi hioblashni joriy qilish

- davlat obligastiyalari bo'yicha. Davlat obligastiyalari bo'yicha rejalashtirilgan ko'rsatkichga (34,4 trillion en) amal qilish

Bundan tashqari Yaponiya davlatida soliq sohasidagi islohotlarga katta e'tobor qaratiladi. Hamda jamiyatda soliq madaniyati yuqori bo'lism bilan bir qatorda har bir fuqaroning soliqlani o'z vaqtida to'lash majburiyati qonuniy belgilab qo'yilgan. Jumladan, Yaponiya Konstitustiyasining 30-moddasida "Fuqarolar qonun bilan belgilab qo'yilgan soliqlarni to'lashga majburdir", 84-moddasida esa "Qonun va unga tenglashtirilgan hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlar asosida yangi soliqlar joriy qilinmaydi va undirilmaydi" kabi moddalar kiritigan.

Shu o'rinda, Yaponiya davlatining soliq tizimini nazariy o'rganishni mamlakatda qanday turdag'i soliqlar mavjudligiga oydinlik kiritib olishdan boshlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada jami bo'lib, 46 ta soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari undiriladi. Ulardan 20 tasi umum davlat soliqlari, 14 tasi mahalliy soliqlar bunda ular prefektura doirasida undiriladi. Qolgan 12 tasi shahar, tuman va qishloq doirasidagi mahalliy soliqlar. (shuni ta'kidlash lozimki, Mamlakatda 47 prefektura bo'lib, u o'z ichiga 3045 shaharlar, tumanlar va qishloqlar jamlagan hamda ularning hammasi mahalliy byudjetga ega).

Yaponiya soliq tizimini o'rganish jarayonida biz uchun notanish hisoblanuvchi perfektura va munitsipal tushunchalariga duch kelamiz. Perefekruta deganda yirik hudud nazarda tutilib, O'zbekiston misolida olib qaralganda viloyatga to'g'ri keladi. Bu degani Yaponiyada prefekturalar munisipallardan tashkil topadi. Munisipallat o'z navbatida tuman munitsipallari, shahar munitsipallari va qishloq munitsipallariga

ajraladi. Bir munitsipal shaklidan boshqasiga o'tish uchun me'zon aholi soni hisoblanadi, ya'ni agar qishloq munitsipal deyilganda aholi soni 50 mingdan kam bo'lgan prefekturaga bo'sunuvchi hududiy birlik nazarda tutiladi. Qizig'i shundaki, poytaxt Tokio shahri ham 23 ta munitsipaldan tashkil topgan.

Shu o'rinda Yaponiya davlat byudjetida asosiy o'rinda turuvchi soliqlar haqida ma'lumot berib o'tmoqchi edik.

1. Korxona foydasidasidan olindigan soliqlar. Yaponiyada korxonalar foydasiga qaratilgan soliqlarga quyidagilar kiradi:

- korporatsiya solig'i (umum davlat solig'i)
- biznes solig'i (mahalliy soliq)
- perfekatura vaa munitsipal ro'yxatda turganlik uchun soliqlar

Shuni eslatib o'tish kerakki, kichik va o'rta korxonalarga ustav kapitali 100 mln enga teng va undan kam korxonalar kiradi. Quyidagilar bundan mustasno, agar:

- Ustav kapitalning 100 foizi katta korxona tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa (bunday katta korxonaga ustav kapitali 500 mln endan yuqori bo'lган korxonalari kiradi)
- Ustav kapitalning 100 foizi ikki va undan ortiq katta korxona tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa;

Biznes solig'i odatda soliq bazasiga ega bo'lgan korxonalarda, ya'ni foyda olgan korxonalardan undiriladi. Ammo korxonaning ustav kapitali 100 mln endan yuqori korxonalardan ham undirilishi mumkin. Suv, elektr energiya ta'minotini ko'rsatuvchi korxonalar va sug'urta tashkilotlari olgan foydasidan emas belgilangan tushum doirasida to'laydilar. Biznes solig'inining stavkasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Perfekatura va munitsipal ro'yxatda turganlik uchun soliqlar ikki turdag'i mahalliy soliqlardan tashkil topgan: milliy korporatsiya daromadi asosida hisoblanadigan foyda solig'i va mahalliy korporatsiya solig'i. Maxsus stavkalar mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Korporatsiya solig'idan undiriladigan ro'yxatda turganlik uchun soliq milliy hukumat tomonidan mahalliy korporatsiya so'lig'i sifatida undiriladi ya'ni, 2014-yil oktyabrdagi soliq islohotidan keyin moliya yili uchun qishloq va shahar byudjeti o'rtasidagi tafovutni kamadirish uchun qo'llaniladi, hamda uning stavkalarii quyidagicha.

Undirilgan soliq stavkalardan kelib chiqib prefectura yoki municipal byudjetga taqsimlanadi. Bundan tashqari, mahalliy korporatsiya solig'inining stavkasi 2014-yil soliq islohotidan keyin barcha korxonalar uchun 4.4% qilib belgilandi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadiga solinadigan soliqlar

Yaponiyada Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadiga solinadigan soliqlar milliy daromad soliq hamda mahalliy ro'yxatda turganlik uchun soliqdan iborat. Milliy daromad solig'i uchun soliq solinadigan yil kaledar til hisoblanadi. Mahalliy ro'yxatda turganlik uchun soliq munitsipal hokimiyat tomonidan o'sha hududda yashavchi va daromad oluvchi jismoniy shaxslarga qo'llaniladi.

Yaponiyada shaxslarni soliq majburiyati ularning rezidentlik statusidan kelib chiqib belgilanadi. Jismoniy shaxslar quyidagi 3 ta kategoriya bo'yicha klasifikatsiyalanadi:

- Doimiy rezidentlar. Ularga Yaponiya millati vakili yoki 10 yil davr mobaynida hech bo'lmasa 5 yili davomida Yaponiyada bo'lgan nerezidentlar kiradi.
- Doimiy bo'limgan nerezidentlarga Yaponiya millati vakili bo'limgan oxirgi 10 yil ichida 5 yildan kam Yaponiyada yashagan shaxslar kiradi.
- Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan shaxslar nerezidentlar hisoblanadi⁸.

Chet el millati vakili Yaponiyaga kelishi bilan o'z ish beruvchisi bilan aniqlishtirilgan holda shartnoma tuzmasa, ya'ni bir yildan kam muddatda mamalakatda bo'lishi haqida, resident jismoniy shaxs hisoblanadi. Bundan tashqari davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama soliqqa tortmaslik kabi xalqaro sharnomalardam kelib chiqib, quyidagi talablarga javob beruvchi nerezidentlarning daromadi soliqqa tortilmaydi:

- 12 oy ketma-ketlik ichida 183 kundan kam myddatda Yaponiyada yashaganlar;
- Ularning oylik maoshlari nerezident tomonidan to'langan bo'lsa;
- Berilgan maosh Yaponiyadagi doimiy muassasa tomonidan berilmagan bo'lsa⁹;

Doimiy rezidentlar ularning chetda topgan daromadlari bilan manbasidan qat'iy nazar soliqqa tortiladi. Doimiy bo'limgan rezidentlar esa faqat Yaponiyada topgan va mamlakatda bo'limgan mambalardan to'langan hamda Yaponiyaga qaytarilgan daromadlari yuzasidan soliqqa tortiladi. Nerezidentlar esa faqat yaponiyada topgan daromadlari doirasida soliqqa tortiladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, Yaponiyada milliy daromad solig'inining stavkasi progressive stavka hisoblanadi, ya'ni eng kam stavkasi 5% ni tashkil qilib yil davomida olingen daromadning 1950 000 eni ushbu stavkaga tortiladi, eng yuqori stavkasi 45% ga teng va 40 mlndan yuqori daromadlar ushbu stavkada soliqqa tortiladi. Bundan tashqari, har yili chegirilishi mumkin bo'lgan daromad miqdori keltiriladi, ushbu xarajatlarga asosan tibbiy xarajatlar kiradi.

Mahalliy ro'yxatda turganlik uchun soliq ham o'z navbatida ikki ko'rinishda undiriladi: birinchisi, daromadidan qat'iy nazay belgilangan summada ya'ni ministripal darajada 300 en prefektura darajasida 1000 en miqdorida. Ikkinchisi, proporsional tartibda 10% stavkada.

2. Bilvosita soliqlar. Yaponiyada ushbu tartibda undiriladigan soliqlarga iste'mol solig'i, bojxona bojlari va aksiz bojlari kiradi.

Iste'mol solig'ida soliq solindigan baza mamlakat ichidagi o'tkazmalar uchun shartnomalar qiymatidan kelib chiqib aniqlansa, import qilinayotgan tovarlar uchun soliq bazasi tovarning bojxona bahosi hamda bojxona bojlari va aksiz bojlarini qo'shib hisoblanadi. Soliq stavkasi 2015- yil oktyabrdagi soliq islohotlaridan keyin 8%dan

⁸ Worldwide Personal Tax and Immigration Guide 2016-17

⁹ Taxation in Japan 2015 -KPMG Taxcorporation

10%ga oshirildi. Ushbu stavka 2017-yil 1-aprelgacha qilib belgilangan edi, ammo mamlakatdagи iqtisodiy holatdan kelib chiqib 10%lik soliq stavkasini 18 oyga kechiktirildi.

Bojxona bojlari Yaponiyada Jahon Savdo Tashkiloti tomonidan belgilangan normalar asosida tartibga solinadi. Bundan tashqari, Yaponiyada har 3-5 yilda bojxonadan tovar olib kiruvchi importorlar bojxona auditidan o'tkaziladi, qnunbuzarlik holatlari aniqlangan holatlar bundan mustasno. Bojxona auditi odatda, bojxona inspektorlari tomonodan o'tkaziladi. Bunda ular tekshiruv o'tkazish uchun tanlangan vimpotor yoki eksportordan bojxonaga oid dalolatnomalarni, yuk xalarini va boshqa hujjalarni talab qilib olish huqqiga ega. Odatda buday tekshiruv 2 oydan 6 oygacha davom etadi. Tekshiruv natijasida aniqlangan deklaratsiyaga kiritilmagan tovarga 15%, bojxona boji vaqtida to'lanmaganlariga esa 10% jarima qo'llaniladi.

Mol-mulk solig'i.

Yaponiyada mol-mulk solig'ini yuridik va jismoniy shaxslar bir xil stavka bo'yicha to'laydilar. Odatda bu mol-mulk qiymatidan 1.4 % ga teng bo'ladi, uch yilda bir marta qayta baholanadi. Soliq solish ob'ektiga butun ko'chmas mulk, bank depozitlari bo'yicha foizlari kiradi. Shu bilan birga mol-mulk solig'i mulkning bir egadoridan boshqasiga o'tayotgan paytidan, ya'ni mulkni xarid qilish va sotish paytida ham to'lanadi¹⁰.

Meros solig'i va hadya solig'i.

Yaponiya meros va hadya soliqlari Soliq Qonuni bilan tartibga solinadi. Meros solig'i merosni qabul qilib olgan va vafot etgan shaxsning merosxo'ridan undiriladi. Hadya solig'i moddiy ko'rinishda sovg'a qabul qilib olgan shaxslardan undiriladi. Hadya solig'i meros solig'ini to'ldiruvchi soliq hisoblanadi. Ikkala soliq ham umumdavalat solig'i hisoblanadi va mahalliy darajada undirilmaydi. Meros solig'ida vorisning o'zi soliqqa tortiladi, uning meros tariqasida olgan mulki emas. Meros solig'i mulkning umumiyligi qiyamatidan kelib chiqqan holda har bir merosxo'r uchun alohida-alohida hisoblanadi¹¹.

Soliqni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

- Barcha merosxo'rlardan soliqqa tortiladigan mol-mukllar jamlanadi
- "Jami soliqa tortiladigan mulkning qiymatidan" chigirilishi lozim bo'lgan ₩30 million hamda har bir meros oluvchining sonidan kelib chiqib, har biridan ₩6 milliondan chegiriladi.
- Soliqqa tortiladigan mulk qilyamati har bir soliq to'lovchining mulkka bo'lган qismi doirasida taqsimlanadi
- Quyida berilgan progressive stavka bo'yicha har bir soliq to'lovchining ulushi doirasida alohida-alohida meros solig'i hisoblanadi.

Misol. Yaponiya bir kishi o'limidan oldi xotini va ikki o'g'liga 400 mln enlik merosni qoldirdi. Bunda xotiniga 200 mln en yoki merosning 50%si, o'g'illariga 100 mln endan. Meros oluvchilar uchun meros solig'ini hisoblaymiz:

1. Ruxsat etilgan summani umumiy soliq obektidan chegiramiz, ya’ni 30 mln+6 mln*3(meros oluvchi shaxs uchu nafar bo’lganligi uchun), jami 48 mln en bo’ladi.
2. 48 mln enni meros summasining nisbatidan kelib chiqib har bir meros oluvchidan chegiriladi, ya’ni ayoldan 24 mln en o’g’illaridan 12 mln endan.
3. Har biri uchun meros solig’i hioblaymiz.

Xotiniga: $200-24= 176$ $176*40\% = 70.4$ mln en

Birinchi o’g’liga: $100-12= 88$ $88*30\% = 26.4$ mln en

Ikkinci o’g’liga: $100-12= 88$ $88*30\% = 26.4$ mln en

Jami to’lanishi kerak bo’lgan meros solig’i summasi: 123.2 mln enga teng.

Hadya solig’i hadya oluvchidan hadya bergan shaxs hayotlik vaqtida undiriladi.

Hadya solig’ining soliq solinadigan bazasi deyilganda ruxsat etilgan 1.1 mln enni chiqrib tashlangandan so’ng kalendar yil davomida olingan sovg’alar qiyamatidan kelib ciqib hisoblanadi. Hadya solig’i bo’yicha soliq stavkalari yaqin qarindoshlar o’rtasida beriladigan sovg’a bilan begona shaxslar bir-biriga beradigan hadyalar bo’yicha farqlanadi. Ushbu soliq turi bo’yicha eng past stavka 10% 2 million engacha bo’gan hadyalar uchun, eng yuqorisi 55% bo’lib, 45 milliondan yuqori bo’lgan soliq bazasiga tadqib etiladi.

2.Yaponiya soliq ma’murchiligi tarkibiy tuzilishi va soliq to’lovchilar bilan ishlash tajribasi

Milliy soliq agentligi dastlab 1949- yilda daromad, korporativ, iste’mol soliqlari va shu kabi bir qator soliqlarni undirish maqsadida Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan.

Soliq siyosati Moliya vazirligi va uning tarkibiy qismi hisoblangan Milliy soliq agentligi tomonidan yuritilib, davlat soliq xizmati idoralari ijro etuvchi organ hisoblanadi.

Xizmatning tarkibiy tuzilishi Milliy soliq agentligining markaziy apparati, 12 ta hududiy boshqarmalari va ularning 524 ta soliq inspekteysiylari, soliq kolleji hamda, soliq arbitrajidan iborat.

Milliy soliq agentligining Markaziy apparatida 683 ta (1.2%), hududiy soliq boshqarmalarida 10,8 ming nafar (19.3%), davlat soliq inspekteysiylarida 43.9 ming (78.1%), soliq kollejida 336 (0.6%), soliq arbitrajida 477 nafar (0.8%) soliq hodimlari mehnat faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.

Ta’kidlash lozimki, umum davlat soliqlarini undirish va nazorat qilish bilan milliy soliq agentligi (56.2 ming nafar hodimlar) va malliy soliqlarni undirish bilan esa Municipial davlat idoralari (84 ming nafar) shug’ullanadi.

Soliqlarni undirish, soliq tekshiruvlarini tashkil etish va soliq to’lovchilarga xizmatlar ko’rsatish sohalari o’ziga xos xususiyatlarga ega.

Yaponiyada Moliya vazirligi huzuridagi milliy soliq agentligi tomonidan umum davlat soliqlarining to’g’ri hisoblanishi, o’z vaqtida va to’liq hajmda davlat byudjetida tushishini nazorat qilinishi belgilangan bo’lib, mahalliy soliqlar va yig’imlarni hududiy munisipalitetlar nazorat qilishi, byudjetdan tashqari maqsadli jamg’armalarning nazorati esa ushbu jamg’armalarni yig’ish bilan shug’ullanuvchi idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

To’langan soliqlar dastlab “Umumdavlat soliqlarini yig’ish fondi”ga jamlanib, so’ngra oy yakuni bilan markaziy bankdagi davlat byudjet daromadlarini tashkil etuvchi maxsus hisob raqamiga o’tkazilishi belgilab qo’yilgan. Bunda Umumdavlat soliqlarini yig’ish fondining nazorati Yaponianing Moliya vazirligiga yuklatilgan.

Yaponiyada kucha-kunduz (24 soat) ishlovchi savdo do’konlarida soliq to’lovlari qabul qilish amaliyati joriy etilgan bo’lib, bu ish bilan band hodimlarni ishdan keying bo’sh vaqtlarida soliqlarni to’lash imkoniyatlarini beradi¹².

Jismoniy shaxslar tomonidan to’lanadigan umumdavallat soliqlari bo’yicha soliq davri va uni to’lash muddatlari qonunchilikda belgilangan bo’lsa, yuridik shaxslar to’laydigan ayrim umumdavlat soliqlari bo’yicha korporatsiyalar hisob siyosatida ko’zda tutadigan soliq davri va uni to’lash muddatlaridan kelib chiqib, soliqlar bo’yicha hisobotlarni toshirish va to’lovni amalga oshirish huquqlari berilgan.

Bu birinchidan, tadbirkorlik faoliyatining erkinligini ta’minlasa, ikkinchidan, soliq hisobotlari va to’lovini har bir korporatsiya o’zi ixtiyoriy tanlash huquqini beradi.

Soliq qarzi mavjud bo’lgan soliq to’lovchilarga doimiy ravishda telefon tarmog’i orqali eslatmalar berib boriladi.

Yaponiyada soliq to’lovchilarni nazorat qilish maqsadida, birinchi navbatda, ularni hisobga olish ishlari amalga oshiriladi. Buning ucgun soliq to’lovchilarda belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tish, aniq yuridik manziliga ega bo’lish, yuridik manzili o’zgargan hollarda soliq idoralarini xabardor etish talab qilinadi. Bulardan tashqari, soliq organlari orasida o’zaro soliq to’lovhilar to’g’risidagi mavjud ma’lumotlar almashinishi yo’lga qo’yilgan.

Soliq to’lovchilar to’g’risidagi dastlabki barcha ma’lumotlar jamlanib, kelgusida nazorat tadbirlarini amalga oshirish maqsadida, soliq to’lovchilar to’g’risidagi yagona ma’lumotlar bazasi “KSK” tizimi joriy etilgan¹³.

Mazkur bazaga soliq organlari tomonidan to’plangan barcha hujjatlardan olingan ma’lumotlar, soliq to’lovleri bo’yicha hisobot ma’lumotlari va to’lovlar miqdorlari jamlanadi.

Soliq tekshiruvlarini tashkil etishdan avval ushbu ma’lumotlar bazasidan foydalangan holda soliq to’lovchining Tovar aylanmasi va faoliyat turlariga qarab tahlil hamda kameral nazorat o’tkaziladi.

Qonun buzilishi mavjud holatlarda soliq to’lovchilar og’zaki va yozma ravishda ogohlantiriladi.

Soliq to’lovchilar soliq organlari tomonidan berilgan ogohlantirishlarga rioya etmagan taqdirda, ixtiyori soliq tekshiruvlari, qonunchilik qo’pol ravishda buzilgan holatlarda esa majburiy soliq tekshiruvlari o’rkaziladi.

Yaponiya soliq tizimida ishlovchi hodimlarning 70% soliq tekshiruvlarini o’tkazish bilan shug’ullanadi.

Yaponiyada soliq to’lovchilar to’g’risida qonun buzilishi holatlarini oldini olish maqsadida, kerakli qo’shimcha ma’lumotlar yig’ish joriy etilgan. To’plangan ma’lumotlar kelgusida soliq to’lovchilarni nazorat va tahlil qilish, so’ngra soliq tekshiruvlarini tashkillashtirish va o’tkazish uchun asos bo’ladi.

¹² www.nta.go.jp

¹³ www.mof.go.jp

Yaponiya soliq tizimini rivojlantirish jarayonida soliq to'lovchilar bilan ishlash va ularga xizmatlar ko'rsatish sohasi ham mos ravishda shakllangan.

Soliq to'lovchilar bilan ishlashda interaktiv xizmatlar ko'rsatish, mamlakat fuqarolariga soliq sohasidagi bilimlarni yoshlidan singdirish soliqlar to'lashda ongi munosabatni shakllantirish, soliq majburiyatlarini bajarishda turli xildagi mustaqil institutlarning faoliyat ko'satish hamda soliq to'lovchilardan soliq qonunchiligi va soliq xizmati hodimlariga bo'lgan munosabatlarini doimo o'rganib monitoring qilib borish Yaponiyada soliq to'lovchilar bilan ishlashning ahamiyatli jihatlari hisoblanadi¹⁴.

Mamlakatda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning elektron tizimi barcha fuqarolar uchun soliq sohasidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish hamda soliq bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Yaponiyada har bir fuqaro davlat soliq xizmati web saytiga kirib (www.nta.go.jp) soliq tizimi va soliq sohasidagi yangiliklar bilan to'liq tanishadi hamda shu veb sayt orqali soliq daklarastiyalari, hisobotlarni taqdim etishi, soliqlarni to'lashi soliq sohasidagi o'zini qiziqtirgan masalalar bo'yicha tegishli javonlar olishi, soliq organlari tomonidan o'tkazilayotgam auksionlar, er, mol-mulk narxlari va shu kabi boshqa ma'lumotlar olish imkoniyatlariga ega.

Bundan tashqari Web-Tax-TV veb saytiga soliqlarga tegishli video materiallar, soliq idoralri tomonidan amalga oshirilgan ishlar, soliq qonunbuzarliklari bo'yicha tergov materialari, hamda xalqaro soliq munosabatlariga oid ma'lumotlar viedeo roliklar joylashtirib boriladi.

Mamlakat faqarolarida soliq madaniyatini yuksaltirish, soliq to'lashda ongi munosabatni shakllantirish maqsadida o'z-o'zini boshqarish organlari bilan hamkorlida har yili 11-17 – noyabr kunlari “Soliq haqida o'ylaylik” haftaligi o'tkazilib boriladi¹⁵.

Ushbu tadbir davomida maktabalr va jamoat joylarida turli xil ko'rinishda tanlovlар, musobaqalar, yig'ilishlar tashkil etiladi. Mamlakat televideniyasi va internet tarmoqlari orqali soliq sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar berib boriladi hamda soliq idoralarida “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etilib, soliqqa oid munosabatlar bo'yicha seminar, briefing va davra suhbatlari o'tkaziladi.

Yaponiyada soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish PR tizimi, ya'ni, aholi bilan ishlash, erkin muloqot va targ'ibot tizimi shakllanganini ham alohida takidlash lozim.

Ushbu maqsadda Yaponiya Milliy soliq agentligida va hududiy boshqarmalarda bo'limlar, yirik soliq inspeksiyalarda sho'balar tashkil etilgan va boshqa soliq inspeksiyalarda maxsus mutaxasislar ajratilib, soliq to'lovchilar bilan erkin muloqotlar o'tkazadi va tashkiliy tadbirlarni amalga oshiradi.

Masalan, har yili turli sohalardan 1500 dan ortiq mutahasislarni jalb etib, ularga maxsus anketalar tarqatiladi va soliq sogasidagi hamda davlat soliq xizmati hodimlari to'g'risidagi fikr va mulohazalari o'rganib chiqiladi.

¹⁴ An out Line of Japanese taxes System 2016

¹⁵ Soliq to'lovchilar bilan ishlash Toshkent-“yangi asr avlodи”-2010

Yaponiyada soliq maslahati tizimi orqali soliq to'lovchilarga maslahat berish, telefon tarmoqlari orqli uning savollariga javob berish hamda hisobot va deklaratsiyalarni tuzishda soliq to'lovchilarga bevosita yordam ko'rsatib kelinmoqda.

Jumladan, Yaponiya soliq inspeksiyalarda har yili dekalrastiya topshirish muddatlarida soliq xizmati hodimlaridan iborat soliq maslahatini beruvchi alohida guruhlar tashkil etilib, soliq deklaratsiyalarini to'g'ri va aniq to'ldirilishi hamda topshirilishida ular tomidan soliq to'lovchilarga yordam ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, mamlakat bo'yicha davlat soliq xizmatida 634 ta mutaxassis telefon orqali soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatdi.

Soliq to'lovchilarga soliqqa oid maslahatlar berish maqsadida, mustaqil institular, ya'ni soliq buxgalteriya sertifikatiga eg bo'lgan jamoat uyushmalari imtiyozli bo'lgan, ya'ni, "ko'k deklaratsiyalar"ni topshirishga ko'maklashuvchi 70 mingdan ortiq soliq maslahatchilar faoliyat ko'rsatmoqda.

Yaponiyada soliq tizimining asosiy negizi soliq to'lovchilarning o'zлari tomonidan hisoblab chiqqan holda soliqlarni to'lash hisoblanadi. Milly soliq agentligining asosiy yo'nalishi quyidagi 2 ta soha: "soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish", "soliq ma'murchiliginning adolatli va haqqoniy soliqqa tortishga erishishi" hisoblanadi¹⁶.

Soliqlarni to'lash tizimining soliq to'lovchilarning o'zлари tomonidan hisoblab chiqqan holda soliqlarni to'lash tushunchasi. Bu soliq to'lovchilarning o'zлари tomonidan deklaratsiya to'ldirgan holda daromadlari summasini belgilashlaridir. Buning uchun esa soliq to'lovchilar soliq qonunchiligidagi belgilangan majburiyatlarini o'z vaqtida sidqidildan bajarisjlarini tushunishlari kerak.

Yaponiyada soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish "soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish" bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Zarurat yuzasidan soliq to'lovchilarga deklaratsiya to'ldirishida maslahatlar va yordamlar ko'rsatishda boshqa bo'lim hodimlari ham bevosita ishtirot etadi.

Boshqacha qilib aytganda, "soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish" bu nafaqat ma'lum bir bo'limning, balki boshqa bo'limlarning ham bevosita ishidir.

Soliq organlarining asosiy ish yo'nalishini Davlat soliq boshqarmasi belgilaydi. Soliq departamentlari o'z tumanlarida sharoitdan kelib chiqib uni aniqlashtirishadi va soliq inspeksiyalari ko'rsatmalar berishadi.

Soliq inspeksiyalari o'z faoliyatlarini soliq departamenti ko'rsatmariga binoan, ularga qarashli soliq to'lovchilarning sonini shart-sharoit, korxonalar faoliyati, korxonalar masshtabini hoisobga olgan holda qo'l ostidagi tumanlarda olib borishadi.

Mavjud sharoitdan kelib chiqib, "soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish" dan har xil yondashuvlar talab qilinadi (misol uchun qishloq joylaridan shaharning har xil joylarini bilish, ushbu hudud yashovchilarining soliqlariga taalluqli bilimlar).

Ma'lumotlarni gazeta, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari orqalitarqatish chora tadbirlari bir-biriga yaqin bo'lgan soliq inspeksiyalari hamkorligida amalga oshiriladi. Bunday hamkorlik katta hududlarda ko'p o'tkaziladi.

¹⁶ Soliq to'lovchilar bilan ishlash Toshkent-“yangi asr avlod”-2010

Yaponiyadagi soliq tushumlarining 70% foizini yuridik shaxslaning foyda solig'i, deklaratsiya qilinadigan daromad solig'i, to'lov manbaidagi daromad solig'i va talab solig'i tashkil etadi¹⁷.

Deklaratsiya qilinadigan daromad soliq 10 turga bo'linadi. Asosiy deklaratsiya qilinadigan daromadlar – savdodan, qishloq xo'jaligidan, asosiy vositalar ijarasidan.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlar uchun "tijoratni ro'yxatga olish kitobi" yo'q. Shuning uchun soliq organlari yakka tartibdagagi tadbirkorlar sharoitini bilish uchun ularning manzillarini aniqlashtirishadi. Bundan tashqari, soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ham ko'p narsa bog'liq.

Daromad solig'i to'lovchilar kata miqdorni tashkil etadi, bu shaxslar soliq organlari bilan deklaratsiya to'ldirish va soliqlarni to'lashda ro'para bo'ladigan shaxslar hisoblanadi. Bular to'lov manbaidan soliq ushlab qoladigan agentlar hisoblanishadi (oylik to'lovchilar, dividentlar beruvchilar, foizlar beruvchilar va boshqalar).

To'lov manbaidan soliq ushlab qoladigan agentlar, asosan yuridik tashkilotlarning foyda solig'i hamda dekalrastiya qilinadigan daromad solig'i to'lovchi yuridik shaxslar, yakka tartibdagagi tadbirkorlar, moliya tashkilotlari hisoblanishadi.

Soliqlarni deklaratsiya qiladiga shaxslar orasidan ko'plari ortiqcha to'langan soliqni orqaga qaytarish uchun dekalrastiya to'ldirshadi.

Har oyda maoshdan ushlab qolinadigan daromad solig'i summasi bir yil davomida to'lanadigan miqdordan oshish holatlari ham uchraydi.

Soliq to'lash jarayonlari nuqtai nazaridan, Yaponiya soliq to'lovchilarini 3 turga ajratish mimkin¹⁸.

Birinchi turi, yakka tartibdagagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar. Ular doimiy xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishadi va har yili deklaratsiya topshirishadi, lekin bulardan kamida 5 milliondasi yuridik shaxslarning daromad va foyda solig'i to'lovchilari soliq manbayidan soliq ushalb qoladigan agentlar hisoblanadi. Ularning ulushi Yaponiya soliq tushumlarining yarmini tashkil etadi.

Ikkinci turi, soliq manbaidan soliq ushlab qoladigan soliq to'lovchilar. Boshqacha qilib aytganda, ish haqidan, dividentlardan daromad oluvchi va undan daromad solig'i to'lovchi xizmatchlar hisoblanadi, hamda ushbu guruhga Yaponiya fuqarolarining katta qismi kiradi.

Uchinchi turi, ortiqcha to'langan soliqni qaytarib berishni so'rab deklaratsiya to'ldirgan individual soliq to'lovchilar. Ushbu guruhga kiruvchi soliq to'lovchilar har yili deklaratsiya to'ldirishi shart emas. Daromad summasi oshishi yoki kamayishi, tizimdagagi o'zgarishlar tufayli (pensiya bilan bog'liq holatlar va boshqalar) deklaratsiya to'ldiriladi¹⁹.

Boshqacha qilib aytganda, ortiqcha to'langan soliq summasini qoplab berish bo'yicha topshiriladigan deklaratsiyalar soni 10 millontani tashkil qilsada, ularning ma'lumotlari har safar o'zgaradi. Ortiqcha to'langan soliq summasini qaytarib berish

¹⁷ 2017 Japan Tax reforms outline

¹⁸ Taxation in japan 2015 -KPMG Taxcorporation

¹⁹ Soliq to'lovchilar bilan ishlash Toshkent-“yangi asr avlod”-2010

bo'yicha topshiriladigan deklaratsiyalar topshiruvchilarning asosiy qismini manbadan daromad solig'ini to'lovhilar hisoblanadi.

Bundan tashqari, Yaponiyada soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish quyidagi 5 ta yo'nalishda olib boriladi:

1. Ma'lumotlarni bevosita taqdim etish.
2. Alovida aniq boshqaruv
3. Oxirgi deklaratsiya topshirish mobaynida ma'lumotlarni tarqatish
4. Soliq maslahatchilari orqali ma'lumotlarni tarqatish
5. Ma'lumotlarni oddiy usulda tarqatish yo'li

Yaponiya soliq tizimi ma'lum sxema bo'yicha tuzilmagan. Uning hozirgi holati ko'p yillik izlanishlar evaziga yaratilgan. Bundan tashqari, unga soliq qonuchiligidagi va jamiyatdagi o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan.

Yuridik shaxslar orasida kichik masshtabli korxonalar ham bor, ularning sotuv hajmi esa juda kam. Individual yadvirkorlar orasida esa kattakorxobalari borlari mavjud, lekin ularning ko'pchiligi kichik korxonalar bo'lib, ularda faqat oila a'zolari ishlashadi. Bunday tadbirdorlar soliq maslahatchilaridan kam foydalanishadi. Ular kunlik majriyatlar bilan band. Ularning buxgalteriya hisobotlarida ahvolni to'g'ri aks ettirmaslik tendentsiyasi kuzatiladi. Deklaratsiyalarni topshirish vaqtid bunda ykichik tadbirdorlarga ularni to'g'ri to'ldirish uchun ko'p holatlarda yordam ko'rsatishga to'g'ri keladi. Bu esa soliq organlarining soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishdagi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning foyda va iste'mol solig'i bo'yicha soliqqa tortish davr bu yuridik shaxsning xo'jalik yili hisoblanadi. Har bir yuridik shaxsning xo'jalik yili har qanday davr bo'lishi mumkin (bir yildan oshiq bo'lmasdan davr).

Yuridik shaxslarning foyda va iste'mol soliqlarini to'lash va dekalrastiyalarni to'ldirish davri xo'jalik yili tugagandan so'ng 2 oydan keyin boshlanadi. Daromad solig'ini soliqa tortish davri calendar yili hisoblanadi. Daromad solig'ini to'lash va deklaratsiya to'ldirish muddati keyingi yilning 15-mart, iste'mol solig'ini to'lash va deklaratsiya to'ldirish muddati esa 31-mart deb belgilangan²⁰.

Yaponiyada soliq ma'murchilagini asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan soliq hisobotlari va ular bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tartibi xususida to'xtolib o'tamiz. Yaponiyada soliqlarni deklaratsiya qilish va to'lash tizimi qabul qilingan bo'lib, unga amal qilinishini ta'minlash maqsadida soliq inspeksiyalari o'tkazib turiladi. Agar deklaratsiyalarni oddiy tekshirish paytida xatolar aniqlanadigan bo'lsa, to'lanadigan soliq miqdoriga o'zgarish kiritiladi. Bu kabi oddiy tekshirishlar soliq to'lovchining roziligini olgan holda o'tkaziladi.²¹

Deklaratsiyalarning qonunga to'g'ri kelishi tekshirib bo'lingach, daromadlarni hisoblash va deklaratsiyaga kiritish chog'ida yo'l qo'yilgan xatolar to'g'rulanadi. Bu kabi xatolarni to'g'rilash deklaratsiya tizimining asosi bo'lib, soliqqa tortishda adolatni ta'minlash uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Xullas, soliq inspeksiysi va soliq tekshiruvlari soliq boshqarmalari faoliyatining muhim jihatni hisoblanadi.

²⁰ Soliq to'lovchilar bilan ishslash Toshkent-''yangi asr avlod''-2010

²¹ Guide to Japanese tax 2016-2017 by Yugi Gomi. Zaikei Shoho Sha. Higashi Shombashi. Minatoku. Tokyo. Japan. P. 93.

Soliq to'g'risidagi qonunga ko'ra, soliq organlarining inspektorlari soliq to'lovchini so'roq qilishi va uni tekshiruvdan o'tkazishlari mumkin. Bu so'roq qilish va tekshiruv o'tkazish huquqi, deb ataladi. So'roq o'tkazish huquqi soliq organlarining xodimlari soliqlarni boshqarishdagi barcha ishlarni to'g'ri yuritishlarini ta'minlash maqsadida berilgan. Agar tekshirilayotgan soliq to'lovchi savollarga javob berishdan bosh torsta yoki tekshirish o'tkazishga to'sqinlik qilsa, u qonun oldida javob berishiga to'g'ri keladi. Yaponiyada tekshirishlar rejasi yo'q. Bunday reja tuzilmaydi.

Barcha soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar to'planib, yillik deklaratasiyalarning to'g'riliги tekshiriladi, so'ngra yanada chuqurroq tekshirilishi lozim bo'lgan shaxslar ajratiladi. Bu - yillik deklaratasiyalar topishirilganidan so'ng aprel va may oylarida o'tkaziladi. Agar deklaratasiyalarni tekshirish chog'ida xatolar borligi aniqlansa yoki daromad miqdori noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, soliq to'lovchiga bu haqda telefon yoki xat orqali xabar beriladi. Shundan so'ng soliq deklaratasiyasiga tegishli tuzatishlar kiritiladi.

Agar soliq to'lovchi katta biznes bilan shug'ullansa yoki u tomondan deklaratasiya g'ilinmagan daromad mig'dori haddan tashg'ari katta bo'lsa, maxsus tekshiruv o'tkaziladi.

Umuman olganda Yaponiyada davlat soliqlari pul yoki qimmatbaho qog'ozlar yordamida to'lanib, banklar va soliqlarni yig'ish bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilotlarga topshiriladigan xujatlarga soliq to'langani haqidagi to'lovnoma qo'shib qo'yiladi. Lekin gerbli yig'imlar hamda listenziya olish uchun to'langan soliqlar pul yoki gerbli markalar yordamida to'lanadi.

Deklaratsiya qilingan daromad solig'i, meros va hadya solig'ini to'lash muddatlari kechiktirilishi mumkin. Agar soliq to'lovchi tabiiy ofat natijasida jiddiy moddiy zarar ko'rgan bo'lsa va bu haqdagi ma'lumot deklaratasiyaga kiritilsa, unga bir yilgacha maxsus imtiyoz beriladi.

Davlat soliqlari to'lash Yaponiya banki, pochta yoki soliq boshqarmalari orqali amalga oshiriladi. Mamlakat bo'ylab taxminan 24 ming bank bo'limi, 20 ming pochta bo'limi va 524 soliq boshqarmasi mavjud bo'lib, soliq to'lovchilar uchun maksimal darajada qulaylik yaratilgan. To'plangan soliqlar hukumatning Yaponiya bankidagi hisobiga kelib tushadi²².

Davlat solig'ini undirishni ta'minlashda ustuvor e'tibor, avvalo, davlat soliqlarini to'lashga qaratiladi. Davlat solig'ini undirish to'g'risidagi qonunga muvofiq, davlat solig'i barcha boshqa majburiyatlardan avval to'lanishi kerak. Agar davlat solig'i o'z vaqtida to'lanmasa, to'lov talabnomasidan so'ng soliq to'lovchining mulki musodara qilinib, sotiladi va ushbu mablag' soliq sifatida davlat hisobiga o'tkaziladi. Lekin agar soliq to'lov muddati o'tib ketganidan keyin ham to'lanmaslik xavfi mavjud bo'lsa, to'lov muddati tugagunga qadar soliqni majburiy ravishda undirishga kirishiladi. O'z shaxsiy sharoitidan kelib chiqqan holda, soliq to'lovchi to'lov muddatini kechiktirish uchun muddat olishi mumkin²³.

To'lanmagan davlat soliqlari bo'yicha, odatda, 50 kun ichida soliqni to'lash talabnomasi yuboriladi. Agar ana shu muddat ichida soliqlar to'lanmasa, soliq

²² Taxation in japan 2015 -KPMG Taxcorporation

²³ Soliq to'lovchilar bilan ishlash Toshkent-“yangi asr avlod”-2010

to'lovchining mulkini musodara qilish jarayoni boshlanadi. Musodara qilingan mulkni sotishdan olingan mablag' soliq sifatida ushlab qolinadi. Soliq boshqarmasi bu ishlarni sud ishtirokisiz amalga oshiradi. Musodara qilish jarayoni talabnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan so'ng 10 kundan keyin boshlanadi. Agar soliq to'lovchi soliqlarni mulki musodara qilingandan keyin ham to'lamasa, musodara qilingan mulk sotiladi va bundan tushgan mablag' soliq sifatida davlat hisobiga o'tkaziladi.

Odatda, davlat soliqlarini ko'rsatilgan muddatning oxirgi kunigacha to'lash mumkin. Lekin soliq to'lovchining harakatlari, xususan soliq to'lashdan bosh tortish yoki maxsus sabablar, jumladan, bankrotlik tufayli soliq to'lanmasligining xavfi paydo bo'lsa, odatda, oldini olish choralar (masalan, soliqni muddatidan oldin to'lash to'g'risidagi talabnama, mulki musodara qilish va hokazo) qo'llaniladi.

Yaponiya Davlat soliq boshqarmasi o'z ish yuritish jarayonida kompyuterlardan **1966 yil 2 fevralidan** foydalana boshlagan. 80 yillarning oxirida va 90 yillarning boshlarida umumiylaytirish tizimi amalga tadbiqu etilgan. Bundan tashqari, soliq ma'murchiligi tizimida ro'y bergan o'zgarishlar bois soliq boshqaruvi tizimining darajasi va samaradorligini oshirish maqsadida davlat soliqlarini umumiylaytirish tizimi – KSK tizimi amalga tadbiqu etilgan.

1995 yil yanvaridan KSK tizimidan Tokio soliq boshqarmasining ikkita soliq inspekteziyasiда eksperiment o'tkazish uchun foydalanilgan. So'ngra bu tizim mamlakatdagi barcha soliq boshqarmalariga tarqalib, 2001 yili Yaponiyaning barcha soliq organlari mazkur tizimga o'tgan²⁴.

Soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilish bu Yaponiyada soliq ma'murchilagini asosiy e'tiborli jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunda murojaat qilish tartibi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Agar soliq to'lovchi soliq organlarining faoliyatidan norozi bo'lsa yoki soliq boshqarmasi boshlig'inining qarorlarini asossiz deb hisoblasa, o'z huquqlarini himoya qilishni so'rabsa, soliq komissiyasiga murojaat qilishi mumkin. Shikoyat va arizalar tizimi tez va jo'n prostedura jarayon bo'lib, soliq to'lovchining huquqlarini muhofaza qilishga yo'naltirilishi mumkin.

Agar soliq to'lovchi soliq boshqarmasi boshlig'inining davlat soliqlarini undirish to'g'risidagi qaroridan norozi bo'lsa, qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki oy davomida qarorga nisbatan protest berishi mumkin. Qarorlar doim soliq boshqarmasi boshlig'i tomonidan qabul qilinadi, shu bois protest har doim uning nomiga yoziladi. Lekin agar inspekteziya davlat yoki mintaqaviy soliq boshqarmalarining xodimlari tomonidan o'tkazilgan bo'lib, soliq boshqarmasining boshlig'i ana o'sha inspekteziya natijalariga asoslangagn holda qaror chiqargan bo'lsa, protest yoki shikoyat davlat va mintaqaviy soliq boshqarmasi boshlig'i nomiga yoziladi. Qabul qilingan qaror to'g'risidagi ma'lumotnomada qarordan norozi bo'lgan taqdirda protest va shikoyatlarni qaerga yuborish lozimligi ko'rsatib o'tiladi. Bu – ishni qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza bo'lib, quyidagi holatlarda soliq komissiyasiga yoziladi. Bu kabi arizalarni berish muddati: agar soliq to'lovchi ilgari qabul qilingan qarorga nisbatan protest yozgan bo'lsa, yangi qarorni olgandan so'ng bir oy ichida; agar u

²⁴ Guide to Japanese tax 2016-2017 by Yugi Gomi. Zaikei Shoho Sha. Higashi Shombashi. Minatoku. Tokyo. Japan. P. 121.

birinchi marta yozgan bo'lsa, soliq boshqarmasi boshlig'ining qarorini olgandan so'ng ikki oy ichida.

Qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza bo'yicha qaror soliq masalalari bo'yicha komissiya raisi tomonidan komissiya a'zolarining xulosasiga assoslangan holda qabul qilinadi. Agar soliq to'lovchi soliq komissiyasining qaroridan ham norozi bo'lsa, ish sudgacha etib borishi mumkin. Umuman olganda, yuqorida aytib o'tilgan ikkita qarorsiz ish sudgacha bormaydi. Lekin soliq to'lovchining arizasi bo'yicha uch oy davomida qaror chiqarilmasa va ba'zi bir boshqa holatlarda soliq to'lovchi to'g'ridan-to'g'ri sudga murojaat qilishi mumkin²⁵.

Soliqqa tortish ishlari hamma holatda to'liq manbadan soliq ushlab qoluvchi agenntlar tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, manbadan soliq ushlab qoladigan agentlar ushlab qolning soliqni soliq organlariga to'lab berishadi va yil oxirida hisob-kitob qilishadi. Shunday qilib, ular so'ngi deklaratsiya to'ldirish va soliqlarni to'lashni maosh ko'rinishida daromad oluvchi soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirishadi.

Maosh ko'rinishida daromad oluvchi soliq to'lovchilar amalga oshradigan jarayonlar oddiy bo'lib, ish beruvchiga quyidagi ma'lumotlar beriladi:

-yil boshida maosh beruvchi ish beruvchiga yuqorida keltirilgandek, maoshdan boshqa oylik oladimi-yo'qmi shu too'g'risida ma'lumot berish kerak;

-yil oxirida ishni to'gri yo'lga qo'yish va soliq summasini aniqlash uchun "Yilik soliq summasidan ushlab qolinadigan hayotini sug'urta qilgan summa va boshqalar", "Oiladagilar soni" va "Maosh jo'rinishida daromad oluvchilar yillik hisoboti" tuzishda kerak bo'ladigan ma'lumotlar berish.

Soliq maslahatchilaridan foydalanish korxonalar tomonidan belgilanadi. Soliq maslahatchilarida foydalanish uchun shrtnoma tuzish (ishonch shartnomasi) va buxizmatlar uchun haq to'lash kerak. Bunda korxonalar katta va ma'lum kapitalga ega bo'lishi kerak.

Asosan, soliq maslahatchilaridan yuridik va individual tadbirkorlar foydalanishadi, kichik tadbirkorlar esa bunda xizmatlarda fodalanishga qiynalishadi.

Soliq malahatchilarining asosiy ishi:

- 1)soliq to'lovchining vakili sifatida soliq organlarida ular nomidan ish yuritish;
- 2)soliq hujjatlarini tuzish;
- 3)soliq tekshiruvlarida ularning ishtiroki kuztilsa-da bunday yordamning shakli turlicha bo'lishi mumkin.

Odatda, kunnik buxgalteriya ishlarini yuritish, moliyaviy hisobot va soliq deklaratsiyasini tuzish boshqarishga taalluqli maslahatlarni berish uchun tuziladi. Qanday xizmat ko'rsatishdan qat'iy nazar, soliq to'lovchilar soliq maslahatchilarining professional bilimlari va qonuniy statusi foydalanishadi. Bu o'z-o'zidan soliq organlari uchun foydali, chunki bunda deklaratsiyalar to'g'ri to'ldirilgan holda, soliqlar ham o'z vaqtida to'lanadi.

3. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi va uning kontseptual asoslari

²⁵Taxation in japan 2015 -KPMG Taxcorporation

Rossiya soliq tizimining faoliyati va rivojlanishi kompleksi jarayon va u maqsadni belgilash va amalga oshirish mexanizmlari hamda mezonlarini aniqroq belgilanmaguncha to'g'ri rivojlnana olmaydi. Amaldagi soliq engilliklarining maqsadi farqli byudjet darajalarinii ular uchun zarur bo'lgan daromadlarga muvofiq barpo etish hisoblanadi. Byudjetning keragidan ortiq to'lovlaridan voz kechish rejorashtirish usullari orqali amalga oshiriladi va uning bajarilishi davlat daromadlari manbalariga muvofiqligini talab etadi. Byudjetning ortiqchaligi iqtisodiy engilliklardagiadolastizlikning bir qismi hisoblanadi hamda soliq solishda mantiqiy namoyon bo'lishini taqqoslash orqali baholash mumkin. Moliaviy moslik sabablari tomonidan o'zini oqlamaydigan muammo hisoblanadi. Dunyo bo'yicha byudjet daromadlarida amaldagi soliq engilliklariningadolatliligi taqqoslangan, bunda Rossiya amaliyoti o'z ichiga olingan. U quyidagicha rivojlanadi va foydalaniladi:

Birinchidan, soliq solish umumiyliz tizimini takomillashtirish metodlari;

Ikkinchidan, soliq stavkalarni yondashishida tabaqlashtirilgan tartibda yondashish;

Uchinchidan, soliq turlarining ko'pligi, ularning har biri bo'yicha yagona baza asoslarini ma'qulligini aniqlashga ega bo'lish.

Soliq tizimining rivojlantirishning strategik maqsadi boshqaruv mexanizmlarini o'stirish orqali amalga oshirish hisoblanadi, bu o'z ichiga soliqlarni tabaqlashtirish, soliq stavkalari o'zgarishlari, soliq imtiyozlaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga moliaviy harakatlarning muvofiqligi, bu iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish bilan o'lchanadi.

Rossiyada yagona soliq tizimini rivojlantirishga qarab 1991-1992 yilda muhim qadam qo'yildi, dunyo amaliyotidagi ijobiy tajribalar hisobga olindi. U klassik soliq nazariyalaridek jozibador bo'lishi kerak edi va konstepstiylar uzoq vaqtan beri rivojlangan bo'lishi kerak edi, muammolarni echimini topishda bozor iqtisodiyotiga asoslandi. Rossiya 1991 yilda federal, regional va mahalliy darajadagi ssoliqlar va to'lovlar bilan murakkab uch bosqichli soliq tizimi joriy qilindi. Ular quyidagicha tasdiqlangan: federal 15 ta, regional 3 ta, mahalliy 21 ta, umumiy 39 ta soliqlar va to'lovlar belgilandi. Bekor qilingan qo'shimcha soliqlar va to'lovlar tizimi o'rniga davlat ijtimoiy jamg'armasi, byudjetga qo'shimcha davlat fonlari belgilandi hamda ularni chegirishning alohida nomalari belgilandi.

4. Xitoy soliq tizimi shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Xitoyning iqtisodiy rivojlanishi va shaharlashuvi hamda keng qamrovli aholining daromadlaridagi farqlarini hisobga olgan holda zamонавиy soliq tizimini qanday qilib rivojlantirish muhokamasi Xitoy hukumati uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy soliq tizimining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Amaldagi Xitoy soliq tizimi regressive, murakkab hamda byudjet xarajatlari uchun daromad etarli emas. Ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida bir qator soliq islohoti ko'rsatmalari ishlab chiqilgan. Bu o'z ichiga yuqori daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga daromad solig'ini oshirish va bosqichma-bosqich mazkur jismoniy shaxslar sonini kengaytirish, ist'emol solig'i hajmini oshirish va barcha soliqlar bo'yicha zarur bo'lmanan imtiyozli soliq munosabatlarini bekor qilishni oladi.

Xususan, Xitoy soliq tizimini muhokama qilish asosan ikkita sababga ko'ra muhim hisoblanadi.

Birinchidan, u katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega va bu esa daromad bo'yicha farqlar bilan bog'liq, soliq tizimi iqtisodiy o'sishdan olingan foydani va daromadni qayta taqsimlashda muhim rolni o'ynashi kerak.

Ikkinchidan, Xitoyning iqtisodiy rivojlanishi va shaharlashuvi bilan bog'liq, bu erda har doim xalq tovarlari va sog'liqni saqlash xizmatlari, yo'llar, xalq ta'limi, infrastrukturaning rivojlanishi, millionlab baxstizliklar uchun umumiyl xavfsizlik dasturlari va millionlab qari yoshdagi fermerlar uchun qarilik nafaqalari uchun talab yuqori bo'lgan. Bu turdag'i barcha xizmatlar daromadning katta miqdorini talab qiladi. Hozirda Xitoyda soliqqa tortish YaIM ning 18 foizini tashkil qiladi va bu esa zarur bo'lgan byudjet daromadi miqdori uchun etarli emas. Xitoyning amaldagi soliqqa tortish tizimi bilvosita soliqqa tortish og'irligiga suyanadi ya'ni QQS, biznes solig'i va maxsus iste'mol qilinadigan tovarlar uchun soliqlar ko'proq miqdorda undiriladi. Bu shaxsiy daromad va yuqori daromad oluvchilarining jadal o'sishi bilan bog'liq, shaxsiy daromad solig'ida yuqori soliqqa tortish o'zgaruvchan bu esa etkazib berish xizmatlariga ko'ra ishlab chiqarishda ko'proq daromad olish imkonini beradi.

Amaldagi Xitoy soliq tizimi 1994 yilda Soliq tizimi islohoti Akti bilan joriy qilingan, bunda bozor iqtisodiyotiga mos soliq tizimini olishga harakat qilingan. O'shandan buyon faqat bir ikkita o'zgarishlar qilingan xolos. Joriy soliq tizimida 25 ta soliq turi mavjud. Ular 8 ta guruhga ajratiladi:

1. Oborot soliqlari. Bu o'z ichiga QQS, iste'mol solig'i va biznes soliqlarini oladi.
2. Daromadni soliqqa tortish. Bu tadbirkorlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'z ichiga oladi.
3. Resurs soliqlari. Bu resurs solig'i va shahar hamda shahar tipidagi qishloq eridan foydalanganlik uchun soliqni o'z ichiga oladi.
4. Mulk soliqlari. Bu uy-joy solig'i va shahar ko'chmas mulk solig'ini o'z ichiga oladi.
5. Maxsus maqsadlar uchun soliq. Bu shahar qurish va ta'mirlash solig'i, asosiy aktivlarga investition yo'naliishlarni tartibga soluvchi soliq va er qimmatlashishi hamda qishloq xo'jaligini egallash solig'ini o'z ichiga oladi.
6. Xatti-harakat soliqlari. Bu bir qator soliqlarni ya'ni transport vositasi va kema solig'i, transport vositasi va kemadan foydalanish uchun listenziya solig'i, shtamp solig'i, ish-harakat solig'i va ziyofat solig'i.
7. Qishloq xo'jaligi soliqlari. Bu qishloq xo'jaligi solig'i va hayvon erlari solig'ini o'z ichiga oladi.
8. Xaridorlar bojlari. Bular Xitoy davlati fuqarolari tomonidan import qilingan tovar va buyumlardan undiriladi.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Yaponiya soliq ma'murchiligi tarkibiy tuzilishi va soliq to'lovchilar bilan ishslash tajribasi;

2. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi va uning kontseptual asoslari;
3. Xitoy soliq tizimi shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari;
4. Yaponiya davlatining tizimi va soliq siyosatining o'ziga xos jihatlari.
5. Xorijiy mamlakatlarda soliq ma'murchiligin amalga oshirish tartiblari?
6. Rivojlangan mamlakatlarda soliq ma'murchiligin amalga oshirish tahlili.
7. Xorijiy mamlakatlarda soliq ma'murchiligin samarali amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 iyuldaggi PF-5116 sonli Farmoni

3. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagagi 677-ton qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 avgustdaggi PQ-3168 sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2017 yil 22 dekabr <http://xs.uz/>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-ton qarori

7. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-454-ton qonuni

8. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 30 dekabrdagi "Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-455-ton qonuni

9. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi "Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-456-ton qonuni

10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: "O'zbekiston". hisobot

11. Toby Stock. Advanced in Taxation. Copyright @ 2010 y. Emerald Group Publishing limited.
12. Schanz, Deborah, Schanz, Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. © 2011
13. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogoooblojenie: Uchebnik.–7-e. izd., pererab.i dop.- Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2009. – 227 s.
14. Nalogovoe administrirovanie: uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod red. L.I. Goncharenko. - M.: KNORUS, 2009. - 448 s.
15. Panskov V.G. Nalogi i nalogoooblojenie: teoriya i praktika: uchebnik dlya vuzov / V.G. Panskov. - M.: Izdatelstvo Yurayt; ID Yurayt, 2010. - 680 s.
16. VahobovA.V., MalikovT.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.
17. Vahobov A.V, Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448- bet.

IV. AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYALAR

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotlar respublikamizdagi ilg'or korxona va tashkilotlarda o'tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida tinglovchilar kadrlarni innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanishi, korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish, O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanishi to'g'risida amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI

1-mavzu. Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma'muriyatichiligi tizimining ilmiy-uslubiy asoslari va ahamiyati

(2 soat)

Reja

1. Iqtisodiyotimizning yanada jadal rivojlanishida soliq ma'muriyatichiliginin yanada takomillashtirishning iqtisodiy shart-sharoitlari
2. Soliq ma'muriyatichiliginin tashkil qilishning nazariy asoslari
3. Soliq ma'muriyatichiliginin tubdan takomillashtirishda Davlat soliq ma'murchiligi bosqichlari: rejalashtirish, prognozlashtirish, soliqlar orqali tartibga solish, soliq nazorati
4. Soliq siyosatida Soliq ma'muriyatichiliginin asosiy yo'nalishlari

Kalit so'zlar: Soliq ma'muriyatichiligi, soliq ma'murchiligi funktsiyalari, tadbirkorlik, sanoat tarmog'i, fermer xo'jaliklari, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish, yalpi, tovar mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, foyda

1. Iqtisodiyotimizning yanada jadal rivojlanishida soliq ma'muriyatichiliginini yanada takomillashtirishning iqtisodiy shart-sharoitlari

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining ishlab chiqarishning modernizatsiyalashuvi sharoitida soliqlar vositasida bir tomondan tartibga solish ikkinchi tomondan esa rag'batlantirish hamda ikkala jarayonni to'g'ri tashkil eta olish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarimiz faoliyatining bozor munosabatlarining iqtisodiy talablariga moslashishida, ularning bosqichma-bosqich rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishi va unda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan keyingi yillarda soliq tizimini soddallashtirish, soliq yukini kamaytirish, qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalar berish, ayrim yo'nalishlar bo'yicha soliq solish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi ushbu tizimning samarali faoliyat ko'rsatishiga bog'liq. O'z navbatida, soliq tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi esa mamlakatda soliq ma'murchiligi qanday tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi. Yuqoridaq sabablarga ko'ra, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda soliq ma'murchiligi masalalariga alohida e'tibor berilayotganligi beziz emas.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti printsiplariga javob

beradigan soliq tizimining shakllanganligi, O'zbekiston Respublikasi yangi Soliq kodeksining qabul qilinganligi, soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodlari va mexanizmlarining joriy etilganligi, soliq organlari yaxlit tizimining yaratilganligi bozor infratu- zilmasini shakllanishi va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda muhim rol o'yamoqda. Biroq, mamlakatimiz amaliyoti va ilg'or xorij tajribasining chuqur tahlili respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilishning zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki, tahlillarning ko'rsatishicha, soliq organlarining funktsiyalari, vakolatlari va tuzilmasi zamonaviy talablarga to'liq javob beraolmayapti, ular fiskal-moliya organlari tuzilmasida, eng avvalo, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish Davlat byudjeti daromadlar qismini barqaror shakllantirishning belgilangan topshiriqlarini bajarish masalalarida hali etakchi o'rinni egallagani yo'q.

2. Soliq ma'muriyatichilagini tashkil qilishning nazariy asoslari

Mamlakat aholisi, shuningdek, xo'jalik sub'ektlari soliq ma'murchiligi to'g'risida aniq va to'liq tasavvurga ega emas. Iqtisodiy adabiyotda soliq ma'murchiligi xususida turlicha iqtisodiy qarashlar mavjud. Shuningdek, mamlakatimizda soliq ma'murchiligining tashkil etishning hozirgi holatini baholash ehtiyoji vujudga kelmoqda. Yuqorida masalalarga anqlik kiritmasdan turib, soliq ma'murchiligini samarali tashkil etish va uni takomillashtirishni amalga oshirib bo'lmaydi.

Yuqorida keltirib o'tilgan holatlarning barchasi tanlangan disser-tatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi, ushbu mavzuda mustaqil, maxsus chuqur ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Soliq ma'murchiligining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan dastlabki ishlar rossiyalik iqtisodchi olimlar Burtsev D.G., Grunina D.K., Gorskiy I.V., Dadashev A.Z., Dukanich L.V., Mironova O.A., Xanafeev F.F. va boshqalar tomonidan amalga oshirilib, ularda Rossiya Federatsiyasidagi soliq ma'murchiligiga tegishli bo'lgan holatlar o'z aksini topmoqda²⁶.

O'zbekistonda soliq ma'murchiligining ayrim amaliy jihatlari O.Q.Abdurahmonov, M.I.Almardonov, A.V.Vahobov, A.S.Jo'raev, J.R.Zaynalov, O.K.Iminov, T.S.Malikov, O.O.Olimjonov, B.E.Toshmurodova, Sh.A.Toshmatov, Q.A.Yah'yoev, N.R.Qo'zieva, N.H.Haydarov va boshqalarning ilmiy ishlarida²⁷ tahlil

²⁶ Миронова О.А., Ханафеев Ф.Ф. Налоговое администрирование. Учебное пособие. М.: изд-во Омега Л.,2005. – 408 с.; Грунина Д.К. Основы налогового администрирования. – М.: ФА при Правительстве РФ, 2003.– 148 с.; Дадашев А.З., Лобанов А.В. Налоговое администрирование в Российской Федерации. – М.: Книжный мир, 2002. – 202 с.; Бурцев Д.Г. Изменения в налоговом администрировании в условиях модернизации налоговых органов // Налоговый вестник. 2002. № 1. С.23-27.

²⁷ Вахобов А.В., Жўраев А.С. Соликлар ва соликка тортиш / Дарслик. – Т.: Шарқ, 2009. – 448 б.; Вахобов А. ва бошқ. Бюджет-солиқ сиёсати яхлитлиги. Ўкув қўлланма. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2005. – 480 б.; Жўраев А., Мейлиев О., Сафаров Ф. Солик назарияси. – Т.: ТМИ, 2004. -210 б.; Зайналов Ж.Р. Соликлар ва соликка тортиш. – С.: СКИ, 2002. – 366 б.; Иминов О.К., Тўраев Ш.Ш. Соликка тортишини таҳлил этишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: "Akademiya", 2005. – 130 б.; Маликов Т.С. Соликлар ва соликка тортишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: "Академия", 2002. – 202 б.; Маликов Т.С., Жалилов П.Т. Бюджет-солиқ сиёсати. – Тошкент: "Академнашр", 2011. – 472 б.; Тошмуродова Б. Солик муносабатларини оптималлаштириш. Тошкент: "Iqtisod-moliya", 2005. – 265 б.; Тошмуродова Б. Соликлар воситасида иктисадиётни бошқариш механизми /

qilingan. Biroq, ushbu masala hozirga qadar ilmiy tadqiqotchilar tomonidan mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etilmagan. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda soliq ma'murchiliginini yanan samarali tashkil etish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, uni amalga oshirish lozim.

Soliq ma'murchiligining iqtisodiy mohiyatini aniqlashda quyidagi holatlarga e'tibor berish lozim. a) soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir. b) soliq ma'murchiligi davlat soliq siyosatini amalga oshirilishini ta'minlaydi va shunga xizmat qiladi. v) soliq ma'murchiligi soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turadi; g) soliq ma'murchiligi soliq huquqining qoidalariga asoslanadi, ularni o'ziga xos tarzda to'ldiradi, uni nazariy va amaliy nuqtai-nazardan soliq mexanizmining o'ziga xos sterjeni sifatida talqin etish mumkin; d) soliq munosabatlari soliq ma'murchiligi predmetini tashkil etadi; e) soliq ma'murchiligi mohiyati, konkret holda, u tomonidan bajarilishi mumkinbo'lgan funktsiyalar orqali namoyon bo'ladi.

Soliq ma'murchiligining mohiyatini aniqlashda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning printsiplari muhim rol o'ynaydi. Ushbu printsiplarni uch guruhga bo'lish mumkin: 1) soliqqa tortish jarayonlarini ma'muriy boshqarishni o'zida aks ettiruvchi tashkiliy printsiplar (umumiylilik, tenglilik, o'zgaruvchanlik); 2) soliqlarning iqtisodiy printsiplar (samaradorlilik, tejamkorlilik, teng taqsimlanish); 3) soliq munosabatlarining qonun nuqtai nazaridan aniqligini ko'rsatuvchi printsiplar (birlik-yagonalik, barqarorlik, aniqlilik).

Fikrimizcha, soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi ta'rifi ushbu jarayonda e'tiborga qaratilishi kerak bo'lgan barchaholatlarni hisobga olishi zarur. Yuqorida keltirilgan holatlarni hisobga olib soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Soliq huquqi qoidalariga tayangan holda soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan, soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi soliq munosabatlarini boshqarish tizimiga soliq ma'murchiligi deyiladi".

Bizningcha, soliq ma'murchiligi mazmun-mohiyatini yanada to'laroq ifodalash maqsadida unga berilgan yangi ta'rifda oldingi ta'riflardan farqli o'laroq, yana ikki holatga e'tibor berilgan va ular yangi ta'rifda inobatga olingan. Bu, birinchidan, soliq ma'murchiligining soliq huquqi qoidalariga tayanishi bo'lsa, ikkinchidan, uning soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qilishidir.

Soliq ma'murchiligi ma'lum ma'noda, bevosita boshqaruvgaga daxldor bo'lганligi uchun unga boshqaruvgaga tegishli bo'lган barcha funktsiyalar xosdir.

Shuning uchun ham, soliq ma'murchiligi funktsiyalarini tarkibiga, umumiylarini, quyidagilarni kiritish mumkin: a) rejalahshtirish; b) hisobga olish;

v) nazorat; g) tartibga solish. Biroq, soliq ma'murchiligi funktsiyalarining bu tarzda ifodalanishi, fikrimizcha, mavhum bo'lib, uning o'ziga xos bo'lган xususiyatlarini mutlaqo ifoda etmaydi. Shuning uchun soliq ma'murchiligi

Монография. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 128 б.; Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда соликлар роли / Монография. –Т.: Фан ва технология, 2008. – 204 б.; Яхъёев Қ.А. Соликка тортиш назарияси ва амалиёти. –Т.: Фан ва технологиялар маркази, 2003. – 248 б.; Ҳайдаров Н.Х. Соликлар ва соликка тортиш масалалари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: "Akademiya", 2007. –256 б. ва бошқалар.

funktsiyalarida uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari aniq aks ettirilishi va bu funktsiyalarning faqat soliq ma'murchiligiga xos ekanligi aniq ko'rinishi lozim. Agar soliq ma'murchiligineng avvalo soliq munosabatlarini boshqarish tizimi ekanligi hisobga olinadigan bo'lsa, u holda uning funktsiyalarini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin: 1) soliq munosabatlarini rejalashtirish; 2) soliq munosabatlarini hisobga olish; 3) soliq munosabatlarini nazorat qilish; 4) soliq munosabatlarini tartibga solish.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatishicha soliq ma'murchilagini samarali tashkil etish va uni takomillashtirish nuqtai-nazaridan, shu joyda qator muammolar mavjud. Fikrimizcha, dastlabki muammo sifatida soliq salohiyati jumladan, xududlarning soliq salohiyati etarli darajada to'g'ri bashoratlanmayotganligi va baholan mayotganligini ko'rsatish mumkin. Bu, o'z navbatida, byudjet tizimining turli darajalarida soliq tushumlarining rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga, mintaqalarning soliq faolligi darajasi va soliq imkoniyatlarini aniqlash, taqqoslash va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini etarli darajada tavsiflash imkonini bermayapti. Ushbu holatni turli soliqlar bo'yicha soliq tushumlarining mamlakatimiz, jumladan, alohida olingan ma'muriy hududlar bo'yicha rejalashtirilishi va ushbu ko'rsatkichlarning hisobot davrida bajarilishini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar yaqqol ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda soliq ma'murchiligining samarali tashkil etish va uni takomillashtirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda masalaning shu jihatiga jiddiy e'tibor bermoq lozim. Buning uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirish lozim:

- soliqlarni byudjetga yillar bo'yicha undirilish rejalarining bajarilishida O'zbekiston Respublikasi va uning ma'muriy hududlari bo'yicha noreal, etarlicha asoslanmagan, sub'ektiv omillarning ta'sirida tuzili-shiga yo'l qo'ymaslik kerak;
- soliq tushumlari bo'yicha tuzilgan rejalarining mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish rejalarini bilan uzviy ravishda bog'liqligini ta'minlash lozim;
- mamlakat va uning ma'muriy hududlari miqyosida soliqlarni soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga o'z vaqtida to'lamaslik, moliya-byudjet-to'lov intizomiga rioya qilmaslik hollarining sodir etilayotganligiga chek qo'yish zarur;
- soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish, soliqqa tortish bazasini ongli ravishda noto'g'ri belgilash, tegishli soliq stavkalarini noto'g'ri qo'llash holatlarining oldini olishga erishmoq kerak;
- aksariyat hollarda ob'ektiv sabablar va kelgusi davrlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan murakkab moliyaviy vaziyatni inobatga olmagan holda doimo byudjet manfaatlarining birinchi o'ringa qo'yilaverishiga chek qo'yish zarur

3. Soliq ma'muriyatçiligin tubdan takomillashtirishda Davlat soliq ma'murchiligi bosqichlari: rejalashtirish, prognozlashtirish, soliqlar orqali tartibga solish, soliq nazorati

Soliq ma'murchiligining iqtisodiy mohiyatini aniqlashda quyidagi holatlarga e'tibor berish lozim. a) soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir.

b) soliq ma'murchiligi davlat soliq siyosatini amalga oshirilishini ta'minlaydi va shunga xizmat qiladi. v) soliq ma'murchiligi soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turadi; g) soliq ma'murchiligi soliq huquqining qoidalariga asoslanadi, ularni o'ziga xos tarzda to'ldiradi, uni nazariy va amaliy nuqtai-nazardan soliq mexanizmining o'ziga xos sterjeni sifatida talqin etish mumkin; d) soliq munosabatlari soliq ma'murchiligi predmetini tashkil etadi; e) soliq ma'murchiligi mohiyati, konkret holda, u tomonidan bajarilishi mumkinbo'lgan funktsiyalar orqali namoyon bo'ladi.

Soliq ma'murchiliginning mohiyatini aniqlashda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning printsiplari muhim rol o'ynaydi. Ushbu printsiplarni uch guruhga bo'lish mumkin: 1) soliqqa tortish jarayonlarini ma'muriy boshqarishni o'zida aks ettiruvchi tashkiliy printsiplar (umumiylilik, tenglilik, o'zgaruvchanlik); 2) soliqlarning iqtisodiyatiga ta'sirini o'zida ifodalaydigan iqtisodiy printsiplar (samaradorlilik, tejamkorlilik, teng taqsimlanish); 3) soliq munosabatlarining qonun nuqtai nazaridan aniqligini ko'rsatuvchi printsiplar (birlik-yagonalik, barqarorlik, aniqlilik).

Fikrimizcha, soliq ma'murchiliginning mazmun-mohiyatini ifodalovchi ta'rifi ushbu jarayonda e'tiborga qaratilishi kerak bo'lган barchaholatlarni hisobga olishi zarur. Yuqorida keltirilgan holatlarni hisobga olib soliq ma'murchiliginning mazmun-mohiyatini ifodalovchi quydagicha ta'rif berish mumkin: "Soliq huquqi qoidalariga tayangan holda soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan, soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi soliq munosabatlarini boshqarish tizimiga soliq ma'murchiligi deyiladi".

Bizningcha, soliq ma'murchiligi mazmun-mohiyatini yanada to'laroq ifodalash maqsadida unga berilgan yangi ta'rifda oldingi ta'riflardan farqli o'laroq, yana ikki holatga e'tibor berilgan va ular yangi ta'rifda inobatga olingan. Bu, birinchidan, soliq ma'murchiliginning soliq huquqi qoidalariga tayanishi bo'lsa, ikkinchidan, uning soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qilishidir.

Soliq ma'murchiligi ma'lum ma'noda, bevosita boshqaruvga daxldor bo'lganligi uchun unga boshqaruvga tegishli bo'lgan barcha funktsiyalar xosdir.

Shuning uchun ham, soliq ma'murchiligi funktsiyalari tarkibiga, umumiylilik tarzda, quydagilarni kiritish mumkin: a) rejalashtirish; b) hisobga olish;

v) nazorat; g) tartibga solish. Biroq, soliq ma'murchiligi funktsiyalarining bu tarzda ifodalanishi, fikrimizcha, mavhum bo'lib, uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini mutlaqo ifoda etmaydi. Shuning uchun soliq ma'murchiligi funktsiyalarida uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari aniq aks ettirilishi va bu funktsiyalarning faqat soliq ma'murchiligidagi xos ekanligi aniq ko'rinishi lozim. Agar soliq ma'murchiligineng avvalo soliq munosabatlarini boshqarish tizimi ekanligi hisobga olinadigan bo'lsa, u holda uning funktsiyalarini quydagi ko'rinishda ifodalash mumkin: 1) soliq munosabatlarini rejalashtirish; 2) soliq munosabatlarini hisobga olish; 3) soliq munosabatlarini nazorat qilish; 4) soliq munosabatlarini tartibga solish.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatishicha soliq ma'murchiligin samarali tashkil etish va uni takomillashtirish nuqtai-nazaridan, shu

joyda qator muammolar mavjud. Fikrimizcha, dastlabki muammo sifatida soliq salohiyati jumladan, xududlarning soliq salohiyati etarli darajada to'g'ri bashoratlanmayotganligi va baholan mayotganligini ko'rsatish mumkin. Bu, o'z navbatida, byudjet tizimining turli darajalarida soliq tushumlarining rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga, mintaqalarning soliq faolligi darajasi va soliq imkoniyatlarini aniqlash, taqqoslash va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini etarli darajada tavsiflash imkonini bermayapti. Ushbu holatni turli soliqlar bo'yicha soliq tushumlarining mamlakatimiz, jumladan, alohida olingan ma'muriy hududlar bo'yicha rejalashtirilishi va ushbu ko'rsatkichlarning hisobot davrida bajarilishini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar yaqqol ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda soliq ma'murchiligining samarali tashkil etish va uni takomillashtirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda masalaning shu jihatiga jiddiy e'tibor bermoq lozim. Buning uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirish lozim:

- soliqlarni byudjetga yillar bo'yicha undirilish rejalarining bajarilishida O'zbekiston Respublikasi va uning ma'muriy hududlari bo'yicha noreal, etarlicha asoslanmagan, sub'ektiv omillarning ta'sirida tuzili-shiga yo'l qo'ymaslik kerak;

- soliq tushumlari bo'yicha tuzilgan rejalarining mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish rejalarini bilan uzviy ravishda bog'liqligini ta'minlash lozim;

- mamlakat va uning ma'muriy hududlari miqyosida soliqlarni soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga o'z vaqtida to'lamaslik, moliya-byudjet- to'lov intizomiga rioya qilmaslik hollarining sodir etilayotganligiga chek qo'yish zarur;

- soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish, soliqqa tortish bazasini ongli ravishda noto'g'ri belgilash, tegishli soliq stavkalarini noto'g'ri qo'llash holatlarining oldini olishga erishmoq kerak;

- aksariyat hollarda ob'ektiv sabablar va kelgusi davrlarda vujudga kelishi mumkin bo'lган murakkab moliyaviy vaziyatni inobatga olmagan holda doimo byudjet manfaatlarining birinchi o'ringa qo'yilaverishiga chek qo'yish zarur

4. Soliq siyosatida Soliq ma'muriyatichiliginin asosiy yo'nalishlari

Mamlakatimiz iqtisodiyotining boshqa sohalari qatori soliq tizimida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq qonunchiliginin tobora takomillashtirilayotgani, tizimdagi yangilik va o'zgarishlar yurtimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari 2017-2021 yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda shakllantirilganligi ta'kidlandi.

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq yukini izchillik bilan kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan.

Shu bilan birga, soliq ma'muriyatichiligi sohasida, shu jumladan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to'lovchilarining huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, xususan:

birinchidan, soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma'muriyatichiligining shaffofligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda nazorat samaradorligini, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlamayapti.

Soliq to'lovchilarining, eng avvalo, tadbirkorlik sub'ektlarining ularga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan "soliq to'lovchining shaxsiy kabineti"dan foydalanish manfaatdorligini oshirish bo'yicha faol ish tashkil etilmagan;

ikkinchidan, soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish imkonini bermayapti;

uchinchidan, soliqqa oid huquqiy munosabatlarning ahvoli va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish, soliq siyosatining o'rta muddatli va istiqbolli yo'naliшlarini ishlab chiqish, soliq solishning dolzarb muammolarini tadqiq etish, shuningdek byudjetga soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyati takomillashtirishni talab qilmoqda;

to'rtinchidan, soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, shu jumladan soliq tekshiruvi ob'ektlarining zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbazarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirmoqda;

beshinchidan, soliq nizolarini sudgacha hal etish - soliq apellyatsiyasi instituti imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmayotganligi soliq to'lovchilarining sud organlariga murojaatlari ko'payishiga olib kelmoqda;

oltinchidan, soliq solish tizimining murakkabligi va bir xil soliq solish bazasiga ega soliqlarning etarli darajada unifikatsiya qilinmaganligi, soliqkonunchiligining o'zgaruvchanligi soliq to'lovchilar tomonidan o'z soliq majburiyatlarini to'liq bajarish imkonini bermayapti;

ettinchidan, soliq organlarining Davlat byudjetiga tushumlar to'liqligini ta'minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish va soliq to'lovchilarni hisobga olish imkonini bermayapti;

sakkizinchidan, soliq to'lovchilarining soliqlarni to'lash bo'yicha o'z konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan, ayniqsa, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni takomillashtirish talab etiladi;

to'qqizinchidan, bozorlar va savdo komplekslari faoliyati ustidan samarali soliq nazorati o'rnatilmaganligi mahalliy byudjetlarni to'ldirish uchun mavjud rezervlarni

to'liq safarbar qilish, shuningdek naqd pul mablag'larining kafolatli qaytishini ta'minlamayapti;

o'ninchidan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish ko'rsatkichlarini yaxshilash, korruptsiya ko'rinishlarini profilaktika qilish, shuningdek soliqorganlarida xizmat qilishga halol va yuqori malakali kadrlarni jalg etish maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasidagi](#) soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliqma'muriyatichiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari hisoblansin:

birinchidan, soliq ma'muriyatichiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirdorlik sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

ikkinchidan, soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan ishonchli axborotni o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish;

uchinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbazarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

to'rtinchidan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob'ektlarini to'liqqamrab olishni ta'minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliqsolinadigan bazani kengaytirish;

oltinchidan, soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

ettinchidan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Soliq ma'murchiligining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Soliq tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga hamda uning samaradorligiga qanday omillar ta'sir etadi?
3. Soliq ma'muriyatchiligining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 iyuldaggi PF-5116 sonli Farmoni

3. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagagi 677-son qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 avgustdagagi PQ-3168 sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2017 yil 22 dekabr <http://xs.uz/>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognosi va Davlat byudjeti parametrлari to'g'risida"gi PQ-3454-son qarori

7. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-454-son qonuni

8. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 30 dekabrdagi "Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-455-son qonuni

9. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi "Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-456-son qonuni

10. Toby Stock. Advanced in Taxation. Copyright @ 2010 y. Emerald Group Publishing limited.

11. Schanz, Deborah, Schanz, Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. © 2011

12. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogoooblojenie: Uchebnik.–7-e. izd., pererab.i dop.- Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i Ko», 2009. – 227 s.

13. Nalogovoe administrirovanie: uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod red. L.I. Goncharenko. - M.: KNORUS, 2009. - 448 s.

14. Panskov V.G. Nalogi i nalogoooblojenie: teoriya i praktika: uchebnik dlya vuzov / V.G. Panskov. - M.: Izdatelstvo Yurayt; ID Yurayt, 2010. - 680 s.

15. VahobovA.V., MalikovT.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.

16. Vahobov A.V, Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448- bet.

2-mavzu. O’zbekiston Respublikasida soliq ma’muriyatichiligi: muammolar va istiqboldagi vazifalar. (4 soat)

Reja

1. Soliq ma’murchiliginini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o’rni

2. O’zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo’nalishlari va ushbu yo’nalishlarda olib borilayotgan davlat siyosati

1. Soliq ma’murchiliginini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o’rni

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning harakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bohliq bo’ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog’liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o’ynaydi. Ijtimoiy siyosat o’z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo’linadi. Iqtisodiy siyosat ham o’z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o’rinda soliq siyosatining mazmuniga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, yuqorida qayd etilganidek, **soliq siyosati** - bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo’lagi bo’lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarini amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig’indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo’nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o’rtasidagi nisbatni ta’minlash kabi masalalarini soliq siyosati belgilab beradi²⁸.

²⁸ E.Gadoev. N. Kuzieva. N. Ashurova. “Soliq siyosati strategiyasi” o’quv qo’llanma 83b

«Soliq siyosatining vazifasi - bir tomondan, davlat byudjeti daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchidan, korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat»²⁹ deb muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov alohida ta'kidlab o'tgan.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarda O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdag'i «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi (1991 yil 15 fevral), «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi (1993 yil 7 may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa, ayrimlarining huquqiy bazasini kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashga majburdirlar»³⁰. Shuningdek respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlalar keltirilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir».³¹

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'naliishlarda amalga oshiriladi:

- ❖ mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va majburiy to'lovlarini qonuniy joriy etish;
- ❖ amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- ❖ soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- ❖ soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

Yuqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, ya'ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtai-nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga

²⁹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk keljak sari. –T.: «O'zbekiston», 1998. 52-b

³⁰ O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi T «Adolat» 2016 yil 51-modda.

³¹ O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi T «Adolat» 2016 yil 132-modda

bo'linadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qo'mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat hokimiyatining barcha bo'g'lnlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlар tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta'minlanadi: Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo'lgan qonunlar qabul qilinadi, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bog'liqdir. Ijro hokimiyati bo'lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo'linmalari, Davlat Soliq qo'mitasi, Moliya Vazirligi, Adliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi, mahalliy hokimiyatlар va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo'li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarining ishslash mexanizmini ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqiy me'yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta'minlanadi. Bunda albatta ijro hokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi alohida o'ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar bo'yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o'zgartirishlar kiritish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlар bo'g'lnlari bilan birga sud hokimiyatining bo'g'lnlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarining o'z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek, uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug'ullanmaydigan sub'ektlar, aniqrog'i soliq to'lovchilar qatnashishi mumkin, ya'ni bunda soliq to'lovchilarni o'zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishslash kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvinining samaradorligi ko'p jihatdan davlat apparatining turli bo'g'lnlari faoliyatidagi moslashuvchanlikka bog'liq. Vakolat har bir organning spetsifik rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida uning boshqa organlar faoliyati bilan moslashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birini hal etilishi byudjetni to'ldirish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy va yuridik hattiharakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat hokimiyati organlar faoliyatining muvofiqlashtiruvvisiz mumkin emas. Ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlanganidek, kontseptual soliq tamoyillaridan biri davlat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda birgalikdagi ishtiroti hisoblanadi³².

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash jarayonida bir qancha o'z vakolati doirasida faoliyat yuritadigan organlar birgalikda bahamjihat ishni tashkil etishlari shart. Bu organlar faoliyat turining turlichaligi, ularni tashkil etish asoslarining

³² Гадоев Э, Кузиева Н, Ашуррова Н, Ўрмонов Ж. Дарслик. Юридик шахсларни солиққа тортиш. - Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ. 2013й.

farqlanishi, maqsad va vazifalarining ayrichaligi soliq munosabatlarini tashkil etishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda aktiv ishtirok etishni ta'minlash maqsadida ular faoliyatini muvofiqlashtirish va bir-biriga moslushuvchanligini ta'minlash kabi qator muammolarni hal etish zarur.

Shuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo'mitasi va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq shaxs huquqlarini ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandи va "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida" gi qonunning 4-moddasiga muvofiq hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumatning ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati mustaqillikka erishganimizdan so'ng ancha rivojlangan bo'lsada ushbu sohada olib borilish kerak bo'lgan ishlar juda ham ko'p. Buning misoli sifatida Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 18-iyulda tasdiqlangan "Soliq ma'murchilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"si PF-5116-sonli farmonini keltirish mumkin, chunki ushbu farmon bilan soliq siyosatidan quyidagi kamchiliklar asosli ravishda keltirildi:

birinchidan, soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma'muriyatichiligin shaffofligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda nazorat samaradorligini, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlamayapti.

Soliq to'lovchilarning, eng avvalo, tadbirkorlik sub'ektlarining ularga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan «soliq to'lovchining shaxsiy kabineti»dan foydalanish manfaatdorligini oshirish bo'yicha faol ish tashkil etilmagan;

ikkinchidan, soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish imkonini bermayapti;

uchinchidan, soliqqa oid huquqiy munosabatlarning ahvoli va rivojlanish tendenstiyalarini tahlil qilish, soliq siyosatining o'rta muddatli va istiqbolli yo'naliishlarini ishlab chiqish, soliq solishning dolzarb muammolarini tadqiq etish, shuningdek byudjetga soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyati takomillashtirishni talab qilmoqda;

to'rtinchidan, soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, shu jumladan soliq tekshiruvi ob'ektlarining zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbazarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirmoqda;

beshinchidan, soliq nizolarini sudgacha hal etish – soliq apellyastiyasi instituti imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanimayotganligi soliq to'lovchilarning sud organlariga murojaatlari ko'payishiga olib kelmoqda;

oltinchidan, soliq solish tizimining murakkabligi va bir xil soliq solish bazasiga ega soliqlarning etarli darajada unifikastiya qilinmaganligi, soliq qonunchiligining o'zgaruvchanligi soliq to'lovchilar tomonidan o'z soliq majburiyatlarini to'liq bajarish imkonini bermayapti;

ettinchidan, soliq organlarining Davlat byudjetiga tushumlar to'liqligini ta'minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish va soliq to'lovchilarni hisobga olish imkonini bermayapti;

sakkizinchidan, soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lash bo'yicha o'z konstitustiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan, ayniqsa, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni takomillashtirish talab etiladi;

to'qqizinchidan, bozorlar va savdo komplekslari faoliyati ustidan samarali soliq nazorati o'rnatilmaganligi mahalliy byudjetlarni to'ldirish uchun mavjud rezervlarni to'liq safarbar qilish, shuningdek naqd pul mablag'larining kafolatli qaytishini ta'minlamayapti;

o'ninchidan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish ko'rsatkichlarini yaxshilash, korrupstiya ko'rinishlarini profilaktika qilish, shuningdek soliq organlarida xizmat qilishga halol va yuqori malakali kadrlarni jalb etish maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Shularni inobatga olib shuni aytish mumkinki, soliq siyosatini takomillashtirish borasida hali olib borilishi kerak bo'lgan ishlar ko'p. Bunda mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021- yillar uchun mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining Harakatlar Strategiyasi dasturil ama bo'lib xizmat qiladi.

2.O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va ushbu yo'nalishlarda olib borilayotgan davlat siyosati

Yuqorida ta'kidlanganidek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma'muriyatichiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida:

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi:

birinchidan, soliq ma'muriyatichiliği jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

ikkinchidan, soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan ishonchli axborotni o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish;

uchinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqburzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

to'rtinchidan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olishni ta'minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

oltinchidan, soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

ettinchidan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqburzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Ushbu maqsadlarga erishish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidentining PF-5116- sonli farmoni bilan 2018-yil 1-yanvardan quyidagilarni joriy qilish belgilandi:

soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etiladi;

yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichiligi funkstiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilar – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq ta'tillari berilishi mumkin;

o'tkazilgan kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to'lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlар summalarini sud tartibida undirish joriy etiladi;

ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to'lovchi vakolatlari organlarga murojaat etgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida amalga oshiriladi;

davlat soliq xizmati organlariga kirim hujjatlarini rasmiylashtirmsandan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qiladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini 5 bank kunigacha bo'lган muddatga vaqtinchalik to'xtatib turish vakolati beriladi;

Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta'minlaydigan nazoratkassa mashinalarini qo'llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etiladi, respublikaning qolgan hududlarida mazkur tizim bosqichma-bosqich kiritiladi;

soliq tekshiruvi ob'ektlarini samarali tanlab olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavflarini tahlil qilish, shuningdek soliq organlari tomonidan yuqori likvidli mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish hajmining doimiy hisobi va nazoratini amalga oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan tizim joriy etiladi;

davlat soliq xizmati organlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshiradi, natijasi bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagи "Soliq ma'muriyatichiligin takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli iaroriga muvofiq, mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma'muriyatichiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to'lash jamg'armasiga soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag'lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarini bekor qilish

va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko'rib chiqildi.

Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida:

1. tadbirkorlik sub'ektlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlikni tan olib, davlat soliq xizmati organlarining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorini olgan kundan e'tiboran o'n kun muddat ichida moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy ravishda to'lasa, tadbirkorlik sub'ektlarining mansabdar shaxslari yoki xodimlari yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar mazkur huquqbuzarlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan jinoiy va ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi.

2. 2020 yil 1 yanvardan boshlab:

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tadigan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar davlat soliq xizmati organlarida ushbu soliqning to'lovchisi sifatida majburiy hisobga olinadi va bu qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olishning sharti hisoblanadi;

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tishda ushbu soliq summasi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tilgan sanadan avvalgi oxirgi 12 oyda xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tasdiqlangan qoldiqlari bo'yicha realizatsiya hajmiga mos keladigan ulushda hisobga olinadi;

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish yoki yagona soliq to'lovini to'lashni rad etish to'g'risidagi xabarnoma qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tiladigan oy boshlanishidan oldin o'n ish kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

Soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish strategiyasi qabul qilindi unga muvofiq;

Soliq tizimi iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga erishishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lishi qayd etildi.

2018 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhitni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishni davom ettirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, soliq tizimida ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq islohotlarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar ko'rsatib berildi:

birinchidan, soliq ma'muriyatçiliginin tashkil etish printsiplari eskirgan bo'lib, soliq to'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatishni, shuningdek ular tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini ta'minlamayapti;

ikkinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda ma'muriy xarajatlar (sarflanadigan vaqt va mablag') darajasi yuqori bo'lib qolmoqda;

uchinchidan, soliq sohasida imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlar mavjud emas;

to'rtinchidan, xufiyona iqtisodiyot darajasini qisqartirishga qaratilgan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag'batlantiruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlari mukammal emas;

beshinchidan, soliq to'lovchi bilan soliq organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi yagona standart va dasturiy mahsulotlar mavjud emas;

oltinchidan, soliq hisobi sifatini pasaytiradigan, soliq bazasining kengayishi va barqaror soliq tushumlarini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan idoralararo axborot hamkorligi sust yo'lga qo'yilgan;

ettinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida hamda soliq organlari xodimlari faoliyatini baholashda tizimli kamchiliklar mavjud.

Ushbu kamchilik va muammolar soliq tizimini jadal rivojlantirish, soliq ma'muriyatçiligi samaradorligini oshirish hamda soliqlar va majburiy to'lovlarning talab darajasida yig'ilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi maqsad, vazifa va asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

1. Strategyaning asosiy maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida tadbirkorlik sub'ektlari va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, soliq solish jarayonlarini avtomatlashtirgan holda, davlat soliq organlarida zamonaviy yo'naltirilgan servis soliq xizmatlari ko'rsatishni tashkil qilish hisoblanadi.

2. Strategyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat byudjetiga soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash;

soliq organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish va soliq ma'muriyatçiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ko'rsatilayotgan soliq xizmatlari sifatini yaxshilash;

barcha toifadagi soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy ravishda bajarish asosida ularning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish;

soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni qisqartirish, barcha toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga qulay sharoitlarni ta'minlaydigan transparent va barqaror soliq tizimini shakllantirish;

soliq to'lovchilar faoliyatiga aralashishni, shuningdek, davlat soliq xizmati organlarida «inson omili»ni hamda korruptsiya holatlarining salbiy ko'rinishlarini kamaytirish imkonini beradigan tavakkal-tahlil va masofaviy tahliliy ishlar tizimi asosida soliq nazorati tizimini shakllantirish.

Belgilangan vazifalarning bajarilishi biznes faolligini oshirish va soliq majburiyatini bajarish bo'yicha ma'muriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi va bu, o'z navbatida, Jahon bankining biznes yuritish reytingida respublika pozitsiyalariga ijobjiy ta'siri ko'rsatadi.

Strategiyaning asosiy yo'nalishlari
SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIYOTDA
XUFIYONA AYLANMA DARAJASINI QISQARTIRISH

1. Soliq va soliq rejimlarini bixillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish.
2. Soliq yukini (kamaytirish va baravarlashtirish) optimallashtirish.
3. Soliq imtiyozlarining samaradorlik darajasini baholash asosida ularni taqdim etishning aniq mezon va mexanizmlarini belgilash.
4. Soliq va buxgalteriya hisobi o'rtasida farqni imkon qadar kamaytirish.
5. Joylardagi davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining byudjetning daromad qismini shakllantirishda rolini kuchaytirish va hissasini oshirish.
6. Xorijiy davlatlar tajribasi hisobga olingan holda, tavakkalchiliklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lамини qisqartirish.
7. Soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashishiga) ko'maklashish.
8. Transfert narxni belgilash sohasida soliq ma'muriatchiligining yangi uslublarini joriy etish.
9. 2021 yilga kelib jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lovchilarni 1,5 baravar, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilarni 2 baravar hamda resurs soliqlari va mol-mulk solig'i to'lovchilarni 2 baravar ko'paytirish.

XIZMAT KO'RSATISHGA YO'NALTIRILGAN SOLIQ XIZMATLARINI
RIVOJLANTIRISH

1. Soliq to'lovchilar soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishi uchun ularga qulay shart-sharoitlarni yaratib berish.
2. Birlamchi hisob hujjatlarini raqamlashtirish va bixillashtirish hamda soliq hisobotlari shakllarini soddalashtirish.
3. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning eksterritorial printsipini rivojlantirish.
4. Soliq xizmatlari sifatini va soliq organlari faoliyatini jamoatchilik tomonidan mustaqil baholash (teskari aloqa) mexanizmini yaratish.
5. Soliq organlari faoliyatining shaffofligi va soliq solish sohasidagi ma'lumotlarning ochiqligi.
6. Soliq nizolarini sudgacha hal qilish tizimini rivojlantirish.
7. Korxonalarning to'lovga layoqatsizligini va ularni tugatishni hal etish tartib-taomillarini soddalashtirish (xarajatlar, vaqt va qoidalar audit).
8. Soliq maslahatchilari institutini takomillashtirish.
9. Soliq to'lovchilarga maslahat ko'rsatish xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini markazlashtirish va standartlash.

SOLIQ TAVAKKALCHILIKLARINI BAHOLASH TIZIMINI JORIY QILISH
VA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

1. Nazorat faoliyatini amalga oshirishda tavakkalchiliklarni tahlil qilish va boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etish.

2. Soliq nazoratining shaffofligini ta'minlash, korruptsiya omillarini kamaytirish.
3. Hududlarning soliq imkoniyatlarini baholash usullarini joriy qilish va byudjet daromadlarini prognozlashtirish.
4. Umumiy ovqatlanish va savdo sohasida, shuningdek, ko'chmas mulk bo'yicha soliq solinadigan ob'ektlarni to'liq hisobga olinishini ta'minlash.
5. Soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha etkazish.

DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATINI YANA TAKOMILLASHTIRISH

1. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va maslahatlar berishga yo'naltirilgan soliq organlari tashkiliy tuzilmasini yaxshilash.
2. Soliq to'lovchilarni segmentatsiyalash asosida davlat soliq xizmati organlarining eng maqbul modelini joriy etish.
3. Soliq xizmati organlarida zamonaviy biznes-tahlil (Business Intellegence) tizimini, shuningdek, strategik va protsessual boshqaruvni joriy etish.
4. Soliq xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligi ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqqan holda ularni rag'batlantirish.
5. Kadrlarni tayyorlash va tanlash tizimini takomillashtirish.
6. Soliq organlari xodimlari motivatsiyasini mustahkamlash.
7. Soliq ma'muriyatiligi jarayonini avtomatlashtirish.

Davlat soliq xizmati organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish

1. Kadrlar siyosatida korruptsiyaga qarshi komponentlarni kuchaytirish.
2. Soliq sohasida korruptsiya xavflarini nazorat qilish va ularning oldini olish tizimini joriy etish.
3. Korruptsiyaga qarshi qonunchilik talablari asosida normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish (taftish qilish).
4. Soliq organlarida shaffoflik (oshkorlik) va hisobdorlikni kengaytirish, korruptsiya ko'rinishlariga jamoatchilikda murosasizlik hissini shakllantirish. Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarda ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishi asosida:
 1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sur'ati o'sishiga erishiladi.
 2. O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi pozitsiyalari, shuningdek, ishbilarmonlik faolligining indeks ko'rsatkichlari yaxshilanadi.
 3. Soliqlarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha yalpi ichki mahsulot, daromad, qo'shilgan qiymatga nisbatan ulushi o'zgaradi.
 4. Mahalliy va xorijiy investorlar o'rtasidagi soliq imtiyozlari hajmi bo'yicha tafovuti qisqarishi ta'minlanadi.
 5. Soliq to'lovchilarning ma'lumotlardan foydalanishda hamda ko'rsatilayotgan servis xizmatlaridan qanoat hosil qilish darajasi oshadi.
 6. Nizolarni sudga qadar hal etish ko'lami kengayadi.
 7. Soliq sohasida huquqbazarliklar soni kamayishiga erishiladi.

8. Soliq to'lovchilarning haqiqatdagi va taqdim etilgan ko'rsatkichlari o'rtaсидаги farqlar kamayadi.
9. Soliq tekshiruvlari soni qisqaradi.
10. Nazorat tadbirlari natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar miqdori pasayadi.
11. Soliqlarning undirilish darajasi oshadi.
12. Soliq idoralari o'rtaсидаги hujjatlarning aylanishi kamayadi, ijro intizomi oshadi, kadrlarning qo'nimsizligi bartaraf etiladi va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanadi.
13. Soliq organlari xodimlari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etish hollari bartaraf etiladi.
14. Soliq xizmatlarini standartlashtirish va tartibga solish darajasi ortadi kabi ijobjiy natijalarga erishish ko'zda tutilgan.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Soliq ma'murchilagini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o'rni va ahamiyatini tushuntirib bering?
2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasida soliqlar asosida rag'batlantirish yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Soliq siyosati targ'iboti nimalarda namoyon bo'ladi?
5. O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini tushuntirib bering?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 iyuldaggi PF-5116 sonli Farmoni
3. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagagi 677-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 avgustdagagi PQ-3168 sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi 2017 yil 22 dekabr <http://xs.uz/>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognози va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-3454-son qarori

7. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-454-son qonuni

8. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 30 dekabrdagi “Soliq ma’muriyatichiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-son qonuni

9. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi “Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘sishcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-456-son qonuni

10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. –T.: “O‘zbekiston”. hisobot

11. Toby Stock. Advanced in Taxation. Copyright @ 2010 y. Emerald Group Publishing limited.

12. Schanz, Deborah, Schanz, Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. © 2011

13. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogoooblojenie: Uchebnik.–7-e. izd., pererab.i dop.- Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2009. – 227 s.

14. Nalogovoe administrirovanie: uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod red. L.I. Goncharenko. - M.: KNORUS, 2009. - 448 s.

15. Panskov V.G. Nalogi i nalogoooblojenie: teoriya i praktika: uchebnik dlya vuzov / V.G. Panskov. - M.: Izdatelstvo Yurayt; ID Yurayt, 2010. - 680 s.

16. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.

17. Vahobov A.V, Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448- bet.

3-mavzu. O‘zbekiston respublikasi va xorijiy mamlakatlarda davlat soliq xizmati organlarida soliq to’lovchilar bilan ishlar va nazoratini tashkil qilishning xususiyatlari (2 soat)

Reja:

1. Yaponiya davlatining tizimi va soliq siyosatining o‘ziga xos jihatlari;
2. Yaponiya soliq ma’murchiligi tarkibiy tuzilishi va soliq to’lovchilar bilan ishslash tajribasi;
3. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi va uning kontseptual asoslari;
4. Xitoy soliq tizimi shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari;

Kalit so’zlar: Xorijiy mamlakatlarda soliq ma’murchiligi, korporatsiyalardan soliq olishni tartibga solish, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish.

1. Yaponiya davlatining tizimi va soliq siyosatining o'ziga xos jihatlari;

Yaponiya davlati soliq tizimi haqida to'xtaladigan bo'lsak, 2017-yil moliya yili Fiskal konsolidatsiyalashgan rejaning ikkinchi yilini belgilaydi. Undagi byudjetda hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish va fiskal konsolidastiyashtirishni davom ettiradi.

3. Iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida:

- Jamiyatdagi fuqarolarga yaxshi hayot tarzi yaratish maqsadidagi siyosatlar: a) bola parvarishlovchilarning va uzoq muddatli hamshiralarning oylik maoshini oshirish; b) bola parvarishi imkoniyatlarini kengaytirish ya'ni kutish ro'yxatidagi bolalar sonini kamaytirish; c) minimum pensiya olish davrini 25 yildan 10 yilga qisqartirish; d) ayollar uchun bola tug'ish davri daromadining olib turish vaqtini uzaytirish; e) ishchilar sug'urta to'lovlarni kamaytirish va f) yangi davlat ta'lim grantlarini joriy qilish

- iqtisodiyotni rivojlantirishda. Xususiy va jamoat sohalari uyg'unlashuvi potentsial o'sishiga e'tibor qaratish; ilmiy tadqiqot xarajatlarini oshirish; innovastiya va yangi texnologik ishlanmalarni qo'llab quvvatlash va foydali sohalarda jamoat investistiylarini oshirish.

- ishslash sharoiti reformlari. Ish haqqini oshirish uchun moliyaviy yordamlarni ta'minlash, doimiy ta'tillarni joriy qilish va doimiy bo'limgan ishchilar uchun ish sharoitlarini oshirish

4. Fiskal konsolidatsiyalash siyosati.

- ijtimoiy himoya tizimini sog'lomlashtirish. Ijtimoiy himoya xarajatlarining o'sishini nazorat qilish (+ 500 milliard en). Adolatli soliq yuki va maqbul imtiyozlarga erishish uchun turli xil reformlar tashkil qilish. Bular orasida: 1) 70 yoshdan ossghanlar uchun yuqori tibbiyot va parvarish xarajatlariga limitlarni muntazam oshirib boorish; 2) 75 yoshdan oshgan qariyalar uchun tibbiyot sug'urtasi to'lovlardagi vaqtinchalik discount stavkalarni hisobga olish va 3) uzoq muddatli hamshira to'lov tizimiga asoslangan yangi hioblashni joriy qilish

- davlat obligastiyalari bo'yicha. Davlat obligastiyalari bo'yicha rejorashtirilgan ko'rsatkichga (34,4 trillion en) amal qilish

Bundan tashqari Yaponiya davlatida soliq sohasidagi islohotlarga katta e'tobor qaratiladi. Hamda jamiyatda soliq madaniyati yuqori bo'lish bilan bir qatorda har bir fuqaroning soliqlani o'z vaqtida to'lash majburiyati qonuniy belgilab qo'yilgan. Jumladan, Yaponiya Konstitustiyasining 30-moddasida "Fuqarolar qonun bilan belgilab qo'yilgan soliqlarni to'lashga majburdir", 84-moddasida esa "Qonun va unga tenglashtirilgan hujjalardan tashqari boshqa hujjalarni asosida yangi soliqlar joriy qilinmaydi va undirilmaydi" kabi moddalar kiritilgan.

Shu o'rinda, Yaponiya davlatining soliq tizimini nazariy o'rganishni mamlakatda qanday turdag'i soliqlar mavjudligiga oydinlik kiritib olishdan boshlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada jami bo'lib, 46 ta soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undiriladi. Ulardan 20 tasi umum davlat soliqlari, 14 tasi mahalliy soliqlar bunda ular prefektura doirasida undiriladi. Qolgan 12 tasi shahar, tuman va qishloq doirasidagi mahalliy soliqlar.(shuni ta'kidlash lozimki,

Mamlakatda 47 prefektura bo'lib, u o'z ichiga 3045 shaharlar, tumanlar va qishloqlar jamlagan hamda ularning hammasi mahalliy byudjetga ega).

Yaponiya soliq tizimini o'rganish jarayonida biz uchun notanish hisoblanuvchi perfektura va munitsipal tushunchalariga duch kelamiz. Perefekruta deganda yirik hudud nazarda tutilib, O'zbekiston misolida olib qaralganda viloyatga to'g'ri keladi. Bu degani Yaponiyada prefekturalar munisipallardan tashkil topadi. Munistipallat o'z navbatida tuman munitsipallari, shahar munitsipallari va qishloq munitsipallariga ajraladi. Bir munitsipal shaklidan boshqasiga o'tish uchun me'zon aholi soni hisoblanadi, ya'ni agar qishloq munitsipal deyilganda aholi soni 50 mingdan kam bo'lgan prefekturaga bo'sunuvchi hududiy birlik nazarda tutiladi. Qizig'i shundaki, poytaxt Tokio shahri ham 23 ta munitsipaldan tashkil topgan.

Shu o'rinda Yaponiya davlat byudjetida asosiy o'rinda turuvchi soliqlar haqida ma'lumot berib o'tmoqchi edik.

3. Korxona foydasidasidan olindigan soliqlar. Yaponiyada korxonalar foydasiga qaratilgan soliqlarga quyidagilar kiradi:

- korporatsiya solig'i (umumdavlat solig'i)
- biznes solig'i (mahalliy soliq)
- perfektura vaa munitsipal ro'yxatda turganlik uchun soliqlar

Shuni eslatib o'tish kerakki, kichik va o'rta korxonalarga ustav kapitali 100 mln enga teng va undan kam korxonalar kiradi. Quyidagilar bundan mustasno, agar:

- Ustav kapitalning 100 foizi katta korxona tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa (bunday katta korxonaga ustav kapitali 500 mln endan yuqori bo'lgan korxanalar kiradi)
- Ustav kapitalning 100 foizi ikki va undan ortiq katta korxona tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa;

Biznes solig'i odatda soliq bazasiga ega bo'lган korxonalarda, ya'ni foyda olgan korxonalardan undiriladi. Ammo korxonaning ustav kapitali 100 mln endan yuqori korxonalardan ham undirilishi mumkin. Suv, elektr energiya ta'minotini ko'rsatuvchi korxonalar va sug'urta tashkilotlari olgan foydasidan emas belgilangan tushum doirasida to'laydilar. Biznes solig'inining stavkasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Perfektura va munitsipal ro'yxatda turganlik uchun soliqlar ikki turdag'i mahalliy soliqlardan tashkil topgan: milliy korporatsiya daromadi asosida hisoblanadigan foyda solig'i va mahalliy korporatsiya solig'i. Maxsus stavkalar mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Korporatsiya solig'idan undiriladigan ro'yxatda turganlik uchun soliq milliy hukumat tomonidan mahalliy korporatsiya so'lig'I sifatida undiriladi ya'ni, 2014- yil oktyabrdagi soliq islohotidan keyin moliya yili uchun qishloq va shahar byudjeti o'rtasidagi tafovutni kamadirish uchun qo'llaniladi, hamda uning stavkalarii quyidagicha.

Undirilgan soliq stavkalardan kelib chiqib prefectura yoki municipal byudjetga taqsimlanadi. Bundan tashqari, mahalliy korporatsiya solig'inining stavkasi 2014-yil soliq islohotidan keyin barcha korxonalar uchun 4.4% qilib belgilandi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadiga solinadigan soliqlar

Yaponiyada Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadiga solinadigan soliqlar milliy daromad soliq hamda mahlliy ro'yxatda turganlik uchun soliqdan iborat. Milliy daromad solig'i uchun soliq solinadigan yil kaledar til hisoblanadi. Mahalliy ro'yxatda turganlik uchun soliq munitsipal hokimiyat tomonidan o'sha hududda yashavchi va daromad oluvchi jismoniy shaxslarga qo'llaniladi.

Yaponiyada shaxslarni soliq majburiyati ularning rezidentlik statusidan kelib chiqib belgilanadi. Jismoniy shaxslar quyidagi 3 ta kategoriya bo'yicha klasifikatsiyalanadi:

- Doimiy rezidentlar. Ularga Yaponiya millati vakili yoki 10 yil davr mobaynida hech bo'lmasa 5 yili davomida Yaponiyada bo'lgan nerezidentlar kiradi.
- Doimiy bo'lmanagan nerezidentlarga Yaponiya millati vakili bo'lmanagan oxirgi 10 yil ichida 5 yildan kam Yaponiyada yashagan shaxslar kiradi.
- Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan shaxslar nerezidentlar hisoblanadi³³.

Chet el millati vakili Yaponiyaga kelishi bilan o'z ish beruvchisi bilan aniqlishtirilgan holda shartnomaga tuzmasa, ya'ni bir yildan kam muddatda mamalakatda bo'lishi haqida, resident jismoniy shaxs hisoblanadi. Bundan tashqari davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama soliqqa tortmaslik kabi xalqaro sharnomalardam kelib chiqib, quyidagi talablarga javob beruvchi nerezidentlarning daromadi soliqqa tortilmaydi:

- 12 oy ketma-ketlik ichida 183 kundan kam myddatda Yaponiyada yashaganlar;
- ularning oylik maoshlari nerezident tomonidan to'langan bo'lsa;
- Berilgan maosh Yaponiyadagi doimiy muassasa tomonidan berilmagan bo'lsa³⁴;

Doimiy rezidentlar ularning chetda topgan daromadlari bilan manbasidan qat'iy nazar soliqqa tortiladi. Doimiy bo'lmanagan rezidentlar esa faqat Yaponiyada topgan va mamlakatda bo'lmanagan mambalardan to'langan hamda Yaponiyaga qaytarilgan daromadlari yuzasidan soliqqa tortiladi. Nerezidentlar esa faqat yaponiyada topgan daromadlari doirasida soliqqa tortiladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, Yaponiyada milliy daromad solig'inining stavkasi progressive stavka hisoblanadi, ya'ni eng kam stavkasi 5% ni tashkil qilib yil davomida olingan daromadning 1950 000 eni ushbu stavkaga tortiladi, eng yuqori stavkasi 45% ga teng va 40 mlndan yuqori daromadlar ushbu stavkada soliqqa tortiladi. Bundan tashqari, har yili chegirilishi mumkin bo'lgan daromad miqdori keltiriladi, ushbu xarajatlarga asosan tibbiy xarajatlar kiradi.

Mahalliy ro'yxatda turganlik uchun soliq ham o'z navbatida ikki ko'rinishda undiriladi: birinchisi, daromadidan qat'iy nazay belgilangan summada ya'ni ministipal darajada 300 en prefektura darajasida 1000 en miqdorida. Ikkinchisi, proporsional tartibda 10% stavkada.

³³ Worldwide PersonalTax and Immigration Guide 2016–17

³⁴ Taxation in Japan 2015 -KPMG Taxcorporation

4. Bilvosita soliqlar. Yaponiyada ushbu tartibda undiriladigan soliqlarga iste'mol solig'i, bojxona bojlari va aksiz bojlari kiradi.

Iste'mol solig'ida soliq solindigan baza mamlakat ichidagi o'tkazmalar uchun shartnomalar qiymatidan kelib chiqib aniqlansa, import qilinayotgan tovarlar uchun soliq bazasi tovarning bojxona bahosi hamda bojxona bojlari va aksiz bojlarini qo'shib hisoblanadi. Soliq stavkasi 2015- yil oktyabrdagi soliq islohotlaridan keyin 8%dan 10%ga oshirildi. Ushbu stavka 2017-yil 1-aprelgacha qilib belgilangan edi, ammo mamlakatdagi iqtisodiy holatdan kelib chiqib 10%lik soliq stavkasini 18 oyga kechiktirildi.

Bojxona bojlari Yaponiyada Jahon Savdo Tashkiloti tomonidan belgilangan normalar asosida tartibga solinadi. Bundan tashqari, Yaponiyada har 3-5 yilda bojxonadan tovar olib kiruvchi importorlar bojxona auditidan o'tkaziladi, qnunbuzarlik holatlari aniqlangan holatlar bundan mustasno. Bojxona audit odatda, bojxona inspektorlari tomonidan o'tkaziladi. Bunda ular tekshiruv o'tkazish uchun tanlangan vimpotor yoki eksportordan bojxonaga oid dalolatnomalarni, yuk xalarini va boshqa hujjalarni talab qilib olish huqqiga ega. Odatda buday tekshiruv 2 oydan 6 oygacha davom etadi. Tekshiruv natijasida aniqlangan deklaratsiyaga kiritilmagan tovarga 15%, bojxona boji vaqtida to'lanmaganlariga esa 10% jarima qo'llaniladi.

Mol-mulk solig'i.

Yaponiyada mol-mulk solig'ini yuridik va jismoniy shaxslar bir xil stavka bo'yicha to'laydilar. Odatda bu mol-mulk qiymatidan 1.4 % ga teng bo'ladi, uch yilda bir marta qayta baholanadi. Soliq solish ob'ektiga butun ko'chmas mulk, bank depozitlari bo'yicha foizlari kiradi. Shu bilan birga mol-mulk solig'i mulkning bir egadoridan boshqasiga o'tayotgan paytidan, ya'ni mulkni xarid qilish va sotish paytida ham to'lanadi³⁵.

Meros solig'i va hadya solig'i.

Yaponiya meros va hadya soliqlari Soliq Qonuni bilan tartibga solinadi. Meros solig'i merosni qabul qilib olgan va vafot etgan shaxsning merosxo'ridan undiriladi. Hadya solig'i moddiy ko'rinishda sovg'a qabul qilib olgan shaxslardan undiriladi. Hadya solig'i meros solig'ini to'ldiruvchi soliq hisoblanadi. Ikkala soliq ham umumdavalat solig'i hisoblanadi va mahalliy darajada undirilmaydi. Meros solig'ida vorisning o'zi soliqqa tortiladi, uning meros tariqasida olgan mulki emas. Meros solig'i mulkning umumiyligi qiiymatidan kelib chiqqan holda har bir merosxo'r uchun alohida-alohida hisoblanadi³⁶.

Soliqni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

- Barcha merosxo'rlardan soliqqa tortiladigan mol-mukllar jamlanadi
- "Jami soliqa tortiladigan mulkning qiiymatidan" chigirilishi lozim bo'lgan ₩30 million hamda har bir meros oluvchining sonidan kelib chiqib, har biridan ₩6 milliondan chegiriladi.
- Soliqqa tortiladigan mulk qilyamati har bir soliq to'lovchining mulkka bo'lgan qismi doirasida taqsimlanadi

- Quyida berilgan progressive stavka bo'yicha har bir soliq to'lovchining ulushi doirasida alohida-alohida meros solig'i hisoblanadi.

Misol. Yaponiya bir kishi o'limidan oldi xotini va ikki o'g'liga 400 mln enlik merosni qoldirdi. Bunda xotiniga 200 mln en yoki merosning 50%i, o'g'illariga 100 mln endan. Meros oluvchilar uchun meros solig'ini hisoblaymiz:

4. Ruxsat etilgan summani umumiy soliq obektidan chegiramiz, ya'ni 30 mln+6 mln*3(meros oluvchi shaxs uchu nafar bo'lganligi uchun), jami 48 mln en bo'ladi.
5. 48 mln enni meros summasining nisbatidan kelib chiqib har bir meros oluvchidan chegiriladi, ya'ni ayoldan 24 mln en o'g'illaridan 12 mln endan.
6. Har biri uchun meros solig'i hioblaymiz.

Xotiniga: $200 - 24 = 176$ $176 * 40\% = 70.4$ mln en

Birinchi o'g'liga: $100 - 12 = 88$ $88 * 30\% = 26.4$ mln en

Ikkinchi o'g'liga: $100 - 12 = 88$ $88 * 30\% = 26.4$ mln en

Jami to'lanishi kerak bo'lган meros solig'i summasi: 123.2 mln enga teng.

Hadya solig'i hadya oluvchidan hadya bergen shaxs hayotlik vaqtida undiriladi. Hadya solig'ining soliq solinadigan bazasi deyilganda ruxsat etilgan 1.1 mln enni chiqrib tashlangandan so'ng kalendar yil davomida olingan sovg'alar qiymatidan kelib ciqib hisoblanadi. Hadya solig'i bo'yicha soliq stavkalari yaqin qarindoshlar o'rtasida beriladigan sovg'a bilan begona shaxslar bir-biriga beradigan hadyalar bo'yicha farqlanadi. Ushbu soliq turi bo'yicha eng past stavka 10% 2 million engacha bo'gan hadyalar uchun, eng yuqorisi 55% bo'lib, 45 milliondan yuqori bo'lган soliq bazasiga tadqib etiladi.

2.Yaponiya soliq ma'murchiligi tarkibiy tuzilishi va soliq to'lovchilar bilan ishlash tajribasi

Milliy soliq agentligi dastlab 1949- yilda daromad, korporativ, iste'mol soliqlari va shu kabi bir qator soliqlarni undirish maqsadida Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan.

Soliq siyosati Moliya vazirligi va uning tarkibiy qismi hisoblangan Milliy soliq agentligi tomonidan yuritilib, davlat soliq xizmati idoralari ijro etuvchi organ hisoblanadi.

Xizmatning tarkibiy tuzilishi Milliy soliq agentligining markaziy apparati, 12 ta hududiy boshqarmalari va ularning 524 ta soliq inspekteysiylari, soliq kolleji hamda, soliq arbitrajidan iborat.

Milliy soliq agentligining Markaziy apparatida 683 ta (1.2%), hududiy soliq boshqarmalarida 10,8 ming nafar (19.3%), davlat soliq inspekteysiylarida 43.9 ming (78.1%), soliq kollejida 336 (0.6%), soliq arbitrajida 477 nafar (0.8%) soliq hodimlari mehnat faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.

Ta'kidlash lozimki, umum davlat soliqlarini undirish va nazorat qilish bilan milliy soliq agentligi (56.2 ming nafar hodimlar) va malliy soliqlarni undirish bilan esa Municipial davlat idoralari (84 ming nafar) shug'ullanadi.

Soliqlarni undirish, soliq tekshiruvlarini tashkil etish va soliq to'lovchilarga xizmatlar ko'rsatish sohalari o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Yaponiyada Moliya vazirligi huzuridagi milliy soliq agentligi tomonidan umum davlat soliqlarining to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq hajmda davlat byudjetida tushishini nazorat qilinishi belgilangan bo'lib, mahalliy soliqlar va yig'implarni hududiy munisipalitetlar nazorat qilishi, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarining nazorati esa ushbu jamg'armalarini yig'ish bilan shug'ullanuvchi idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

To'langan soliqlar dastlab "Umum davlat soliqlarini yig'ish fondi"ga jamlanib, so'ngra oy yakuni bilan markaziy bankdagi davlat byudjet daromadlarini tashkil etuvchi maxsus hisob raqamiga o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Bunda Umum davlat soliqlarini yig'ish fondining nazorati Yaponiyaning Moliya vazirligiga yuklatilgan.

Yaponiyada kucha-kunduz (24 soat) ishlovchi savdo do'konlarida soliq to'lovlarini qabul qilish amaliyati joriy etilgan bo'lib, bu ish bilan band hodimlarni ishdan keying bo'sh vaqtlarida soliqlarni to'lash imkoniyatlarini beradi³⁷.

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan umum davallat soliqlari bo'yicha soliq davri va uni to'lash muddatlari qonunchilikda belgilangan bo'lsa, yuridik shaxslar to'laydigan ayrim umum davlat soliqlari bo'yicha korporatsiyalar hisob siyosatida ko'zda tutadigan soliq davri va uni to'lash muddatlaridan kelib chiqib, soliqlar bo'yicha hisobotlarni toshirish va to'lovni amalga oshirish huquqlari berilgan.

Bu birinchidan, tadbirdorlik faoliyatining erkinligini ta'minlasa, ikkinchidan, soliq hisobotlari va to'lovini har bir korporatsiya o'zi ixtiyoriy tanlash huquqini beradi.

Soliq qarzi mavjud bo'lgan soliq to'lovchilarga doimiy ravishda telefon tarmog'i orqali eslatmalar berib boriladi.

Yaponiyada soliq to'lovchilarni nazorat qilish maqsadida, birinchi navbatda, ularni hisobga olish ishlari amalga oshiriladi. Buning ucgun soliq to'lovchilarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tish, aniq yuridik manziliga ega bo'lish, yuridik manzili o'zgargan hollarda soliq idoralarini xabardor etish talab qilinadi. Bulardan tashqari, soliq organlari orasida o'zaro soliq to'lovhilar to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar almashinishi yo'lga qo'yilgan.

Soliq to'lovchilar to'g'risidagi dastlabki barcha ma'lumotlar jamlanib, kelgusida nazorat tadbiralarini amalga oshirish maqsadida, soliq to'lovchilar to'g'risidagi yagona ma'lumotlar bazasi "KSK" tizimi joriy etilgan³⁸.

Mazkur bazaga soliq organlari tomonidan to'plangan barcha hujjatlardan olingan ma'lumotlar, soliq to'lovlar bo'yicha hisobot ma'lumotlari va to'lovlar miqdorlari jamlanadi.

Soliq tekshiruvlarini tashkil etishdan avval ushbu ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda soliq to'lovchining Tovar aylanmasi va faoliyat turlariga qarab tahlil hamda kameral nazorat o'tkaziladi.

Qonun buzilishi mavjud holatlarda soliq to'lovchilar og'zaki va yozma ravishda ogohlantiriladi.

Soliq to'lovchilar soliq organlari tomonidan berilgan ogohlantirishlarga rioxha etmagan taqdirda, ixtiyori soliq tekshiruvlari, qonunchilik qo'pol ravishda buzilgan holatlarda esa majburiy soliq tekshiruvlari o'r kaziladi.

³⁷ www.nta.go.jp

³⁸ www.mof.go.jp

Yaponiya soliq tizimida ishlovchi hodimlarning 70% soliq tekshiruvlarini o'tkazish bilan shug'ullanadi.

Yaponiyada soliq to'lovchilar to'g'risida qonun buzilishi holatlarini oldini olish maqsadida, kerakli qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish joriy etilgan. To'plangan ma'lumotlar kelgusida soliq to'lovchilarni nazorat va tahlil qilish, so'ngra soliq tekshiruvlarini tashkillashtirish va o'tkazish uchun asos bo'ladi.

Yaponiya soliq tizimini rivojlantirish jarayonida soliq to'lovchilar bilan ishslash va ularga xizmatlar ko'rsatish sohasi ham mos ravishda shakllangan.

Soliq to'lovchilar bilan ishslashda interaktiv xizmatlar ko'rsatish, mamlakat fuqarolariga soliq sohasidagi bilimlarni yoshlidan singdirish soliqlar to'lashda ongi munosabatni shakllantirish, soliq majburiyatlarini bajarishda turli xildagi mustaqil institutlarning faoliyat ko'satish hamda soliq to'lovchilardan soliq qonunchiligi va soliq xizmati hodimlariga bo'lgan munosabatlarini doimo o'rganib monitoring qilib borish Yaponiyada soliq to'lovchilar bilan ishslashning ahamiyatli jihatlari hisoblanadi³⁹.

Mamlakatda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning elektron tizimi barcha fuqarolar uchun soliq sohasidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish hamda soliq bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Yaponiyada har bir fuqaro davlat soliq xizmati web saytiga kirib (www.nta.go.jp) soliq tizimi va soliq sohasidagi yangiliklar bilan to'liq tanishadi hamda shu veb sayt orqali soliq daklarastiyalari, hisobotlarni taqdim etishi, soliqlarni to'lashi soliq sohasidagi o'zini qiziqtirgan masalalar bo'yicha tegishli javonlar olishi, soliq organlari tomonidan o'tkazilayotgam auksionlar, er, mol-mulk narxlari va shu kabi boshqa ma'lumotlar olish imkoniyatlari ega.

Bundan tashqari Web-Tax-TV veb saytiga soliqlarga tegishli video materiallar, soliq idoralri tomonidan amalga oshirilgan ishlar, soliq qonunbuzarliklari bo'yicha tergov materialari, hamda xalqaro soliq munosabatlariga oid ma'lumotlar viedeo roliklar joylashtirib boriladi.

Mamlakat faqarolarida soliq madaniyatini yuksaltirish, soliq to'lashda ongi munosabatni shakllantirish maqsadida o'z-o'zini boshqarish organlari bilan hamkorlida har yili 11-17 – noyabr kunlari "Soliq haqida o'ylaylik" haftaligi o'tkazilib boriladi⁴⁰.

Ushbu tadbir davomida maktabalr va jamoat joylarida turli xil ko'rinishda tanlovlар, musobaqalar, yig'ilishlar tashkil etiladi. Mamlakat televideniyasi va internet tarmoqlari orqali soliq sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar berib boriladi hamda soliq idoralari "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etilib, soliqqa oid munosabatlar bo'yicha seminar, briefing va davra suhbatlari o'tkaziladi.

Yaponiyada soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish PR tizimi, ya'ni, aholi bilan ishslash, erkin muloqot va targ'ibot tizimi shakllanganini ham alohida takidlash lozim.

Ushbu maqsadda Yaponiya Milliy soliq agentligida va hududiy boshqarmalarda bo'limlar, yirik soliq inspeksiyalarda sho'balar tashkil etilgan va boshqa soliq

³⁹ An out Line of Japanese taxes System 2016

⁴⁰ Soliq to'lovchilar bilan ishslash Toshkent-“yangi asr avlod”-2010

inspeksiylarida maxsus mutaxasislar ajratilib, soliq to'lovchilar bilan erkin muloqotlar o'tkazadi va tashkiliy tadbirlarni amalga oshiradi.

Masalan, har yili turli sohalardan 1500 dan ortiq mutahasislarni jaib etib, ularga maxsus anketalar tarqatiladi va soliq sogasidagi hamda davlat soliq xizmati hodimlari to'g'risidagi fikr va mulohazalari o'rganib chiqiladi.

Yaponiyada soliq maslahati tizimi orqali soliq to'lovchilarga maslahat berish, telefon tarmoqlari orqli uning savollariga javob berish hamda hisobot va deklaratsiyalarni tuzishda soliq to'lovchilarga bevosita yordam ko'rsatib kelinmoqda.

Jumladan, Yaponiya soliq inspeksiylarida har yili dekalrastiya topshirish muddatlarida soliq xizmati hodimlaridan iborat soliq maslahatini beruvchi alohida guruhlar tashkil etilib, soliq deklaratsiyalarini to'g'ri va aniq to'ldirilishi hamda topshirilishida ular tomidan soliq to'lovchilarga yordam ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, mamlakat bo'yicha davlat soliq xizmatida 634 ta mutaxassis telefon orqali soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatdi.

Soliq to'lovchilarga soliqqa oid maslahatlar berish maqsadida, mustaqil institular, ya'ni soliq buxgalteriya sertifikatiga eg bo'lgan jamoat uyushmalari imtiyozli bo'lgan, ya'ni, "ko'k deklaratsiyalar"ni topshirishga ko'maklashuvchi 70 mingdan ortiq soliq maslahatchilari faoliyat ko'rsatmoqda.

Yaponiyada soliq tizimining asosiy negizi soliq to'lovchilarning o'zлari tomonidan hisoblab chiqqan holda soliqlarni to'lash hisoblanadi. Milly soliq agentligining asosiy yo'nalishi quyidagi 2 ta soha: "soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish", "soliq ma'murchiliginning adolatli va haqqoniy soliqqa tortishga erishishi" hisoblanadi⁴¹.

Soliqlarni to'lash tizimining soliq to'lovchilarning o'zлari tomonidan hisoblab chiqqan holda soliqlarni to'lash tushunchasi. Bu soliq to'lovchilarning o'zлari tomonidan deklaratsiya to'ldirgan holda daromadlari summasini belgilashlaridir. Buning uchun esa soliq to'lovchilar soliq qonunchiligidagi belgilangan majburiyatlarini o'z vaqtida sidqidildan bajarisjlarini tushunishlari kerak.

Yaponiyada soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish "soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish" bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Zarurat yuzasidan soliq to'lovchilarga deklaratsiya to'ldirishida maslahatlar va yordamlar ko'rsatishda boshqa bo'lim hodimlari ham bevosita ishtirop etadi.

Boshqacha qilib aytganda, "soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish" bu nafaqat ma'lum bir bo'limning, balki boshqa bo'limlarning ham bevosita ishidir.

Soliq organlarining asosiy ish yo'nalishini Davlat soliq boshqarmasi belgilaydi. Soliq departamentlari o'z tumanlarida sharoitdan kelib chiqib uni aniqlashtirishadi va soliq inspeksiylariga ko'rsatmalar berishadi.

Soliq inspeksiylarini o'z faoliyatlarini soliq departamenti ko'rsatmariga binoan, ularga qarashli soliq to'lovchilarning sonini shart-sharoit, korxonalar faoliyati, korxonalar masshtabini hoisobga olgan holda qo'l ostidagi tumanlarda olib borishadi.

Mavjud sharoitdan kelib chiqib, "soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish"dan har xil yondashuvlar talab qilinadi (misol uchun qishloq joylaridan shaharning har xil joylarini bilish, ushbu hudud yashovchilarining soliqlariga taalluqli bilimlar).

⁴¹ Soliq to'lovchilar bilan ishlash Toshkent-“yangi asr avlod”-2010

Ma'lumotlarni gazeta, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari orqalitarqatish chora tadbirlari bir-biriga yaqin bo'lgan soliq inspeksiyalari hamkorligida amalga oshiriladi. Bunday hamkorlik katta hududlarda ko'p o'tkaziladi.

Yaponiyadagi soliq tushumlarining 70% foizini yuridik shaxslaning foyda solig'i, deklaratsiya qilinadigan daromad solig'i, to'lov manbaidagi daromad solig'i va talab solig'i tashkil etadi⁴².

Deklaratsiya qilinadigan daromad soliq 10 turga bo'linadi. Asosiy deklaratsiya qilinadigan daromadlar – savdodan, qishloq xo'jaligidan, asosiy vositalar ijarasidan.

Yakka tartibdagи tadbirkorlar uchun "tijoratni ro'yxatga olish kitobi" yo'q. Shuning uchun soliq organlari yakka tartibdagи tadbirkorlar sharoitini bilish uchun ularning manzillarini aniqlashtirishadi. Bundan tashqari, soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ham ko'p narsa bog'liq.

Daromad solig'i to'lovchilar kata miqdorni tashkil etadi, bu shaxslar soliq organlari bilan deklaratsiya to'ldirish va soliqlarni to'lashda ro'para bo'ladigan shaxslar hisoblanadi. Bular to'lov manbaidan soliq ushlab qoladigan agentlar hisoblanishadi (oylik to'lovchilar, dividentlar beruvchilar, foizlar beruvchilar va boshqalar).

To'lov manbaidan soliq ushlab qoladigan agentlar, asosan yuridik tashkilotlarning foyda solig'i hamda dekalrastiya qilinadigan daromad solig'i to'lovchi yuridik shaxslar, yakka tartibdagи tadbirkorlar, moliya tashkilotlari hisoblanishadi.

Soliqlarni deklaratsiya qiladiga shaxslar orasidan ko'plari ortiqcha to'langan soliqni orqaga qaytarish uchun dekalarastiya to'ldirshadi.

Har oyda maoshdan ushlab qolinadigan daromad solig'i summasi bir yil davomida to'lanadigan miqdordan oshish holatlari ham uchraydi.

Soliq to'lash jarayonlari nuqtai nazaridan, Yaponiya soliq to'lovchilarini 3 turga ajratish mimkin⁴³.

Birinchi turi, yakka tartibdagи tadbirkorlar va yuridik shaxslar. Ular doimiy xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishadi va har yili deklaratsiya topshirishadi, lekin bulardan kamida 5 milliondasi yuridik shaxslarning daromad va foyda solig'i to'lovchilari soliq manbayidan soliq ushalb qoladigan agentlar hisoblanadi. Ularning ulushi Yaponiya soliq tushumlarining yarmini tashkil etadi.

Ikkinchi turi, soliq manbaidan soliq ushlab qoladigan soliq to'lovchilar. Boshqacha qilib aytganda, ish haqidan, dividentlardan daromad oluvchi va undan daromad solig'i to'lovchi xizmatchlar hisoblanadi, hamda ushbu guruhga Yaponiya fuqarolarining katta qismi kiradi.

Uchinchi turi, ortiqcha to'langan soliqni qaytarib berishni so'rab deklaratsiya to'ldirgan individual soliq to'lovchilar. Ushbu guruhga kiruvchi soliq to'lovchilar har yili deklaratsiya to'ldirishi shart emas. Daromad summasi oshishi yoki kamayishi, tizimdagи o'zgarishlar tufayli (pensiya bilan bog'liq holatlar va boshqalar) deklaratsiya to'ldiriladi⁴⁴.

⁴² 2017 Japan Tax reforms outline

⁴³ Taxation in japan 2015 -KPMG Taxcorporation

⁴⁴ Soliq to'lovchilar bilan ishlash Toshkent-“yangi asr avlodи”-2010

Boshqacha qilib aytganda, ortiqcha to’langan soliq summasini qoplab berish bo'yicha topshiriladigan deklaratsiyalar soni 10 milliontani tashkil qilsada, ularning ma'lumotlari har safar o'zgaradi. Ortiqcha to’langan soliq summasini qaytarib berish bo'yicha topshiriladigan deklaratsiyalar topshiruvchilarning asosiy qismini manbadan daromad solig'ini to'lovhilar hisoblanadi.

Bundan tashqari, Yaponiyada soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish quyidagi 5 ta yo'nalishda olib boriladi:

1. Ma'lumotlarni bevosita taqdim etish.
2. Alohida aniq boshqaruv
3. Oxirgi deklaratsiya topshirish mobaynida ma'lumotlarni tarqatish
4. Soliq maslahatchilarini orqali ma'lumotlarni tarqatish
5. Ma'lumotlarni oddiy usulda tarqatish yo'li

Yaponiya soliq tizimi ma'lum sxema bo'yicha tuzilmagan. Uning hozirgi holati ko'p yillik izlanishlar evaziga yaratilgan. Bundan tashqari, unga soliq qonuchiligidagi va jamiyatdagi o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan.

Yuridik shaxslar orasida kichik masshtabli korxonalar ham bor, ularning sotuv hajmi esa juda kam. Individual yadvirkorlar orasida esa kattakorxbalari borlari mavjud, lekin ularning ko'pchiligi kichik korxonalar bo'lib, ularda faqat oila a'zolari ishlashadi. Bunday tadbirkorlar soliq maslahatchilaridan kam foydalanishadi. Ular kunlik majriyatlar bilan band. Ularning buxgalteriya hisobotlarida ahvolni to'g'ri aks ettirmaslik tendentsiyasi kuzatiladi. Deklaratsiyalarni topshirish vaqtid bunda ykichik tadbirkorlarga ularni to'g'ri to'ldirish uchun ko'p holatlarda yordam ko'rsatishga to'g'ri keladi. Bu esa soliq organlarining soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishdagi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning foyda va iste'mol solig'i bo'yicha soliqqa tortish davr bu yuridik shaxsning xo'jalik yili hisoblanadi. Har bir yuridik shaxsning xo'jalik yili har qanday davr bo'lishi mumkin (bir yildan oshiq bo'limgan davr).

Yuridik shaxslarning foyda va iste'mol soliqlarini to'lash va dekalrastiyalarni to'ldirish davri xo'jalik yili tugagandan so'ng 2 oydan keyin boshlanadi. Daromad solig'ini soliqa tortish davri calendar yili hisoblanadi. Daromad solig'ini to'lash va deklaratsiya to'ldirish muddati keying yilning 15- marti, iste'mol solig'ini to'lash va deklaratsiya to'ldirish muddati esa 31-mart deb belgilangan⁴⁵.

Yaponiyada soliq ma'murchilagini asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan soliq hisobotlari va ular bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tartibi xususida to'xtolib o'tamiz. Yaponiyada soliqlarni deklaratsiya qilish va to'lash tizimi qabul qilingan bo'lib, unga amal qilinishini ta'minlash maqsadida soliq inspeksiyalari o'tkazib turiladi. Agar deklaratsiyalarni oddiy tekshirish paytida xatolar aniqlanadigan bo'lsa, to'lanadigan soliq miqdoriga o'zgarish kiritiladi. Bu kabi oddiy tekshirishlar soliq to'lovchining roziligini olgan holda o'tkaziladi.⁴⁶

Deklaratsiyalarning qonunga to'g'ri kelishi tekshirib bo'lingach, daromadlarni hisoblash va deklaratsiyaga kiritish chog'ida yo'l qo'yilgan xatolar to'g'rilanadi. Bu

⁴⁵ Soliq to'lovchilar bilan ishslash Toshkent-“yangi asr avlodji”-2010

⁴⁶ Guide to Japanese tax 2016-2017 by Yugi Gomi. Zaikei Shoho Sha. Higashi Shombashi. Minatoku. Tokyo. Japan. P. 93.

kabi xatolarni to'g'rilash deklaratsiya tizimining asosi bo'lib, soliqqa tortishdaadolatni ta'minlash uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Xullas, soliq inspeksiysi va soliq tekshiruvlari soliq boshqarmalari faoliyatining muhim jihatni hisoblanadi.

Soliq to'g'risidagi qonunga ko'ra, soliq organlarining inspektorlari soliq to'lovchini so'roq qilishi va uni tekshiruvdan o'tkazishlari mumkin. Bu so'roq qilish va tekshiruv o'tkazish huquqi, deb ataladi. So'roq o'tkazish huquqi soliq organlarining xodimlari soliqlarni boshqarishdagi barcha ishlarni to'g'ri yuritishlarini ta'minlash maqsadida berilgan. Agar tekshirilayotgan soliq to'lovchi savollarga javob berishdan bosh torsta yoki tekshirish o'tkazishga to'sqinlik qilsa, u qonun oldida javob berishiga to'g'ri keladi. Yaponiyada tekshirishlar rejasid yo'q. Bunday reja tuzilmaydi.

Barcha soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar to'planib, yillik deklaratsiyalarning to'g'riligi tekshiriladi, so'ngra yanada chuqurroq tekshirilishi lozim bo'lган shaxslar ajratiladi. Bu - yillik deklaratsiyalar topishirilganidan so'ng aprel va may oylarida o'tkaziladi. Agar deklaratsiyalarni tekshirish chog'ida xatolar borligi aniqlansa yoki daromad miqdori noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, soliq to'lovchiga bu haqda telefon yoki xat orqali xabar beriladi. Shundan so'ng soliq deklaratsiyasiga tegishli tuzatishlar kiritiladi.

Agar soliq to'lovchi katta biznes bilan shug'ullansa yoki u tomondan deklaratsiya g'ilinmagan daromad mig'dori haddan tashg'ari katta bo'lsa, maxsus tekshiruv o'tkaziladi.

Umuman olganda Yaponiyada davlat soliqlari pul yoki qimmatbaho qog'ozlar yordamida to'lanib, banklar va soliqlarni yig'ish bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilotlarga topshiriladigan xujjalarga soliq to'langani haqidagi to'lovnoma qo'shib qo'yiladi. Lekin gerbli yig'imlar hamda listenziya olish uchun to'langan soliqlar pul yoki gerbli markalar yordamida to'lanadi.

Deklaratsiya qilingan daromad solig'i, meros va hadya solig'ini to'lash muddatlari kechiktirilishi mumkin. Agar soliq to'lovchi tabiiy ofat natijasida jiddiy moddiy zarar ko'rgan bo'lsa va bu haqdagi ma'lumot deklaratsiyaga kiritilsa, unga bir yilgacha maxsus imtiyoz beriladi.

Davlat soliqlari to'lash Yaponiya banki, pochta yoki soliq boshqarmalari orqali amalga oshiriladi. Mamlakat bo'y lab taxminan 24 ming bank bo'limi, 20 ming pochta bo'limi va 524 soliq boshqarmasi mavjud bo'lib, soliq to'lovchilar uchun maksimal darajada qulaylik yaratilgan. To'plangan soliqlar hukumatning Yaponiya bankidagi hisobiga kelib tushadi⁴⁷.

Davlat solig'ini undirishni ta'minlashda ustuvor e'tibor, avvalo, davlat soliqlarini to'lashga qaratiladi. Davlat solig'ini undirish to'g'risidagi qonunga muvofiq, davlat solig'i barcha boshqa majburiyatlardan avval to'lanishi kerak. Agar davlat solig'i o'z vaqtida to'lanmasa, to'lov talabnomasidan so'ng soliq to'lovchining mulki musodara qilinib, sotiladi va ushbu mablag' soliq sifatida davlat hisobiga o'tkaziladi. Lekin agar soliq to'lov muddati o'tib ketganidan keyin ham to'lanmaslik xavfi mavjud bo'lsa, to'lov muddati tugagunga qadar soliqni majburiy ravishda undirishga kirishiladi. O'z

⁴⁷ Taxation in Japan 2015 -KPMG Taxcorporation

shaxsiy sharoitidan kelib chiqqan holda, soliq to'lovchi to'lov muddatini kechiktirish uchun muddat olishi mumkin⁴⁸.

To'lanmagan davlat soliqlari bo'yicha, odatda, 50 kun ichida soliqni to'lash talabnomasi yuboriladi. Agar ana shu muddat ichida soliqlar to'lanmasa, soliq to'lovchining mulkini musodara qilish jarayoni boshlanadi. Musodara qilingan mulkni sotishdan olingan mablag' soliq sifatida ushlab qolinadi. Soliq boshqarmasi bu ishlarni sud ishtirokisiz amalgalashadi. Musodara qilish jarayoni talabnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan so'ng 10 kundan keyin boshlanadi. Agar soliq to'lovchi soliqlarni mulki musodara qilingandan keyin ham to'lamasa, musodara qilingan mulk sotiladi va bundan tushgan mablag' soliq sifatida davlat hisobiga o'tkaziladi.

Odatda, davlat soliqlarini ko'rsatilgan muddatning oxirgi kunigacha to'lash mumkin. Lekin soliq to'lovchining harakatlari, xususan soliq to'lashdan bosh tortish yoki maxsus sabablar, jumladan, bankrotlik tufayli soliq to'lanmasligining xavfi paydo bo'lsa, odatda, oldini olish choralari (masalan, soliqni muddatidan oldin to'lash to'g'risidagi talabnama, mulkni musodara qilish va hokazo) qo'llaniladi.

Yaponiya Davlat soliq boshqarmasi o'z ish yuritish jarayonida kompyuterlardan **1966 yil 2 fevralidan** foydalana boshlagan. 80 yillarning oxirida va 90 yillarning boshlarida umumiy onlayn tizimi amalgalashadi. Bundan tashqari, soliq ma'murchiligi tizimida ro'y bergan o'zgarishlar bois soliq boshqaruvi tizimining darajasi va samaradorligini oshirish maqsadida davlat soliqlarini umumiy boshqarish tizimi – KSK tizimi amalgalashadi.

1995 yil yanvaridan KSK tizimidan Tokio soliq boshqarmasining ikkita soliq inspeksiyasida eksperiment o'tkazish uchun foydalanilgan. So'ngra bu tizim mamlakatdagi barcha soliq boshqarmalariga tarqalib, 2001 yili Yaponiyaning barcha soliq organlari mazkur tizimga o'tgan⁴⁹.

Soliq to'lovchilarining huquqlarini himoya qilish bu Yaponiyada soliq ma'murchilagini asosiy e'tiborli jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunda murojaat qilish tartibi quyidagi tartibda amalgalashadi. Agar soliq to'lovchi soliq organlarining faoliyatidan norozi bo'lsa yoki soliq boshqarmasi boshlig'inining qarorlarini asossiz deb hisoblasa, o'z huquqlarini himoya qilishni so'rabsa, soliq komissiyasiga murojaat qilishi mumkin. Shikoyat va arizalar tizimi tez va jo'n prostedura jarayon bo'lib, soliq to'lovchining huquqlarini muhofaza qilishga yo'naltirilishi mumkin.

Agar soliq to'lovchi soliq boshqarmasi boshlig'inining davlat soliqlarini undirish to'g'risidagi qaroridan norozi bo'lsa, qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki oy davomida qarorga nisbatan protest berishi mumkin. Qarorlar doim soliq boshqarmasi boshlig'i tomonidan qabul qilinadi, shu bois protest har doim uning nomiga yoziladi. Lekin agar inspeksiya davlat yoki mintaqaviy soliq boshqarmalarining xodimlari tomonidan o'tkazilgan bo'lib, soliq boshqarmasining boshlig'i ana o'sha inspeksiya natijalariga asoslangan holda qaror chiqargan bo'lsa, protest yoki shikoyat davlat va mintaqaviy soliq boshqarmasi boshlig'i nomiga yoziladi. Qabul qilingan qaror to'g'risidagi ma'lumotnomada qarordan norozi bo'lgan taqdirda protest va

⁴⁸ Soliq to'lovchilar bilan ishslash Toshkent-“yangi asr avlod”-2010

⁴⁹ Guide to Japanese tax 2016-2017 by Yugi Gomi. Zaikei Shoho Sha. Higashi Shombashi. Minatoku. Tokyo. Japan. P. 121.

shikoyatlarni qaerga yuborish lozimligi ko'rsatib o'tiladi. Bu – ishni qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza bo'lib, quyidagi holatlarda soliq komissiyasiga yoziladi. Bu kabi arizalarni berish muddati: agar soliq to'lovchi ilgari qabul qilingan qarorga nisbatan protest yozgan bo'lsa, yangi qarorni olgandan so'ng bir oy ichida; agar u birinchi marta yozgan bo'lsa, soliq boshqarmasi boshlig'ining qarorini olgandan so'ng ikki oy ichida.

Qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza bo'yicha qaror soliq masalalari bo'yicha komissiya raisi tomonidan komissiya a'zolarining xulosasiga asoslangan holda qabul qilinadi. Agar soliq to'lovchi soliq komissiyasining qaroridan ham norozi bo'lsa, ish sudgacha etib borishi mumkin. Umuman olganda, yuqorida aytib o'tilgan ikkita qarorsiz ish sudgacha bormaydi. Lekin soliq to'lovchining arizasi bo'yicha uch oy davomida qaror chiqarilmasa va ba'zi bir boshqa holatlarda soliq to'lovchi to'g'ridan-to'g'ri sudga murojaat qilishi mumkin⁵⁰.

Soliqqa tortish ishlari hamma holatda to'liq manbadan soliq ushlab qoluvchi agenntlar tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, manbadan soliq ushlab qoladigan agentlar ushlab qolingga soliqni soliq organlariga to'lab berishadi va yil oxirida hisob-kitob qilishadi. Shunday qilib, ular so'ngi deklaratsiya to'ldirish va soliqlarni to'lashni maosh ko'rinishida daromad oluvchi soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirishadi.

Maosh ko'rinishida daromad oluvchi soliq to'lovchilar amalga oshradigan jarayonlar oddiy bo'lib, ish beruvchiga quyidagi ma'lumotlar beriladi:

-yil boshida maosh beruvchi ish beruvchiga yuqorida keltirilgandek, maoshdan boshqa oylik oladimi-yo'qmi shu too'g'risida ma'lumot berish kerak;

-yil oxirida ishni to'gri yo'lga qo'yish va soliq summasini aniqlash uchun "Yilik soliq summasidan ushlab qolinadigan hayotini sug'urta qilgan summa va boshqalar", "Oiladagilar soni" va "Maosh jo'rinishida daromad oluvchilar yillik hisoboti" tuzishda kerak bo'ladigan ma'lumotlar berish.

Soliq maslahatchilaridan foydalanish korxonalar tomonidan belgilanadi. Soliq maslahatchilarida foydalanish uchun shrtnoma tuzish (ishonch shartnomasi) va buxizmatlar uchun haq to'lash kerak. Bunda korxonalar katta va ma'lum kapitalga ega bo'lishi kerak.

Asosan, soliq maslahatchilaridan yuridik va individual tadbirkorlar foydalanishadi, kichik tadbirkorlar esa bunda xizmatlarda fodalanishga qiynalishadi.

Soliq malahatchilarining asosiy ishi:

- 1)soliq to'lovchining vakili sifatida soliq organlarida ular nomidan ish yuritish;
- 2)soliq hujjatlarini tuzish;

3)soliq tekshiruvlarida ularning ishtiroki kuztilsa-da bunday yordamning shakli turlicha bo'lishi mumkin.

Odatda, kunnik buxgalteriya ishlarini yuritish, moliyaviy hisobot va soliq deklaratsiyasini tuzish boshqarishga taalluqli maslahatlarni berish uchun tuziladi. Qanday xizmat ko'rsatishdan qat'iy nazar, soliq to'lovchilar soliq maslahatchilarining professional bilimlari va qonuniy statusi foydalanishadi. Bu o'z-o'zidan soliq organlari

⁵⁰Taxation in japan 2015 -KPMG Taxcorporation

uchun foydali, chunki bunda deklaratsiyalar to'g'ri to'ldirilgan holda, soliqlar ham o'z vaqtida to'lanadi.

3. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi va uning kontseptual asoslari

Rossiya soliq tizimining faoliyati va rivojlanishi kompleksi jarayon va u maqsadni belgilash va amalga oshirish mexanizmlari hamda mezonlarini aniqroq belgilanmaguncha to'g'ri rivojlnana olmaydi. Amaldagi soliq engilliklarining maqsadi farqli byudjet darajalarinii ular uchun zarur bo'lgan daromadlarga muvofiq barpo etish hisoblanadi. Byudjetning keragidan ortiq to'lovlardan voz kechish rejalashtirish usullari orqali amalga oshiriladi va uning bajarilishi davlat daromadlari manbalariga muvofiqligini talab etadi. Byudjetning ortiqchaligi iqtisodiy engilliklardagiadolastizlikning bir qismi hisoblanadi hamda soliq solishda mantiqiy namoyon bo'lishini taqqoslash orqali baholash mumkin. Moliaviy moslik sabablari tomonidan o'zini oqlamaydigan muammo hisoblanadi. Dunyo bo'yicha byudjet daromadlarida amaldagi soliq engilliklariningadolatliligi taqqoslangan, bunda Rossiya amaliyoti o'z ichiga olingan. U quyidagicha rivojlanadi va foydalaniadi:

Birinchidan, soliq solish umumiyliz tizimini takomillashtirish metodlari;

Ikkinchidan, soliq stavkalarni yondashishida tabaqlashtirilgan tartibda yondashish;

Uchinchidan, soliq turlarining ko'pligi, ularning har biri bo'yicha yagona baza asoslarini ma'qulligini aniqlashga ega bo'lish.

Soliq tizimining rivojlantirishning strategik maqsadi boshqaruv mexanizmlarini o'stirish orqali amalga oshirish hisoblanadi, bu o'z ichiga soliqlarni tabaqlashtirish, soliq stavkalari o'zgarishlari, soliq imtiyozlaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga moliaviy harakatlarning muvofiqligi, bu iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish bilan o'lchanadi.

Rossiyada yagona soliq tizimini rivojlantirishga qarab 1991-1992 yilda muhim qadam qo'yildi, dunyo amaliyotidagi ijobiy tajribalar hisobga olindi. U klassik soliq nazariyalaridek jozibador bo'lishi kerak edi va konstepstiyalar uzoq vaqtadan beri rivojlangan bo'lishi kerak edi, muammolarni echimini topishda bozor iqtisodiyotiga asoslandi. Rossiya 1991 yilda federal, regional va mahalliy darajadagi ssoliqlar va to'lovlar bilan murakkab uch bosqichli soliq tizimi joriy qilindi. Ular quyidagicha tasdiqlangan: federal 15 ta, regional 3 ta, mahalliy 21 ta, umumiy 39 ta soliqlar va to'lovlar belgilandi. Bekor qilingan qo'shimcha soliqlar va to'lovlardan tizimi o'rniga davlat ijtimoiy jamg'armasi, byudjetga qo'shimcha davlat fonlari belgilandi hamda ularni chegirishning alohida nomalari belgilandi.

4. Xitoy soliq tizimi shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Xitoyning iqtisodiy rivojlanishi va shaharlashuvi hamda keng qamrovli aholining daromadlaridagi farqlarini hisobga olgan holda zamonaviy soliq tizimini qanday qilib rivojlantirish muhokamasi Xitoy hukumati uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy soliq tizimining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Amaldagi Xitoy soliq tizimi regressive, murakkab hamda byudjet xarajatlari uchun daromad etarli emas. Ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida bir qator soliq islohoti

ko'rsatmalari ishlab chiqilgan. Bu o'z ichiga yuqori daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga daromad solig'ini oshirish va bosqichma-bosqich mazkur jismoniy shaxslar sonini kengaytirish, ist'emol solig'i hajmini oshirish va barcha soliqlar bo'yicha zarur bo'lman imtiyozli soliq munosabatlarini bekor qilishni oladi.

Xususan, Xitoy soliq tizimini muhokama qilish asosan ikkita sababga ko'ra muhim hisoblanadi.

Birinchidan, u katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega va bu esa daromad bo'yicha farqlar bilan bog'liq, soliq tizimi iqtisodiy o'sishdan olingan foydani va daromadni qayta taqsimlashda muhim rolni o'ynashi kerak.

Ikkinchidan, Xitoyning iqtisodiy rivojlanishi va shaharlashuvi bilan bog'liq, bu erda har doim xalq tovarlari va sog'liqni saqlash xizmatlari, yo'llar, xalq ta'limi, infrastrukturaning rivojlanishi, millionlab baxstizliklar uchun umumiyl xavfsizlik dasturlari va millionlab qari yoshdag'i fermerlar uchun qarilik nafaqalari uchun talab yuqori bo'lgan. Bu turdag'i barcha xizmatlar daromadning katta miqdorini talab qiladi. Hozirda Xitoya soliqqa tortish YaIM ning 18 foizini tashkil qiladi va bu esa zarur bo'lgan byudjet daromadi miqdori uchun etarli emas. Xitoyning amaldagi soliqqa tortish tizimi bilvosita soliqqa tortish og'irligiga suyanadi ya'ni QQS, biznes solig'i va maxsus iste'mol qilinadigan tovarlar uchun soliqlar ko'proq miqdorda undiriladi. Bu shaxsiy daromad va yuqori daromad oluvchilarining jadal o'sishi bilan bog'liq, shaxsiy daromad solig'ida yuqori soliqqa tortish o'zgaruvchan bu esa etkazib berish xizmatlariga ko'ra ishlab chiqarishda ko'proq daromad olish imkonini beradi.

Amaldagi Xitoy soliq tizimi 1994 yilda Soliq tizimi islohoti Akti bilan joriy qilingan, bunda bozor iqtisodiyotiga mos soliq tizimini olishga harakat qilingan. O'shandan buyon faqat bir ikkita o'zgarishlar qilingan xolos. Joriy soliq tizimida 25 ta soliq turi mavjud. Ular 8 ta guruhg'a ajratiladi:

1. Oborot soliqlari. Bu o'z ichiga QQS, iste'mol solig'i va biznes soliqlarini oladi.
2. Daromadni soliqqa tortish. Bu tadbirkorlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'z ichiga oladi.
3. Resurs soliqlari. Bu resurs solig'i va shahar hamda shahar tipidagi qishloq eridan foydalanganlik uchun soliqni o'z ichiga oladi.
4. Mulk soliqlari. Bu uy-joy solig'i va shahar ko'chmas mulk solig'ini o'z ichiga oladi.
5. Maxsus maqsadlar uchun soliq. Bu shahar qurish va ta'mirlash solig'i, asosiy aktivlarga investition yo'naliishlarni tartibga soluvchi soliq va er qimmatlashishi hamda qishloq xo'jaligini egallash solig'ini o'z ichiga oladi.
6. Xatti-harakat soliqlari. Bu bir qator soliqlarni ya'ni transport vositasi va kema solig'i, transport vositasi va kemadan foydalanish uchun listenziya solig'i, shtamp solig'i, ish-harakat solig'i va ziyofat solig'i.
7. Qishloq xo'jaligi soliqlari. Bu qishloq xo'jaligi solig'i va hayvon erlari solig'ini o'z ichiga oladi.
8. Xaridorlar bojlari. Bular Xitoy davlati fuqarolari tomonidan import qilingan tovar va buyumlardan undiriladi.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Yaponiya soliq ma'murchiligi tarkibiy tuzilishi va soliq to'lovchilar bilan ishslash tajribasi;
2. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi va uning kontseptual asoslari;
3. Xitoy soliq tizimi shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari;
4. Yaponiya davlatining tizimi va soliq siyosatining o'ziga xos jihatlari.
5. Xorijiy mamlakatlarda soliq ma'murchiligin amalga oshirish tartiblari?
6. Rivojlangan mamlakatlarda soliq ma'murchiligin amalga oshirish tahlili.
7. Xorijiy mamlakatlarda soliq ma'murchiligin samarali amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillar

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 iyuldaggi PF-5116 sonli Farmoni

3. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagagi 677-son qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 avgustdagagi PQ-3168 sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi 2017 yil 22 dekabr <http://xs.uz/>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-son qarori

7. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-454-son qonuni

8. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 30 dekabrdagi "Soliq ma'muriyatichiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-455-son qonuni

9. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi "Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul

qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-456-son qonuni

10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. –T.: “O‘zbekiston”. hisobot

11. Toby Stock. Advanced in Taxation. Copyright @ 2010 y. Emerald Group Publishing limited.

12. Schanz, Deborah, Schanz, Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. © 2011

13. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogoooblojenie: Uchebnik.–7-e. izd., pererab.i dop.- Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2009. – 227 s.

14. Nalogovoe administrirovanie: uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod red. L.I. Goncharenko. - M.: KNORUS, 2009. - 448 s.

15. Panskov V.G. Nalogi i nalogoooblojenie: teoriya i praktika: uchebnik dlya vuzov / V.G. Panskov. - M.: Izdatelstvo Yurayt; ID Yurayt, 2010. - 680 s.

16. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.

17. Vahobov A.V, Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448- bet.

V. KEYSLAR BANKI
BIRINCHI NAMUNA.
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOShKENT DAVLAT IQTISODIYot UNIVERSITETI

Bazarov Q.T.

**“Soliq ma'muriyatichiligi” o'quv kursining
“Fermer xo'jaliklarini soliqqa tortish” mavzusi bo'yicha tayyorlangan**

KEYS- STADI

Keys: «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligida bir turdag'i ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini o'rganish .

Toshkent – 2022

I. Keys

1. Fanning nomi: “Soliq ma’muriyatchiligi .

Mavzuning nomi: “Fermer xo’jaliklarini soliqqa tortish ” mavzusiga moslangan keys-stadi.

2. Berilgan keysning maqsadi: Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko’rsatkichlarini Xorazm viloyati Bog’ot tumani «Qoramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo’jalogining o’tgan-hisobot yillardagi iqtisodiy ko’rsatkichlari asosida hisoblaymiz;

Kutilayotgan natijalar: Fermer xo’jaligi faoliyatini o’rgangan holda, bilimni chuqurlashtirish, yalpi mahsulot yaratish uchun sarflangan mablag’larni miqdorini aniqlash, yalpi mahsulot miqdorini, tarkibini, foydalanish darajasini va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlilini o’rganib chiqish va berilgan muammolarni echish. Keys muqaffaqiyatlari echish uchun talabalar **quyidagi natijalarga** erishishlari lozim: qishloq xo’jaligida, turli mulk shakllaridagi xo’jaliklarda, mintaqalarda yalpi mahsulot miqdorini, ularning tarkibi va xolatini, ularning xarakatini aniqlash, yalpi mahsulotga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va iqtisodiy samaradorligini taxlil etish.

3. Mazkur keys institutsional tizimning real faoliyat asosida ishlab chiqilgan;

4. Keysda ishlatilgan ma’lumotlar manbai quyidagilardan iborat: Xorazm viloyati Bog’ot tumani «Qoramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo’jalogining o’tgan-hisobot yildagi iqtisodiy ko’rsatkichlari asosida, ushbu korxonaning nizomi, Xorazm viloyati qishloq xo’jalogining statistik ma’lumotlari.

5. Mazkur keys dala tadqiqotlari asosida syujetli toifasiga kiradi. Holat birlashmaning tahliliy ko’rsatkichlari asosida tuzilgan. Keysning ob’ekti bo’lib: Xorazm viloyati Bog’ot tumani «Qoramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra” fermer xo’jalogining Xorazm viloyati Bog’ot tumani «Qoramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra” fermer xo’jalogining hisoblanadi. Ushbu keys ma’lumotlar va dalillar asosida ishlab chiqilgan. U tuzilmaviy va katta hajmdagi keys – stadi hisoblanadi.

6. Didaktik maqsadlarga ko’ra keys – tahlillarni o’rgatish va baholash hisoblanadi. Shu sababdan, keys muammosining shakllanishi va tuzilishi uning masalasining echimida algoritm va tahlil asosida ishlab chiqilgan. Gologramma sifatida ba’zi ma’lumotlar nazariy jihatdan berilgan bo’lib, qo’shimcha axborotlar muammoli holatlarni amaliy mashg’ulotlarda o’z echimlariga ega bo’ladi.

Keysning afzalliklariga quyidagilar kiradi: O’quv darsining keys – texnologiya o’qitish bo’yicha, talabalarning o’zi tashkil etgan ish faoliyatining ta’minlovchi va uning natijaviy bahosini belgilovchi “Holatiy tahlil varaqasi” mavjud.

7. Ushbu keys – “Mehnat statistikasi”, “Ikroiqtisodiy statistika va MHT”, fanlarining mashg’ulotlarida foydalanish mumkin.

KIRISH

Respublikamiz hukumatining faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati hozirgi vaqtida, ayniqsa, qishloq joylarda iqtisodiy infrastrukturani ishbilarmon tadbirkorlar tomonidan takomillashtirish va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Ko'p xarajatlar talab qilinishiga qaramay, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish tadbirkorlar oldida turgan dolzarb vazifalardan eng asosiysi hisoblanadi.

Quyidagi ma'lumotda Xorazm viloyati Bog'ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra» fermer xo'jaligining ish faoliyati haqida asosiy tushunchalar, dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibini va foydalanish darajasi xaqida va boshqa ma'lumotlar berilgan.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ayrim turlari naturada, umumiy hajm va tarkibi pul qiymatida hisobga olinadi, chunki asosiy foydalarni pul qiymatida hisoblash shu ho'jalikda asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag'larni miqdori, shuningdek, asosiy fondlarning etishtirilgan mahsulotlarga o'tgan qiymatini aniqlash imkonini beradi. Natijada dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng asosiy natijaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Mazkur keysda ushbu fermer xo'jaligining hisoblangan har bir ko'rsatkichi mustaqil iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, fermer xo'jaligida yalpi hosilni yaratish uchun sarflangan mablag' miqdorini aniqlash imkonini beradi. Qishloq xo'jalik korxonalarining buhgalteriya hisobida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish boshlang'ich qiymatida hisobga olinadi. Shu bilan birga dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish turli vaqtarda hosil qilinadi, demak ularning baholari ham turlicha buladi. Shu sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng asosiy natijaviy ko'rsatkichlari ekin turlari bo'yicha yalpi hosil va hosildorlik tushunchasi, ularni ishlab chiqarishning turli davrlarida aniqlash usullarini, turli ekinlarni hosildorlikni nobud bo'lish darajasi va uni sabablari, nobud bo'lgan hosil miqdorini hisoblashni, yalpi hosil miqdori va unga ta'sir qiluvchi omillarni, hosildorlik darajasi dinamikasini o'rganib o'zgarish xususiyatlari, ya'ni qonuniyatni aniqlash va uzoq muddatda tabiiy omillarni ta'sirini o'rganadi.

Keysda masalaning echimi orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- mazkur mavzu bo'yicha bilimni chuqurlashtirish;
- individual va guruhlarda muammoning echimi tahlilini va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqish;
- mantiqiy fikr yuritishni jonlantirish;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'quv ma'lumotlarni o'rganish darjasini tekshirish;
- yalpi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'llari topish.

1. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra» fermer xo'jaligiga iqtisodiy tavsifnomा

Tashkilotning manzili:

Fermer xo'jaligi Xorazm viloyati, bog'ot tumanida joylashgan bo'lib, 1998 yildan boshlab faoliyat yuritadi.

Tashkilotning to'liq nomlanishi:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra» fermer xo'jaligi.

Tashkilotning tashkil etilgan yili:

Xorazm viloyati Bog'ot tumani Hokimining 1998 yil 10 martdagi 234-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tgan.

Tashkilotning shakli:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra fermer xo'jaligi” yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, tumani Hokimining 1997yil 22 martdagi 70-sonli qaroriga asosan ro'yxatga olingan.

Tashkilotning faoliyat turi:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra fermer xo'jaligi”

quyidagi mahsulot turlari etishtirish bilan shug'ullanadi:

1. Paxta
2. Bug'doy
3. Sholi

Tashkilotning maqsad va vazifalari:

- ishlab chiqarishni yanada kuchaytirish va halqaro miqyosda kengaytirish;
- shahar aholisi va mahalliy aholini o'zining sifatli mahsulotlari bilan ta'minlash;
- joylarda savdo shaxobchalarini tashkil etish va qulay sharoitda aholiga keng xizmat ko'rsatish;
- tabiiy dehqonchilik mahsulotlarini ko'paytirish va daromad olish.

2. «QURAMBOY BOBO NABIRASI TOHIR-ZUHRA» FERMER XO'JALIGINING BOSHQARUV TIZIMI HAQIDA MA'LUMOT


Tashkilotning boshqaruv tuzilishi:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, davlat tomonidan boshqarilmaydi. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi xususiy bo'lganligi sababli, «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra” fermer xo'jaligi 2000 yilda tasdiqlangan va Xorazm viloyati Bog'ot tumani Hokimining 2000 yil 10 mayidagi 305-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tgan nizomining V bandiga asosan ish yuritiladi. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi nizomining V-17 bandida yozilishicha, «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lган, qishloq xo'jaligida tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan, muomalaga layoqatli xo'jalik a'zolaridan biri rahbarlik qilishi mumkin. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi rahbariyatidan tashqari mahalliy ishsizlar sonini kamaytirish maqsadida «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi yaqin atrofdagi mahallaning 32 nafardan ortiq a'zosini xo'jalikda mehnat qilishga jalb etgan. Olingan 10 nafardan ortiq ishchi kuchini malakasini oshirish uchun kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirilgan bo'lib «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo'jaligi iqtisodiyotini ko'tarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardosh va yuqori sifatli bo'lishini ta'minlash vazifasi birlashma zimmasiga olingan.

Chizma №1

Tashkilotning boshqaruv shakli:

Xorazm viloyati Bog'ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jligining boshqaruv shakli:



3. Xorazm viloyati Bog'ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligining dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish haqida ma'lumot

3.1. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'rganish.

Qishloq xo'jaligi statistikasida dehqonchilikda ma'lum ekin maydonidan olingan butun mahsulot yalpi hosil deb ataladi. Ma'lum bir turdag'i ekinning o'rta hisobda bir hektar maydonga to'g'ri keladigan mahsuloti miqdori esa hosildorlik deb ataladi.

Ekinlarning yalpi hosilini (tsentner yoki tonna o'lchovida) ekin maydonini kengaytirish hisobiga ekstensiv ravishda yoki ekinning hosildorligini oshirish – ekin maydonidan intensiv ravishda foydalanish yo'li bilan ko'paytirish mumkin. Ma'lumki, ekin maydonlarini uzlusiz kengaytirib bo'lmaydi. Qo'riq erlar ochish, botqoqlarni quritish va boshqalar bechegara ish emas. Shuning uchun ekinlarning yalpi hosilini hosildorlikni oshirish hisobiga ko'paytirish eng muhim vazifadir.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosil va hosildorligi dehqonchilik tarmog'iningga emas, balki, umuman qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish darajasining ko'rsatkichidir.

Ekinlarning hosili va hosildorligi dehqonchilikning har tomonlama rivojlanishiga bog'liq. Xo'jalikning tabiiy va iqtisodiy qulay sharoitidan tashqari uning tashkiliy ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aytaylik, arning samaradorligi oshirilsa, melioratsiya holati yaxshi bo'lsa, mineral va mahalliy o'g'itlardan to'g'ri foydalanilsa, texnika o'z vaqtida qo'llanilsa, ishda ilg'orlarning tajribalariga, ilm-fan muvaffakiyatlariga amal qilinsa, ekinlarning hosildorligi oshadi. Demak, yalpi hosil ham ko'payadi, xalqimizning qishloq xo'jaligi maxsulotlariga bo'lgan talabini yanada ko'proq qondirish, sanoatni xomashyo bilan yanada yaxshiroq ta'minlash imkoniyati kengayadi. Hosildorlikni oshirish uchun paxta-beda almashlab ekishni o'zlashtirish nihoyasiga etkazilishi, paxtaning kasalliklarga bardosh beradigan serhosil navlarini yaratish, g'o'zani sug'orish va hosilni terish mexanizatsiyasi darajasi oshirilishi zarur.

3.2. Xorazm viloyati Bog'ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligining. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng asosiy natijaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni statistik tahlili

Xorazm viloyati Bog'ot tumani «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha yalpi xosilni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha omilli taxlil qilinishi lozim.

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilagan.

3.2.1-jadval

| № | Ekin turlari | O'tgan yil | | Hisobot yil | |
|----------------|-----------------|----------------|-----------------------|----------------|-----------------------|
| | | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga |
| | | M ₀ | X ₀ | M ₁ | X ₁ |
| 1 | Bug'doy | 35 | 36,4 | 36 | 37,0 |
| 2 | Sholi | 40 | 28,2 | 43 | 28,5 |
| 3 | Makka don uchun | 55 | 28 | 45 | 34 |
| Hammasi | | 130 | --- | 124 | --- |

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo’jaligida bir turdagи ekinlar yalpi hosili va o’rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibi va hosildorligi o’zgarishi ta’sir qiladi. Bu ta’sirni aniqlashda iqtisodiy indeks usulidan foydalaniladi. Ma’lumki, yalpi hosil, ekin maydoni tarkibi va hosildorlikni umumiyl indeksi bir turdagи ekin turlari bo’yicha hisoblanadi.

4. Talabalarga beriladigan mulohaza uchun savollar

1. Hosil va hosildorlik ko’rsatkichlari deb nimaga aytildi?
2. Hosildorlik ko’rsatkichlari va ularni aniqlash.
3. Yalpi hosil dinamikasining statistik tahlili.
4. Yalpi hosil o’zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar va ularning indekslari.
5. Ekin maydonlari strukturasi indeksini aniqlang va mazmunini tushuntiring.

5. Talabalar uchun uslubiy qo’llanmalar

Muammo:

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra ” fermer xo’jaligida bir turdagи ekinlar yalpi hosili va o’rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o’zgarishi qay darajada ta’sir qilganligini o’rganish .

Vazifalar:

Jadvallarda keltirilgan ma’lumotlar asosida quyidagi ko’rsatkichlar hisoblanilsin:

- 1.Hosildorlikning alohida indekslari.
- 2.Hosildorlikning umumiyl indeksi.
- 3.O’rtacha hosildorlik indeksi.
- 4.O’rtacha hosildorlikning mutlaq o’zgarishi, shu jumladan:
 - a) *Hosildorlikni o’zgarishi hisobiga.*
 - b) *Ekin maydonlari tarkibini o’zgarishi hisobiga.*
- 5.Yalpi hosilning umumiyl indeksi.
- 6.Yalpi hosilning mutlaq o’zgarishi, shu jumladan:
 - a) *Hosildorlikni o’zgarishi hisobiga.*
 - b) *Ekin maydonlari tarkibini o’zgarishi hisobiga.*

Echish algoritmi:

Bir turdagи ekinlar yalpi hosili va o’rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibi va hosildorligi o’zgarishi ta’sir qiladi. Bu ta’sirni aniqlashda iqtisodiy indeks usulidan foydalaniladi. Ma’lumki, yalpi hosil, ekin maydoni tarkibi va hosildorlikni umumiyl indeksi bir turdagи ekin turlari bo’yicha hisoblanadi. Masalan, donli ekinlar, sabzavot va em-xashak ekinlari bo’yicha.

Masalani shartida donli ekinlar maydoni va hosildorligi haqida ma’lumotlar berilgan. Donli ekinlarni hosil va hosildorligi o’zgari-shi haqidagi ma’lumotlarni tahlil etishda iqtisodiy indeks usulidan foydalanamiz.

Masalani birinchi shartida hosildorlikning alohida indeksini hisoblash so’ralgan. Buning uchun har bir ekin turi bo’yicha hosildorlik-ni o’zgarishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

Kuzgi bug'doy: $i = \frac{X_1}{X_0}$

Sholi: $i = \frac{X_1}{X_0}$

Makka don uchun: $i = \frac{X_1}{X_0}$

Masalani ikkinchi shartida hosildorlikning umumiyl indeksini hi-soblash so'rangan. Buni hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_1}$$

$$I = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_1}$$

Masalani uchinchi shartida o'rtacha hosildorlik indeksini hisoblash so'rangan. Buni bajarish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I = \frac{\bar{X}_1}{\bar{X}_0} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} : \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

$$I = \frac{\bar{X}_1}{\bar{X}_0} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} : \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

O'rtacha hosildorlikni mutlaq o'zgarishini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_x = \bar{X}_1 - \bar{X}_0$$

$$\Delta_x = \bar{X}_1 - \bar{X}_0$$

Shu jumladan:

a) O'rtacha hosildorlikni, hosildorlik o'zgarishi hisobiga o'zgari-shini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta_x = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1}$$

$$\Delta_x = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1}$$

b) O'rtacha hosildorlikni, ekin maydonlari tarkibi o'zgarishi hisobiga o'zgarishini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta_x = \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

$$\Delta_x = \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

Yalpi hosilning umumiyl indeksini quyidagi formuladan foydala-nib hisoblaymiz:

$$I_{xx} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0}$$

$$I_{xx} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0}$$

Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishini quyidagi formuladan foydalanib hisoblaymiz:

$$\Delta_{xx} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_0$$

$$\Delta_{xx} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_0$$

Shu jumladan:

a) Yalpi hosilni hosildorlik o'zgarishi hisobiga o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_{xcm} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_1$$

$$\Delta_{xcm} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_1 .$$

b) Yalpi hosilni, ekin maydoni tarkibi o'zgarishi hisobiga o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_{xcm} = \sum X_0 M_1 - \sum X_0 M_0$$

$$\Delta_{xcm} = \sum X_0 M_1 - \sum X_0 M_0$$

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yoziladi.

Holatiy tahlilning varaqasi

| Tahlil bosqichining nomi | Tahlil bosqichining mazmuni | Tahlil bosqichi | Baholash mezonlari |
|--|---|-----------------|---|
| 1. Holatiy tahlil | 1. Holatning aniq ko'rinishi va masalaning hal etilishi, echilishi uchun aniq ma'lumotlar. 2. Holatning eng muhim hususiyatlari: Nima bo'lmoqda? Holatning natijalarini shakllanishi qanday? | | 1 – 0.5 ball 2 – 1 ball |
| 2. Muammoning shakllanishi | Muammoda aks ettiruvchi asosiy hususiyatlar hisoblansin: Hosildorlikning alohida indekslari. 2.Hosildorlikning umumiyl indeksi. 3.O'rtacha hosildorlik indeksi. 4.O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan: a) <i>Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.</i> b) <i>Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.</i> 5.Yalpi hosilning umumiyl indeksi. 6.Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan: a) <i>Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.</i> b) <i>Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.</i> | | A) – 0.5 ball B) – 0.5 ball V) – 1 ball |
| 3. Holatning ishtirokchilarini aniqlash | «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligining iqtisodiy tavsifnomasi, ish faoliyati va tarkibi, boshqarish tizimi | | 1 ball |
| 4. Omilli tahlil asosida holatning o'rganish | «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida bir turdag'i ekinlar yalpi hosili va o'rtacha | | 2 ball |

| | | | |
|---------------------------|---|--|--------|
| | hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini o'rganish . | | |
| 5. Echimni ishlab chiqish | Masalaning echimini hal qilmoq va ishlab chiqish, maxsulotga ta'sir omillar salbiy va ijobiy ta'sirini aniqlab tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish. | | 2 ball |

6. O'quv - uslubiy materiallar

Ma'lumki, ekinlarning hosil va hosildorligi hosil tamomila yig'ib olingandan so'ng aniqlanadi. Lekin statistika fani hosil hajmi va hosildorlik miqdorini terim oldidan ham har bir ekinning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olib belgilaydi. Hosil va hosildorlikni aniqlash-ning uch kategoriyasi bor:

- 1) o'sib turgan ekinning ko'rinishiga qarab belgilash;
- 2) terim oldidagi holatiga qarab belgilash;

3) haqiqiy yig'ilgan va omborga tushgan hosil. O'sib turgan ekinning holatiga qarab hosil belgilash, deganda ekin etilishidan ancha oldin o'sish davrlarida, aytaylik, paxta besh qulqoq bo'lganida yoki ko'sak olganda, don esa boshhoq tortganida yoppa o'simliklarning holatiga qarab kutilgan hosil va hosildorlikni aniqlash ko'zda tutiladi.

Bu ishni hosilotchi va bo'lim boshlig'i ko'z bilan chamalab «yaxshi», «o'rtacha», «yomon» baho bilan yoki 1, 2, 3, 4, 5 ball bahosi bilan belgilaydilar.

Ekinning terim oldidagi holatiga qarab aniqlash, deganda pishib etilgan, lekin hali terilmagan, omborga tushmagan hosil nazarda tutiladi.

O'simlikning bu holatdagi hosil va hosildorligi:

a) sub'ektiv metod bilan, ya'ni hosilni yig'ishdan oldin maydonni diqqat bilan qarab chiqib hosil va hosildorlik ko'z bilan chamalab aniqlanadi;

b) ekin pishib, terimga va o'rishga tayyor bo'lgan vaqtida kichik bir joy, aytaylik, $1 m^2$ joy ajratib, undagi hosil terib olinadi va tarozida tortib ko'rib qancha chiqsa, shu son mingga ko'paytiriladi va shu bilan 1 ga maydondagi hosildorlik aniqlanadi. Yalpi hosilni aniqlash uchun 1 ga ning hosili shu ekin ekilgan umumiyligi maydon hajmiga ko'paytiriladi. Bu ob'ektiv metoddir. Hosilning tamomila yig'ib olinmasdan oldin terim boshida aniqlanishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, sotish, qayta ishslash, tashib olish va h. k. larni rejalashtirish uchun zarurdir;

v) haqiqiy yig'ilgan (omborga tushgan) hosil va hosildorlik ko'rsatkichi qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati natijalarini ifodalaydi.

Tabiiy, hosil va hosildorlikning avvalgi taxminiy hisoblari bilan yig'im-terim tomonidan qilingan hisoblar o'rtasida tafovut bo'ladi.

Ko'rsatkichlar orasidagi tafovut quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$W_x = W_t \cdot P,$$

W_x – haqiqiy yig'ilgan hosil.

W_t – hosilni terimga tayyor bo'lgan holda aniqlash ko'rsatkichi.

R – yig'im-terim vaqtida hosilning yo'qotilgan (nobud bo'lgan) qismi.

Hozir statistika omborga tushgan hosilga qarab hisobot yuritadi. Negaki, taxminiy belgilash usuli o'zini oqlamadi, keyin yig'im-terim davrida nobudgarchilik uchun xo'jaliklardan javobgarlik ham talab qilinmas, aslida nobudgarchilik oldindan

belgilanib qo'yilar edi. Endilikda haqiqiy hosil va hosildorlik ko'rsatkichi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Hosilni aniqlash paytida ayrim ekinlarning ba'zi xususiyatlarini nazardan ochirmaslik kerak. Masalan, doni uchun ekilgan jo'xori don ekini qatorida hisob qilinsa, silos va ko'k xashak uchun ekilgan jo'xori-xashak qatorida hisob qilinadi, jo'xori hosili yig'ib olingandan keyin so'ta holida tortib hisoblanadi; quruq donga chiqib hisob qilish uchun so'tadan ajratilgan donlarning haqiqiy og'irligi asos bo'ladi, donlarning bazis namligi (22%) chiqarib tashlanadi.

Sabzavot ekinlaridan shivit, kashnich, petrushka, rediska kabi ildiz mevalilarning faqat ochiq erga ekilganlari hisobga olinadi, ko'chirib o'tkazilganlari va urug'lik uchun ekilganlari sabzavot mahsulotlari qatoriga kiritilmaydi, ular alohida hisoblanadi.

Shirkatlar va boshqa davlat xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'im-terim hisobi uchun yig'im-terim texnikalarida ishlovchi mexanizatorlarning tergan yoki o'rib olgan mahsuloti to'g'risidagi kundalik hisobot varaqalari, mahsulot qabul qilinganligi haqidagi aktlar va shu kabi boshqa boshlang'ich hujjatlar asos qilib olinadi. Yig'im-terim tamom bo'lganidan keyin shirkat va boshqa davlat xo'jaliklari mazkur hujjatlar asosida ekinlarning hosili haqida hisobot tuzadilar. Bu hisobotda ekin turlari bo'yicha olingan yalpi hosil va hosildorlik haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'ladi. Ma'lumki, ba'zi xo'jaliklar hisobot topshirish muddatigacha barcha hosilni yig'ib-terib ulgurmaydilar. U holda yig'ib, ulgurilmagan maydonidagi hosilni hisob metodi bilan aniqlab, yig'ib olingan hosil miqdoriga qo'shib jami yalpi hosilni hisobotga yozadilar.

Tumanning ekin maydoni 12000 ga teng bo'lib, shundan 1 noyabrgacha 10000 gektaridagi hosil yig'ib olinib, jami 250000 tsentner mahsulot olingan. Mahsulotning barcha hosildorligi 250000:10000ga=25 tsentner bo'libdi. 2000 gektar maydonidagi hosil hisobot muddatigacha yig'ilmay qolgan, o'tgan yili hisobot muddatiga qadar bir gektar moydonidan 24 tsentner mahsulot olingan edi. Hisobot muddatidan keyin esa bir gektarga to'g'ri kelgan hosil 21 tsentner bo'ldi. Buning koeffitsienti (21:24) 0,875 ts dir. Endi bu koeffitsient yordamida shu yili hisobot muddatidan so'ng hosil yig'ib olinadigan maydonning bir gektariga to'g'ri keladigan mahsulotni (hosildorligini) hisoblasak, 25 ts x 0,875 =21,9 ts bo'lar ekan. Hisobot muddatidan so'ng hosil yig'ib olinadigan 2000 ga maydonning jami mahsuli (2000x21,9) =43800 ts bo'ladi. Demak, tumanning butun ekin maydonidan yig'ib olinadigan yalpi hosil (250000+43800) =293800ts ni, o'rtacha hosildorlik esa (293800:12000) = 24,48 ts ni tashkil qilar ekan.

6. KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

Donli ekinlarni hosil va hosildorligi o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni tahlil etishda iqtisodiy indeks usulidan foydalanamiz.

1.Hosildorlikning alohida indeksi bo'yicha har bir ekin turining hosildorligini o'zgarishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{Bug'doy: } i = \frac{X_1}{X_0} = \frac{37}{36,4} = 1,016 \text{ yoki } 101,6 \%$$

Sholi: $i = \frac{X_1}{X_0} = \frac{28,5}{28,2} = 1,010$ yoki 101,0 %

Makka don uchun: $i = \frac{X_1}{X_0} = \frac{34}{28} = 1,214$ yoki 121,4 %

2. Hosildorlikning umumiy indeksini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_1}$$

$$I = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_1} = \frac{28,5 \cdot 43 + 37 \cdot 36 + 34 \cdot 45}{28,2 \cdot 43 + 36,4 \cdot 36 + 28 \cdot 45} = \frac{1226 + 1332 + 1530}{1213 + 1310 + 1260} = \frac{4088}{3783} = 1,081 \text{ yoki } 108,1 \%$$

3. O'rtacha hosildorlik indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I = \frac{\bar{X}_1}{\bar{X}_0} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} : \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

$$I = \frac{\bar{X}_1}{\bar{X}_0} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} : \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0} = \frac{4088}{124} : \frac{40x28,2 + 35x36,4 + 55x28}{130} = \frac{4088}{124} : \frac{3942}{130} = 32,9 : 30,3 = 1,086 \text{ yoki } 108,6 \%$$

4. O'rtacha hosildorlikni mutlaq o'zgarishini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_x = \bar{X}_1 - \bar{X}_0$$

$$\Delta_x = \bar{X}_1 - \bar{X}_0 = 32,9 - 30,3 = 2,6 \text{ ts/ga oshgan.}$$

Shu jumladan:

4.1. O'rtacha hosildorlikni, hosildorlik o'zgarishi hisobiga o'zgarishini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta_x = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1}$$

$$\Delta_x = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} = \frac{4088}{124} - \frac{3783}{124} = 32,9 - 30,5 = 2,4 \text{ ts/ga oshgan.}$$

4.2. O'rtacha hosildorlikni, ekin maydonlari tarkibi o'zgarishi hisobiga o'zgarishini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta_x = \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0}$$

$$\Delta_x = \frac{\sum X_0 M_1}{\sum M_1} - \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0} = \frac{3783}{124} - \frac{3942}{130} = 30,5 - 30,3 = 0,2 \text{ ts/ga oshgan.}$$

5. Yalpi hosilning umumiy indeksini quyidagi formuladan foydalanib hisoblaymiz:

$$I_{ax} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0}$$

$$I_{xx} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0} = \frac{4088}{3942} = 1,037 \text{ yoki } 103,7 \text{ \%}.$$

6. Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishini quyidagi formuladan foydalanib hisoblaymiz:

$$\Delta_{xx} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_0$$

$$\Delta_{xx} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_0 = 4088 - 3942 = 146 \text{ tsentner.}$$

Shu jumladan:

6.1. Yalpi hosilni hosildorlik o'zgarishi hisobiga o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_{xcm} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_1$$

$$\Delta_{xcm} = \sum X_1 M_1 - \sum X_0 M_1 = 4088 - 3783 = 305 \text{ tsentner.}$$

6.2. Yalpi hosilni, ekin maydoni tarkibi o'zgarishi hisobiga o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta_{xcm} = \sum X_0 M_1 - \sum X_0 M_0$$

$$\Delta_{xcm} = \sum X_0 M_1 - \sum X_0 M_0 = 3783 - 3942 = -159 \text{ tsentner.}$$

Xulosa.

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra» fermer xo'jaligida hisobot yil o'tgan yilga nisbatan don ishlab chiqarishda ma'lum o'zgarishlar bo'lган. Hosildorlik bug'doyda 1,6%, sholi bo'yicha 1 % ga, makka doni 21,4% ga oshgan.

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida ekilgan donli ekinlarni umumiyligi 8,1% ga oshgan, shuning hisobiga o'rtacha hosildorlik indeksi 8,6% ga oshgan, chunki o'rtacha hosildorlikni mutlaq qiymati 2,6 ts/ga ga oshgan. Bu oshishni omillari quyidagilar: hosildorlikni o'zgarishi hisobiga o'rtacha hosil-dorlik 2,4 ts/ga oshgan, ekin maydoni tarkibi o'zgarishi hisobiga o'rtacha hosildorlik 0,2 ts/ga oshgan. Natijada o'rtacha hosildorlikni umumiyligi mutlaq o'zgarishi 2,4ts/ga + 0,2ts/ga = 2,6 ts/ga bo'lган.

«Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida yig'ib olingan yalpi hosil 3,7% ga yoki 146 tsentnerga ko'paygan. Yalpi hosilni ko'payish omillari quyidagilar: hosildorlikni o'zgarishi hisobiga yalpi hosil 305 tsentnerga oshgan, ekin maydoni tarkibini o'zgarishi hisobiga yalpi hosil -159 tsentnerga kamaygan. Natijada yalpi hosil 305ts + (-159ts) = 146 ts ga oshgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini to'la va mukammal tarzda aniqlash uchun to'la imkoniyat mavjud emas. Chunki fermer xo'jaliklarida ko'pgina mehnat va moddiy xarajatlar to'la hisobga olinmaydi. Shuning uchun ham fermer xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini boshqa xo'jaliklar bilan solishtirganda erdan foydalanish samaradorligi, ya'ni bir hektar yoki bir ball-gektar hisobiga olingan mahsulot ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq.

7. Amaliy mashg'ulotlarda muammoli holatlarni echish bo'yicha (keys o'qitish texnologiyasi)

| <i>Mavzu</i> | <i>Tovar assortimenti strategiyasini ishlab chiqish</i> |
|---|---|
| <i>Talabalar soni: 25 –30</i> | <i>Vaqti 4 soat</i> |
| <i>O'qitish shakli</i> | <i>Amaliy mashg'ulotda muammoli holatni echish orqali bilimni chuqurlashtirish.</i> |
| <i>Amaliy mashg'ulot rejasি</i> | <p>1. Keys – stadiga kirish va nazariy jixatdan yoritib berish. 2. Bilimni chuqurlashtirishning va muammoning dolzarbligi. 3. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligida bir turdag'i ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini o'rganish . 4. Muammoning shakllanishi va uni echish yo'llari. 5. Keys – stadini guruhlarda echish. 6. Diskussiya orqali muammoli holatni echish g'oyalarini ko'rib chiqish. 7. Eng muqobil variantini tanlash va natijalarni prezentatsiya qilish. 8. Guruhlarning ishlash faoliyatini va maqsadga erishilganlik natijalarini baholash va xulosa chiqarish.</p> |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> | bir turdag'i ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi ta'sirini aniqlash. |
| <i>Pedagogik vazifalar:</i> Muammoli holatning hususiyatlarini tafsiflab va tasniflab beradi: <ul style="list-style-type: none"> • Keysda birlashmaning faoliyati va asosiy vositalar holati bilan tanishtiradi va tahlil qiladi; • Muammoni ajratish va uni aniqlab, echish ketma - ketligini ishlab chiqishni o'rgatadi; • Keysda muammoning ma'lumotlarini boshqaruv va ishlab chiqarishni tizimini yaxshilash uchun hisob - kitoblar o'tkazadilar, hamda yakuniy xulosalar chiqaradilar; | <i>O'quv faoliyatning natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> - Fermer xo'jaligining faoliyati va holatini o'rgangan holda muammoni aniqlaydi va fermer xo'jaligiga taaluqli muammolarni tafsiflab beradilar; - Muammoli holatning ko'nikmalarini va uning shaklidagi kichik muammolarning iqtisodiy asoslangan echimlarini ishlab topmoq; Fermer xo'jaligining faoliyatini hisobga olgan holda muammoni echilishning ketma – ketligini aniqlaydi; - Iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan ishslash yo'llarini, bashorat qilish, statistik ma'lumotlar tahlili bilan ishlab chiqarish yo'llarini optimal variantini tanlaydi va mazkur fermer xo'jaligining xo'jaligida bir turdag'i ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini aniqlaydi; |
| <i>O'qitish uslubi</i> | Keys-stadi uslubi savol-javob, muammolarni echish |
| <i>O'qitish shakli</i> | Amaliy mashg'ulotda frontal va individual ishslash, guruhlarda ishslash. |
| <i>O'qitish vositalari</i> | Ma'ruzalar matni, o'quv daftarlari, namoyon materiallar (ma'ruzachi tomonidan prezentatsiya-slayd), lazer proektori, kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar (sxemalar, rasmlar, jadvallar), |
| <i>O'qitish shartlari</i> | Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlar bilan ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya. |
| <i>Monitoring va baholash</i> | mustaqil o'rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi. |

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

| Ishning bosqichlari va vaqtি | <i>Faoliyat mazmuni</i> | |
|-------------------------------------|--|--|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1–bosqich. Tayyorlov qismi (10 min) | <p>1.1. Mazkur keysning mutaxassislik yo'naliishiga ta'sirini tushuntiradi va tanishtiradi;</p> <p>1.2. Mashg'ulotning nomini, o'tkazish jarayonini, rejalashtirayotgan maqsad va natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.3. O'rganib chiqish uchun keysga taaluqli qo'llammalar va tarqatma materiallar tarqatadi.</p> <p>1.4. Taklif etilgan «O'rakhl» birlashmasining faoliyati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.5. Mustaqil ishlash uchun, holatiy tahlil varaqasini tarqatadi.</p> <p>1.6. Guruhlarda ishlash instruktsiyasini tushuntirib o'tadi.</p> | Tinglaydilar va yozib oladilar |
| 2-bosqich Asosiy qism (130 min) | <p>2.1. Nazariy va amaliy tomondan taqqoslangan yangi materialni o'rganishning tashkil qiladi. Buning uchun qisqa tarzda birlashmalarda xo'jaligida bir turdag'i ekinlar yalpi hosili va o'rtacha hosildorligi darajasiga ekin maydoni tarkibini va hosildorligini o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini o'rganish hisoblash borasida, qilinadigan ishlar haqida nazariy jihatdan gapirib beradi. Bu esa amaliy mashg'ulotning rejasiga asoslanib, ekranda jadvallar, chizmalar, rasmlar tariqasida ko'rsatiladi va u sharhanadi.</p> <p>2.2. Fermer xo'jaligining holati bilan muzokarani tashkillashtiradi va quyidagi mashg'ulotning asosiy savollariga amaliyot bilan bog'lagan holda javob beradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> 1. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligi bu darajaga erishish sabablarini aytинг va u marketingning qaysi elementlaridan doimiy holda foydalanadi? 2. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligi maqsadli segmentlari haqida gapirib bering. 3. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligi shakllanayotganda qanday muammollarga duch kelgan? <p>2.3. Talabalarni guruhlarga bo'ladi va guruhlarda ishlash jarayonini eslatadi. Keys bilan ishlash uchun individual yoki guruhlarda ishslash jarayoni uchun topshiriqlar beradi.(1-ilova Jamoa ishlab chiqqan holatiy tahlil varaqasini to'ldiradilar, muqobil g'oyalarni tanlab oladilar va baholaydilar.</p> <p>2.4. O'quv faoliyatiga maslahat beradi va yo'naltiradi. Individual va jamoa ish faoliyatini "holatiy tahlil varaqasini" tekshiradi va baqolaydi.</p> <p>2.5. Prezentatsiyani tashkillashtiradi, muhokama qiladi va o'zaro baqolaydi.</p> <p>2.6. «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligining faoliyati to'g'risida savollar berishni tavsija etadi. (Natijaviy holda «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligi vakilining javoblarini mashg'ulotning rejasiga mos ravishda amaliyotga bog'langanligini kengaytirib xulosha qiladi. Shu boisdan «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligining imkoniyatlari qanday va kelajakda faqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadimi? yo'llarini ko'rsatadi</p> <p>2.7. Javoblarni tekshirib, baho beradi va muhokama qiladi. Muammoning tahlili va xolatning echimiga alohida e'tibor beradi. 2- ilova)</p> <p>2.8. Keysning o'z echim variantini e'lon qiladi va namoyish qiladi.</p> | <p>Eshitadilar, konspektlarda qisqa tarzda yozib boradilar.</p> <p>Savollar javob berishadi va daftarlariiga yozib boradilar. Savollarni aniqlaydilar, muhokama qiladilar va tushunmagan joylarini so'raydilar.</p> <p>O'quv topshiriqlarni bajaradilar.</p> <p>Guruhlar natijalarning prezentatsiya qiladilar. Diskussiyada qatnashadilar, savollar beradilar va o'zaro bao'laydilar.</p> |
| 3-yakuniy bosqich (20 min) | <p>3.1. Natijalarga yakuniy xulosalar qiladi, talabalarning e'tiborini asosiy nuqtalarga qaratadilar, xulosalar qiladilar va bao'laydilar.</p> <p>3.2. . «Quramboy bobo nabirasi Tohir-Zuhra » fermer xo'jaligining faoliyatini tahlil qilish talabalarning yo'naliishlariga va bo'lajak kasblariga ta'sirini anglatib o'tadi.</p> <p>3.3. Mustaqil ta'lim uchun vazifa beradi: Amaliyotni nazariyaga bog'lagan holda biron-bir korxanani misol qiling va bu seminar darsida muhokama qilinishini aytib o'tadi.</p> | |

1-ilova

Keys bilan ishlash uchun guruhlarda ishlash jarayoni uchun topshiriqlar beriladi:

1-gurux.

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi «Umid» fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilagan.

| № | Ekin turlari | o'tgan yili | | hisobot yili | |
|---------|-----------------|----------------|-----------------------|----------------|-----------------------|
| | | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga |
| | | M ₀ | X ₀ | M ₁ | X ₁ |
| 1 | Kuzgi bug'doy | 510 | 43 | 536 | 39 |
| 2 | Bahorgi bug'doy | 154 | 13 | 186 | 16 |
| 3 | Bahorgi arpa | 67 | 15 | 52 | 19 |
| 4 | No'xat | 17 | 13 | 13 | 9 |
| 5 | Sholi | 96 | 42 | 112 | 46 |
| 6 | Makka don uchun | 38 | 28 | 29 | 34 |
| Hammasi | | | | | |

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

- 1.Hosildorlikning alohida indekslari.
- 2.Hosildorlikning umumiyl indeksi.
- 3.O'rtacha hosildorlik indeksi.
- 4.O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - a) *Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.*
 - b) *Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.*
- 5.Yalpi hosilning umumiyl indeksi.
- 6.Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - a) *Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.*
 - b) *Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.*
- v) *Hosildorlik va ekin maydonlari tarkibini o'zgarishini birgalikdagi ta'siri hisobiga.*

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yozing.

2-guruh.

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi «Ibodulla-ota» fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilagan.

| № | Ekin turlari | o'tgan yili | | hisobot yili | |
|---------|-----------------|----------------|-----------------------|----------------|-----------------------|
| | | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga |
| | | M ₀ | X ₀ | M ₁ | X ₁ |
| 1 | Kuzgi bug'doy | 245 | 39 | 265 | 34 |
| 2 | Bahorgi bug'doy | 64 | 11 | 66 | 12 |
| 3 | Bahorgi arpa | 42 | 17 | 34 | 19 |
| 4 | No'xat | 14 | 16 | 15 | 15 |
| 5 | Sholi | 46 | 39 | 56 | 42 |
| 6 | Makka don uchun | 38 | 35 | 42 | 29 |
| Hammasi | | | | | |

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

- 1.Hosildorlikning alohida indekslari.
- 2.Hosildorlikning umumiyl indeksi.

- 3.O'rtacha hosildorlik indeksi.
- 4.O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
- Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.*
 - Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.*
- 5.Yalpi hosilning umumiyl indeksi.
- 6.Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
- Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.*
 - Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.*
 - Hosildorlik va ekin maydonlari tarkibini o'zgarishini birgalikdagi ta'siri hisobiga.*
- Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yozing.

3-guruh.

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi «Gulbog» fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilagan.

| № | Ekin turlari | o'tgan yili | | hisobot yili | |
|---------|-----------------|----------------|--------------------|----------------|--------------------|
| | | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga |
| | | M ₀ | X ₀ | M ₁ | X ₁ |
| 1 | Kuzgi bug'doy | 265 | 38 | 270 | 39 |
| 2 | Bahorgi bug'doy | 74 | 12 | 66 | 13 |
| 3 | Bahorgi arpa | 50 | 15 | 42 | 16 |
| 4 | No'xat | 8 | 14 | 10 | 15 |
| 5 | Sholi | 56 | 36 | 64 | 34 |
| 6 | Makka don uchun | 28 | 32 | 32 | 29 |
| Hammasi | | | | | |

Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

- 1.Hosildorlikning alohida indekslari.
 - 2.Hosildorlikning umumiyl indeksi.
 - 3.O'rtacha hosildorlik indeksi.
 - 4.O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.*
 - Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.* - 5.Yalpi hosilning umumiyl indeksi.
 - 6.Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.*
 - Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.*
 - Hosildorlik va ekin maydonlari tarkibini o'zgarishini birgalikdagi ta'siri hisobiga.*
- Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yozing.

4-gurux.

Toshkent viloyati Qibray tumanidagi «T.Normuxammedov» fermer xo'jaligida don mahsulotlarining ekin maydoni va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

| № | Ekin turlari | o'tgan yili | | hisobot yili | |
|---|-----------------|----------------|-----------------------|----------------|-----------------------|
| | | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga | maydoni, ga | hosildorlik, ts/ga |
| | | M ₀ | X ₀ | M ₁ | X ₁ |
| 1 | Kuzgi bug'doy | 375 | 39 | 390 | 41 |
| 2 | Bahorgi bug'doy | 86 | 41 | 92 | 11 |
| 3 | Bahorgi arpa | 46 | 16 | 42 | 12 |
| 4 | No'xat | 16 | 18 | 14 | 16 |
| 5 | Sholi | 95 | 42 | 98 | 44 |
| 6 | Makka don uchun | 35 | 31 | 32 | 28 |
| | Hammasi | | | | |

Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanilsin:

- 1.Hosildorlikning alohida indekslari.
- 2.Hosildorlikning umumiyl indeksi.
- 3.O'rtacha hosildorlik indeksi.
- 4.O'rtacha hosildorlikning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - a) *Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.*
 - b) *Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.*
- 5.Yalpi hosilning umumiyl indeksi.
- 6.Yalpi hosilning mutlaq o'zgarishi, shu jumladan:
 - a) *Hosildorlikni o'zgarishi hisobiga.*
 - b) *Ekin maydonlari tarkibini o'zgarishi hisobiga.*

v) *Hosildorlik va ekin maydonlari tarkibini o'zgarishini birlgilidagi ta'siri hisobiga.*

Hisoblanilgan ko'rsatkichlar asosida xulosa yozing.

2-illova

Guruhlarning ishlashini baholash jadvali

| Guruh | Baholash mezonlari | |
|-------|--|--|
| | Prezentatsiya (mazmuni, ma'nosi va xulosalarning isboti uchun) A'lo – 2 ball Yaxshi – 1,5 ball Qoniqarli – 1 ball Qoniqarsiz – 0,5 | Muammoli masalaning echimi uchun (to'g'riliqi va echimning ketma-ketligi uchun) A'lo – 2 ball Yaxshi – 1,5 ball Qoniqarli – 1 ball Qoniqarsiz – 0,5 ball |
| 1. | | |
| 2. | | |
| | | |

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1) Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ish – mavjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllaridan biri sanaladi. Shu boisdan, konspektidan farqli o’laroq, mustaqil ish yangi, muallif matn sanaladi. Ushbu holatda yangilik, yangicha taqdim etish, materiallarni tartiblashtirish, har xil nuqtai nazarlarni o’zaro solishtirishda alohida mualliflik yondashuvi tushuniladi.

Mustaqil ish - har xil nuqtai nazarlarni o’zaro solishtirish va tahlil qilish ko’nikmasiga ega bo’lishni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o’zida mujassam etadigan g’oyalarni qisqacha yozma ko’rinishidagi taqdimotidir.

Mustaqil ishning turlari va tizimi:

1. Ifodalanish to’liqligicha ko’ra:

- a) informativ (referatlar – konspektlar);
- b) indikativ (referatlar –rezyume (qisqacha mazmun)

2. Mustaqil ish tarkibi:

A) bibliografik qayd etilishi:

- F.I.Sh.ning nomi;
- chop etilgan manzili;
- nashriyot, yil;
- sahifalar soni.

B) Mustaqil ish matni:

- mavzu, muammo, mustaqil ish qilinadigan ish predmeti, maqsadi va mazmuni;
- tadqiqot usullari;
- aniq natijalari;
- muallif xulosasi;
- ish natijalarini qo’lannish sohasi.

O’quv fani bo’yicha mustaqil ish tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- O’quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo’yicha bilimlarini chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga ushbu olingan nazariy bilimlarni ijodiy ko’nikmasini hosil qilish;
- Tanlangan kasbiy sohada xorij tajribalarini, mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo’llash imkoniyatlari va muammolarini o’zlashtirish;
- Tanlangan mavzu bo’yicha har xil adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o’rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil, hamda bilimdon holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish;
- Yozma ko’rinishdagi ishlarni to’g’ri rasmiylashtirish ko’nikmalarni rivojlantirishdir.

“Soliq ma’muriyatichiligi” modulidan mustaqil ta’limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalilaniladi: ayrim nazariy mavzularni o’quv adabiyotlari yordamida o’zlashtirish; amaliy mashg’ulotlar uchun topshirilgan mavzuni axborot resurs manbalaridan foydalangan, rasmiy statistika ma’lumotlarini to’plagan holda bajarish.

Tinglovchi mustaqil ishni tashkil etishining mazmuni “Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti” modulining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagilarga asoslanib tayyorlanishi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjalardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;*
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;*
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;*
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;*
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lган modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.*

1) Mustaqil ta'lim mavzulari.

“Soliq ma'muriyatichiligi” modulidan mustaqil ta'lim sifatida o'rganiladigan quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi dasturi va ulardagi vazifalarning ijrosi
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzasida keltirilgan ustuvor vazifalar.
3. Soliq siyosatida Soliq ma'muriyatichiligining tutgan o'mni va uning asosiy yo'nalishlari
4. Soliq ma'muriyatichilagini amalga oshirish sub'ektlari va davlat soliq xizmati organlari bilan boshqa organ va tashkilotlarning o'zaro hamkorligi
5. Soliq to'lovchilarni hisobga olish va u bilan bog'liq tartib qoidalar
6. Soliq va moliyaviy hisobot turlari hamda ularni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilishini nazorat qilish
7. Soliq ma'murchiligidagi soliq tushumlari hisobini yuritish va u bilan bog'liq munosabatlar
8. Soliqlarni to'lash majburiyatini ta'minlash tadbirlari
9. Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va uni o'tkazish tartibi
10. Soliq ma'murchiligidagi amalga oshiriladigan nazorat shakllari va ularning ahamiyati
11. Soliq qonunchiligi buzilganda sodir etiladigan huquqbazarliklar va unga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralarini
12. Soliq ma'murchiligidagi soliq targ'iboti va axborot-maslahat xizmatini ahamiyati.
13. Soliq ma'murchiligi asoslarini amalga oshirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi
14. Rossiya Federatsiyasi soliq ma'murchiligi
15. Soliq ma'murchiliginin amalga oshirishda Yaponiya tajribasining o'ziga xos xususiyatlari

VII. GLOSSARY

| Atamaning o'zbek tilida nomlanishi | Atamaning ingliz tilida nomlanishi | Atamaning rus tilida nomlanishi | Atamaning ma'nosi |
|---|---|--|---|
| Asosiy ish joyi | main place of work | osnovnoe mesto raboti | ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi |
| Asosiy faoliyat turi | main activity | osnovnoy vid deyatelnosti | yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo'yicha umumiyl realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati |
| Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot | co-products | sovvestno proizvedenniy produkt | birgalikdagi faoliyat natijasi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) |
| byudjetdan ajratiladigan subsidiya | a subsidy from the budget | subsidiya iz byudjeta | davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag'lari; soliq to'lovchiga muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar hisobiga bo'shaydigan mablag'lar |
| grant | grant | grant | davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk; |
| dividendlar | dividends | dividendi | aktsiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilar, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalari bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foyda ustav |

| | | | |
|---|--|--|---|
| | | | fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish uchun yo'naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aktsiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a'zosining) qo'shimcha aktsiyalar qiymati, aktsiyalar nominal qiymatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari |
| ijara (lizing) to'lovi | lease (leasing) payment | arendniy (lizingoviy) platej | ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'laydigan summa |
| ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi | interest income of the landlord (lessor) | protsentniy doxod arendodatelya (lizingodatelya) | buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjalariiga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) ob'ektining qiymatini qoplash summasi o'rtaisdagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'loving bir qismi |
| insonparvarlikyordami | humanitarian relief | gumanitarnaya pomoshch | aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg'araz ko'maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste'moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlari va xizmatlar, shu jumladan insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatlari tashkilotlar orqali taqsimlanadi |
| ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish | export of works (services) | eksport rabot (uslug) | ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish |
| Kredit tashkilotlari | credit Unions | kreditnie organizatsii | tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari |
| Kurs bo'yicha farq | exchange difference | kursovaya raznitsa | milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq |

| | | | |
|---|---------------------|---|--|
| mol-mulk | property | imushchestvo | egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish ob'ektlari bo'la oladigan moddiy ob'ektlar, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy ob'ektlar |
| Oila a'zolari | family members | chleni semi | er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar |
| Operativ ijara | operating lease | operativnaya arenda | molivayiy ijara shartnomasi bo'lмаган mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish |
| Realizatsiya qilish | implementatio n | realizatsiya | sotish, ayrboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvaraq-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo'natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi kvitantsiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir |
| royalti | royalty | royalti | quyidagilar uchun har qanday turdagи to'lovlar: fan, adabiyot va san'at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar ob'ektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini bergenlik uchun; sanoat mulki ob'ektiga, tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborottan (nouxaudan) foydalanganlik uchun |
| savdo faoliyatি | trade activity | torgovaya deyatelnost | qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat |
| soliq solishning soddalashtirilgan tartibi | simplified taxation | uproshchenniy poryadok nalogooblojeniya | soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagи soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi |

| | | | |
|---|---|--|--|
| soliq qarzi | tax debt | nalogovaya zadoljennost | soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan ushbu Kodeksda belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanktsiyalar |
| sof tushum | net proceeds | chistaya viruchka | tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aktsiz solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum |
| sof foyda | net profit | chistaya pribil | soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda |
| tannarx | cost price | sebestoimost | mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarning, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagи xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi |
| tovar oboroti | commodity turnover | tovarooborot | muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar |
| tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum | Revenue from sale of goods (works, services) | viruchka ot realizatsii tovarov (rabot, uslug) | realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarznii uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati |
| tovarlarni eksport qilish | export of goods | eksport tovarov | O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish |
| to'lov manbai | the source of payment | istochnik viplati | soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs |
| umidsiz qarz | write-off | beznadejnaya zadoljennost | sud qaroriga binoan majburiylarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxuda'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'limgan qarz |
| favqulodda holatlar | extraordinary circumstances | chrezvichaynie obstoyatelstva | taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'limgan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan |

| | | | |
|--|---|---|---|
| | | | sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi |
| foizlar | interest | protsenti | har qanday turdag'i qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad |
| yutuq | win | viigrish | lotereyalar, o'yinlar, tanlovlardan musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holida yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar |
| yaqin qarindoshlar | close relatives | blizkie rodstvenniki | er, xotin, ota-onas, bolalar, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar |
| O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri | Unified Register of Taxpayers of the Republic of Uzbekistan | Ediniy reestr nalogoplitelshchikov v Respublikni Uzbekistan | soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi |
| qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar | tolling and materials | davalcheskoe siryo i materiali | buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi |
| hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar | documented expenses | dokumentalno podtverjdennie rasxodi | operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikasiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar |

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy xujjatlar.

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 iyuldag'i PF-5116 sonli Farmoni

5. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdag'i 677-son qarori

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 avgustdag'i PQ-3168 sonli Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2017 yil 22 dekabr <http://xs.uz/>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-son qarori

9. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-454-son qonuni

10. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 30 dekabrdagi "Soliq ma'muriyatichiliği takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-455-son qonuni

11. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi "Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-456-son qonuni

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi Farmoni. Xalq so'zi, 2012 yil, 14 aprel

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni. Xalq so'zi, 2008 yil, 4 dekabr

II. Maxsus adabiyotlar.

14. Toby Stock. Advanced in Taxation. Copyright @ 2010 y. Emerald Group Publishing limited.
15. Schanz, Deborah, Schanz, Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. © 2011
16. Alimardonov M.I., Xudoyqulov S.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: Darslik. – T.: TDIU, 2013. - 320 b.
17. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogoooblojenie: Uchebnik.–7-e. izd., pererab.i dop.- Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2009. – 227 s.
18. Ponomarev A.I., Ignatova T.V. Nalogovoe administrirovanie v Rossiyskoy Federatsii. M.: Finansi i statistika, 2006. - 288 s.
19. Nalogovoe administrirovanie: uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod red. L.I. Goncharenko. - M.: KNORUS, 2009. - 448 s.
20. Panskov V.G. Nalogi i nalogoooblojenie: teoriya i praktika: uchebnik dlya vuzov / V.G. Panskov. - M.: Izdatelstvo Yurayt; ID Yurayt, 2010. - 680 s.
21. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.
22. Vahobov A.V., Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448- bet.
23. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya Instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2011. 712-bet.
24. Mayburov I.A. Nalogi i nalogoooblojenie. Uchebnik - M.: YuNITI, 2010.- 559 s.
25. Panskov V.G. Nalogi i nalogoooblojenie: teoriya i praktika Uchebnik.–M.: - Yurayt, 2011 – 680 s.
26. Srojiddinova Z.X. O’zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. T.: Incom.uz MChJ- 2010. - 500 b.
27. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti, Darslik (qayta ishlangan)- T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003.-247 bet.

Internet saytlari

28. www.gov.uz – O’zbekiston Respublikasi xukumat portali.
29. www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
30. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi davlat statistika qo’mitasi rasmiy sayti.
31. www.mf.uz – O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
32. <https://soliq.uz/> O’zbekiston Respublikasi Soliq qo’mitasi sayti.
33. www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
34. www.mineconomu.uz – O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti.